

Tarjimondan

Irlandiyalik buyuk yozuvchi Jeyms Joys (1882-1941) ijodi XX asr jahon adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Uning hozirgi zamon adabiyotlariga ko'rsatgan ta'siri g'oyatda ulkan. E.Xemingvay, U.Folkner, T.Vulf kabi dunyoga mashhur adiblar uning shogirdlari bo'lishgani, ular o'z asarlari haqida Joysning e'tirofini ilhaq bo'lib kutishgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. 1982 yili YUNESKO qarori bilan irland realistik adabiyotining klassigi Jeyms Joys tavalludining 100 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. Adibning "Dublinliklar" nomli hikoyalar to'plami, "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" va "Uliss" romanlari allaqachon yuzlab xalqlar tillariga tarjima qilingan, jahondagi barcha nufuzli oliy o'quv yurtlari, o'rta ta'lim adabiyot dasturlari va majmualaridan o'rin olgan.

O'zbek o'quvchisi bu ulug' yozuvchi ijodi bilan Istiqlol sharofati tufayli bahramand bo'la boshladi. Hozircha uning "Dublinliklar" to'plamidan bir necha hikoyalar, "Jakomo Joys" nomli nasriy asari gazeta va jurnallarda e'lon qilindi. 1993 yili filologiya fanlari nomzodi Tilavoldi Jo'rayevning oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Jeyms Joys" nomli risolasi chop etildi. Biz o'z milliy madaniyatimiz, adabiyotimizni puxta o'rganish, qadriyatimizni tiklash va e'zozlash bilan bir qatorda dunyo madaniyatida chinakam hodisa sifatida e'tirof etilgan, vaqt va zamonlar sinovidan o'tgan boshqa xalqlarning nodir ijod namunalaridan ham bahramand bo'lib borishga haqlimiz. Shu ma'noda irlandiyalik adib Jeyms Joys ijodi bilan o'zbek o'quvchilarini tanishtirish kitobxonlarimiz ma'naviy dunyosini boyitishga, badiiy saviyasini yuksaltirishga, go'zallikni nozik va teran his etishga odatlantirishga, didini o'stirishga, qolaversa, XX asr adabiyotining eng muhim yangiliklaridan xabardor etishga xizmat qiladi.

Quyida sizning e'tiboringizga havola etilayotgan J.Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" romani bir qarashda atoqli o'zbek adiblari Oybek, Abdulla Qahhor va G'afur G'ulomning avtobiografik asarlarini yodga soladi. Yosh bolaning, o'smirning ongi atrof-muhitni qay tarzda qabul qiladi, u ta'lim-tarbiya olayotgan maskandagi o'zaro munosabatlar, oiladagi, jamiyatdagi vaziyat bola ongining shakllanishida nechog'li ahamiyat kasb etadi, muayyan muhitda shakllangan bu ong o'z-o'zini anglash jarayonlarini qanday kechiradi - bular barchasi J.Joys romanida nozik psixologik tahlillar orqali juda chuqur ochib berilgan. Muallif asar qahramonining fikrlarini, o'y-xayollarini, kechinmalari va his-tuyg'ularini asosan uning ichki monologlari orqali ko'rsatib beradi.

Birinchi Bob

Et ignotas animum dimittit in artes[1].Ovidiy, Metamorfozalar, VIII, 18

Qadim-qadim zamonda Mo'-mo' degan bir govmish yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, kunlardan bir kun aqlli-hushli, yoqimtoy bolakayga duch kelibdi, bolakayning ismi Bo'-bo' ekan.

Bu ertakni otasi unga aytib berardi. Uning yuzlari sertuk edi.

Bo'-bo' degan bola edi u. Mo'-mo' Betti Bern yashaydigan tomondagi yo'ldan yurib kelardi: Betti limonli obaki sotardi.

Yam-yashil chamanzorda

Gullagan, hoy atirgul.

U shu qo'shiqni aytardi. Bu uning qo'shig'i edi.

To'shagingni ho'llab qo'yganingda oldin issiq bo'ladi, keyin muzday. Onang klyonka to'shaydi. Undan yoqimli hid taraladi.

Onangdan taralgan hid otangnikidan yoqimliroq. Onasi uni o'yinga tushsin, deb royalda dengizchilar raqs kuyini chaladi. U o'yinga tushadi:

Tra-lya-lya, lya-lya.

Tra-lya-lya, tra-lya-lya-lya.

Tra-lya-lya, lya-lya.

Tra-lya-lya, lya-lya.

Charlz tog'a bilan Denti qarsak chaladi. Ular otasi va onasidan katta, ammo Charlz tog'a Dentidan ham keksaroq.

Denting jovonda ikkita cho'tkasi bor. Dastasiga jigarrang barxit qoplangan cho'tka Maykl Devitt sharafiga, yashil barxit

qoplangan cho'tka esa Parnell sharafiga. Har gal papiros qog'ozining varag'ini keltirganida Denti yalpizli obaki beradi.

Venslar yettinchi uyda yashaydi. Ularning ota-onasi boshqa. Hali katta bo'lsa, u Eylinni oladi. U stolning tagiga bekindi. Onasi:

вЂ”Кечирим so'ra, Stiven, - dedi.

Denti:

вЂ”Uzr so'ramasang-chi, burgut uchib keladi-da, ko'zingni cho'qib oladi, - dedi.

Ko'zingni cho'qib olur,

Tirrancha, so'ra uzr,

Tirrancha, so'ra uzr,

Ko'zingni cho'qib olur,

Tirrancha, so'ra uzr,

Ko'zingni cho'qib olur,

Ko'zingni cho'qib olur,

Tirrancha so'ra uzr.

* * *

Katta sport maydonlarida bolalar to'pirlashib, yugurib-elishadi. Bari baravariga baqirib-chaqiradi, tarbiyachilar ham hay-haylashib, ularga dalda berishadi. Kech kirib, kun xira tortgan, havo salqin, har gal to'p surayotganlarning hujumi va zarbalaridan yag'iri chiqib ketgan charm to'p zil-zambil qushday bo'zargan havoga vazmin ko'tariladi. U komandasining dumida sudralib, tarbiyachilarning ko'zidan panaroqda, qo'pol oyoqlaridan chetroqda yer tepib, deysinib yuribdi, ora-sira o'zini yugurayotganga

o'xshatib ko'rsatadi.

Bu to'dada u o'zini kichkina va kuchsiz his etadi, uning ko'zlari ham xira, yoshlanib turadi. Rodi Kikem unday emas: Rodi uchinchi komandaga kapitan bo'ladi, deyishadi bolalar.

Yaxshi bola-da Rodi Kikem, Sassiqlik Rouch yomon, isqirt. Rodi Kikemning oyog'iga kiyadigan himoya qalqonchalari yechinadigan xonada shkafda, qand-qurs solingan savatchasi oshxonada turadi. Sassiqlik Rouchning qo'llari beso'naqay. Marosim oshi - bo'tqa, deydi u. Bir kuni u so'rab qoldi:

- Oting nima?

Stiven javob berdi:

- Stiven Dedalus.

Shunda Sassiqlik Rouch dabdurustdan dedi:

- Bu o'zi qanaqa ism?

- Stiven nima deb javob berishni bilmay qoldi, Sassiqlik Rouch esa tag'in so'radi:

- Kim sening otang?

Stiven aytdi:

- Jentelmen.

Shunda Sassiqlik Rouch so'radi:

- Nima, sening otang sudya emasmi?

U to'p surayotgan bolalar ortidan ilakishib, deysinib yuribdi, ora-sira o'zicha u yoq-bu yoqqa chopqillaydi. Qo'llari sovuqdan ko'karib ketdi. U qo'llarini belbog'li kalta kamzulinining cho'ntaklariga tiqdi. Belbog' degani bu cho'ntaklardan balandroqda turadigan bir narsa. Yoqalashganda zo'r chiqqanni: belbog'i qoruvli deyishlari shundan.

Bir kuni Kentuyellga bir bola shunday dedi:

- Agar xohlasam bir zumdayoq uningni o'chiraman.

Kentuyell dedi:

- Boshqalarga ham tirg'alib ko'r-chi. Qani, Sesil Sanderning unini o'chirish qo'lingdan kelarmikan. Ko'raman, ortingga yaxshilab tepki yeganingni.

Bunday tillashish odobdan emas. Onasi kollejda yoqimsiz bolalar bilan jiqqillashib yurmagan, deb tayinlagan. Onajoni judayam chiroyli-da. Birinchi kelgan kun qasrning qabulxonasida xayrlashayotib onasi uni o'pmoqchi bo'lib yuzidagi to'r-chimmatni xiyla ko'tardi, onasining burni, ko'zlari qizarib ketgan edi. Biroq u o'zini bir kuyga soldi, ko'rmaganga oldi, onasi yig'lab yuboradiganday tuyuldi unga. Onasi yig'lasa yuzi o'zgarib qoladi. Otasi unga ikkita besh shilinglik tanga berdi - harqalay cho'ntagi quruq turmagani tuzuk. Otasi unga biror zarurat sezsa, uyga xat yozishini aytdi, zinhor o'rtoqlarining ustidan chaqimchilik qilib yurmagan, deb tayinladi. Shundan so'ng rektor eshik oldida otasi va onasining qo'llarini siqib xayrlashdi, rektorning egnidagi uzun yaktagi shamolda hilpiradi, otasi bilan onasi o'tirgan izvosh jildi. Ular qo'l silkishdi va izvoshdan unga qichqirishdi:

- Xayr, Stiven, xayr.

- Xayr, Stiven, xayr.

Uning atrofida bolalar to'p talashib, ur-sur boshlandi, chaqchaygan ko'zlarni, loyga belangan boshmoqlarni ko'rib u qo'rqib ketganidan enkayib oldi va bolalarning oyoqlari ostiga qaray boshladi. Bolalar yoqalashar, pishqirishar, ularning oyoqlari tipirchilar, bir-birini tepkilardi. Keyin Jek Lotening sariq botinkasi to'pni tepib yubordi, boshqa botinkalar va oyoqlar uning ortidan yugurib ketdi. U biroq chopib borib to'xtadi. Yugurishga hojat yo'q. Hali-zamon yotoqqa qaytishadi. Kechki ovqatdan so'ng, sinfxonada, partasiga yelimplab qo'yilgan raqamli b'etmish yettini yetmish olti qilib o'zgartiradi.

Hozir bu yerda, izg'irinda uloqib yurgandan ko'ra sinfxonada o'tirgani yaxshi. Havoning avzoyi buzuq, bosh binoda, qasrda esa olov yonib turibdi. U o'zicha, Gamilton Rouyen qaysi derazadan shlyapasini chakalak ustiga otgan ekan, deb o'yladi, o'sha paytda ham deraza tagida gulxona bo'lganmikan. Bir kuni, qasrdaligida, bu yerlik xizmatchi unga askar otgan o'qning eshikdagi izini ko'rsatdi va jamoa iste'mol qiladigan yong'oqli qotirma non berdi. Qasrda olovga termulib o'tirish mazza-da, issiq. Xuddi kitobchada yozilganday. Lester abbatligi shunaqa bo'lgandir, ehtimol. Doktor Kornuyellning darsligida qanday yaxshi gaplar bor edi. Ular she'rnga o'xshaydi, biroq she'r emas, husnixatni mashq qilish uchun berilgan misollar, xolos:

Uolsi Lester abbatligida qazo qildi,

Abbatlar uni shu yerga dafn etdilar.

Giyohlarni qurt-qumursqa yeb bitiradi,

Jonzotlarni qisqichbaqa kemiradi.

Hozir kamin yonidagi gilamga cho'zilib yotib, iyagingga kaftlaringni tirab bu gaplarning mag'zini chaqsang. U seskanib ketdi, badanida allaqanday sovuq shilimshiq suyuqlik oqib tushayotganday bo'ldi. Uyelss pastkashlik qildi-da, uni hojatxona teshigiga qarab itarib yubordi, jajji tamakidonini oshiqqa alishmagani uchun shunday qildi, uni Uyelss qimorda qirq marta yutib olgan edi. Suv sovuq, shilimshiq edi-ya! Bir bola katta kalamushning bo'tqaga o'zini otganini ko'rib qolgan. Onasi bilan Denti kamin yonida, Brijetning choy olib kelishini kutib o'tirishibdi. Onasi oyoqlarini kaminning panjarasiga qo'ydi, munchoqdan gul solib tikilgan paypog'i isidi, ulardan xushbo'y hid, mayin harorat taraldi. Dentining bilmagan balosi yo'q. Denti unga Mozambik bo'g'ozi qayerdaligini, Amerikadagi eng uzun daryo, oydagig eng baland tog' qanday atalishini o'rgatadi. Hazrat Arnoll Dentidan ham ko'p biladi, chunki u ruhoniy, biroq otasi bilan Charlz tog'a Denti aqlli, o'qimishli ayol, deyishadi. Ba'zan Denti ovqatdan so'ng, og'zini qo'li bilan to'sib, g'alati tovush chiqaradi: bu - kekirik.

Maydonning narigi chetidan kimdir qichqirdi:

- Hamma uyga!

Unga kichik va tayyorlov sinflari bolalarining ovozi qo'shildi:

- Uyga! Hamma uyga!

Qizarib-bo'g'riqib ketgan, ust-boshlari loyga belangan bolalar bir joyga to'planishdi, u bolalarning orasida ketayapti, yotoqqa qaytayotganidan xursand. Rodi Kikem to'pni sirpanchiq bandidan ushlab ko'tarib borayapti. Bolalardan biri unga oxirgi marta to'pni tashlab ber, dedi, biroq Rodi pinagini buzmad, hatto javob ham qilmadi. Saymon Munen jim yur, nazoratchi kuzatib kelayapti, dedi. Shunda haligi bola burilib, Saymon Munenga shunday dedi:

- Nima uchun bunday deyaotganingni bilamiz. Sen uchiga chiqqan xushomadgo'ysan.

"Xushomadgo'y" B qandaydir g'alati so'z. U bola Saymon Munenni behuda haqorat qilmadi. Saymon Munen ba'zida nazoratchi Makgleydga orqa qilib, yeng uchida ish bitiradi, nazoratchi bo'lsa go'yo o'zini jahli chiqqanday ko'rsatadi. Bu so'zning ohangi yoqimsiz. Bir safar u Uiklou mehmonxonasida hojatxonadagi chanoqda qo'lini yuvdi, keyin otasi zanjirga bog'lab qo'yilgan tiqinni ochib yubordi va shunda yuvindi suv teshikdan pastga oqib tusha boshladi. Suv sekinlab oqib ketgandan so'ng chanoqning teshigidan: "x-u-sh" degan tovush chiqdi. U shuni esladi, yana hojatxonaning oppoq devorlari esiga tushdi, badani junjikib, sovqotganday bo'ldi, keyin qizib ketdi. U yerda ikkita jo'mrak bor, ularni burash kerak, shunda sovuq va issiq suv oqadi. Badani bir zum sovqotib qaltiradi, keyin biroz qiziganday bo'ldi. U jo'mraklarga muhrlangan so'zlarni ko'rdi. Bunda qandaydir g'alati sir bor edi.

Dahliz ham sovuq, havosi allaqanday bo'g'iq, zax. Hechqisi yo'q, hademay gazni yoqishadi, gaz yonib turganda, xuddi ashula xirgoyi qilganday, bir maromda vishillaydi. O'sha, har doimgi ashulasini kuylaydi, bolalar shovqin qilishmasa dam olish xonasida xirgoyini eshitsa bo'ladi.

Arifmetika darsi boshlandi. Hazrat Arnoll doskaga bir qiyin masalani yozdi-da, bolalarga qarab shunday dedi:

- Xo'sh, qani, kim g'olib chiqarkan? Boshla, York! Tez bo'l, Lankaster!

Stiven jon-jahdi bilan kirishdi, biroq masala juda murakkab edi, u chalkashib ketdi. Ko'krigidagi, kamzulinig ustidan oq atirgul qo'shib taqilgan shoyi nishoncha titray boshladi. U arifmetikadan kuchli emas edi, biroq Yorklar yutqazib qo'ymasini, deb jon-jahdi bilan tirishdi. Hazrat Arnoll yuziga jiddiy tus berdi, biroq u jahлга minmagan, miyig'ida kulib turardi. Tuyqusdan Jek Loten barmoqlarini qirsillatdi va Hazrat Arnoll uning daftariga nazar tashlab, dedi:

- To'g'ri, yasha Lankaster! Qirmizi atirgul yutdi. Qani-qani, bo'sh kelma, York! Qani, tez bo'l.

Jek Loten o'tirgan joyidan ularga qarab-qarab qo'yadi. Uning dengizchilar kiyadigan moviy ko'ylagidagi qirmizi atirgul qo'shib taqilgan jajji shoyi nishoncha judayam yarashiqli edi. Stiven yuzlari qizarganini his qildi, shu damda u bolalarning tayyorlov sinfida kim kuchli: Jek Lotenmi yo Stivenmi, deb bahs boylashganini eslagandi. Birinchi o'quvchi nomini bir hafta Jek Loten, bir hafta u qo'lga kiritgan vaqtlar ham bo'lgan. Navbatdagi masalani yechar ekan, uning oq shoyi nishonchasi titrab, qulog'i ostida Hazrat Arnollning ovozi jaranglab turdi. Keyin uning g'ayrati susayib qoldi, manglayiga sovuq ter tepchidi, yuzlari bir zumda sovub qolganini his qildi. Betim sovib ketdi, demak, oqarib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladi u. Masalani yecha olmadi, biroq tashvishlanmasa ham bo'ladi. Oq atirgul, qirmizi atirgul b"bari chiroyli gullar! Birinchi, ikkinchi, uchinchi o'quvchiga beriladigan guvohnomalarning ham hammasi birday chiroyli: qirmizi, oq sariq va binafsha. Oq sariq, binafsha va qirmizi atirgullar ham chiroyli. Balki yovvoyi atirgullar aynan shundaydir: bexosdan xayoliga maysazordagi yovvoyi atirgul haqidagi qo'shiq keldi. Biroq atirgullarning yashil ranglisi bo'lmaydi. Kim bilsin tag'in, bir joylarda bo'lsa bordir.

Qo'ng'iroq jiringladi va o'quvchilar sinf-sinf bo'lib birin-ketin dahlizdan yurib oshxonaga yo'l olishdi. U likopchasidagi ikki tuyur sariq yog'ga termilib o'tiribdi, biroq yelimshak nonni yeya olmadi. Dasturxon ham ho'l, shilimshiq. Shunga qaramay, u oq etak bog'lab olgan qo'pol xizmatchi krujkasiga shopirib quyib ketgan issiq choyini bir ko'tarishda sipqordi. Sassiqlik bilan Sorin qahva ichdi, ularga qahvani uyidagilari tunuka qutilarda yuborishadi. Bu yerning choyini ichib bo'lmaydi, yuvindiga o'xshaydi, deyishadi ular. Ularning otalari - katta sudya, deb gapiradi bolalar.

Bolalar unga juda g'alati tuyuladi. Ularning hammasining otasi, onasi bor, hammasining kamzullari va ovozlari har xil. Shu zumda uylarida bo'lib qolsa, qani endi onasining tizzasiga boshini qo'yib yotsa. Biroq buning hech iloji yo'q, qani bu o'yinlar, darslar, ibodatlar tezroq tugay qolsa, borib to'shakda cho'zilib yotardi.

U yana bir krujka qaynoq choy ichdi, shu payt Fleming so'radi:

- Senga nima bo'ldi? Biror joying og'riyaptimi?

- Bilmayman, - dedi Stiven.

- Qorning og'riyotgan bo'lsa kerak, - dedi Fleming, - ranging oqarib ketganga o'xshaydi. Hechqisi yo'q, o'tib ketadi.

- Ha, - dedi Stiven.

Biroq uning qorni og'rimayotgandi. Yuragim og'riyapti, deb o'yladi u, agar shu joy og'rishi mumkin bo'lsa. Fleming ko'ngli ochiq bola, undan hol so'radi. Yig'lagisi keldi uning. Tirsaklarini stolga tiradi va kaftlari bilan ikkala qulog'ini mahkam bekitdi, keyin ochdi. U har gal qulog'ini chippa bekitib, keyin ochganda oshxonadan kuchli shovqin eshitiladi. Bu xuddi tunda shitob bilan ketayotgan poyezd shovqiniga o'xshaydi. U qulog'ini bekitsa shovqin tinadi, poyezd tunelga kirib ketganday. O'sha oqshom Dokida poyezd mana shunday gumburlagan edi, tunnelga kirishi bilan shovqin tindi. Stiven ko'zlarini yumdi, poyezd yurdi b"bari shovqin, so'ng jimlik, yana shovqin b"bari jimlik. Uning gumburlashini, keyin tinchlanishini eshitish maroqli, mana, tag'in tunneldan otilib chiqdi, gumburladi, jimib qoldi.

Keyin yuqori sinf bolalari saflanishib, oshxona o'rtasidagi poyondoqdan yurib o'ta boshlashdi. Peddi Ret, Jimmi Meji, ispan bola, unga tamaki chekishga ruxsat berilgan, kichkina portugal ketayapti, jun qalpoq kiyib yuradi. Keyin kichik sinflar va tayyorlov bo'limi qo'zg'aldi. Har qaysi bolaning o'ziga xos ravish-raftori bor.

U dam olish xonasining bir burchagida, o'zini go'yo domino o'yinini tomosha qilayotgan ko'yga solib o'tiribdi, ora-sira birmi, ikki bor gazning xirgoyisini eshitishga muvaffaq bo'ldi. Nazoratchi bolalar bilan eshik oldida tik turibdi. Saymon Munen odatdagiday uning soyasida kuymalanadi. Nazoratchi bolalarga Tallabeg haqida nimanidir gapirayotir.

Keyin u eshikdan naribroqqa yurdi. Uyells esa Stivenga yaqin kelib, so'radi:

- Ayt-chi, Dedalus, sen uxlash oldidan onangni o'pamanmi?

- Ha, - deb javob berdi Stiven.

Uyells bolalar tomonga o'girilib, dedi:

- Eshitdinglarmi, bu bola har kun oqshom uxlash oldidan onamni o'paman, deyapti.

Bolalar o'yinni to'xtatib, o'girilib qarashdi va kulib yuborishdi. Stiven ularga qarab, kulishlaridan loyullab tutaqib ketdi:

- Yo'q, men o'pmayman.

Uyells uning gapini ilib oldi:

- Eshitdinglarmi, bu bola uxlash oldidan onasini o'pman ekan.

Yana kulgi ko'tarildi, Stiven ularga qo'shilib kulishga urindi. Birdan a'zoyi badani qizib ketdi, o'zini noxush sezdi. Qanday javob berish kerak edi? Unday desa ham, bunday desa ham Uyells kuldi-ku! Uyells, aftidan, nima deb javob berishni biladi, chunki u uchinchi sinf. Stiven Uyellsning onasini ko'z oldiga keltirmoqchi bo'ldi, biroq Uyellsga qarashga botinilmadi. Uyellsning basharasi unga yoqmasdi. Shu Uyells uni kecha hojatxona teshigiga itargiladi, u jajji tamakidonini oshiqqa alishmadi, oshiqni

Uyells qimorda qirq bor yutib olgan. Uyells pastkashlik qildi, bolalar shunday deyishdi. Suv muzday, shilimshiq edi. Bir bola katta kalamushning bo'tqaga "shalp" etib tushganini ko'rib qolgan.

Badanida allaqanday yoqimsiz sovuq shilimshiq suyuqlik yugurganday bo'ldi, darsga qo'ng'iroq chalinganda bolalar dam olish xonasidan tizilib chiqib boshlashdi, u dahlizda, keyin zinapoyada ketayotib kiyimining tagidan izillab sovuq kirayotganini his qildi. Hanuz miyasida nima deb javob berish kerak edi, degan o'y charx uradi. Qaysisi to'g'ri - onasini o'pgani ma'qulmidi, o'pmagani? O'pich degani nima? Onangga "xayrli tun" deyish uchun boshingni mana bunday ko'tarasan, onang yuzini tutadi. Shu-da, axir, o'pich degani. Onasi uning iyagiga lablarini bosadi, onasining lablari yumshoq, lablari uning iyagiga sovuqqina tegadi va qisqagina mayin tovush chiqaradi: ps. Odamlarning bir-birlariga yuzlarini tutishining nima keragi bor ekan?

U o'z o'rniga o'tirib, partasining qopqog'ini ochdi va tagiga yelimgan raqamni b'etmish yettini yetmish olti qilib o'zgartirdi. Mavlud ta'tiligacha hali juda uzoq, biroq qachondir baribir u kunlar keladi, axir, yer tinimsiz aylanib turibdi-ku.

Uning geografiya darsligining birinchi betida Yer rasmi bor. Ulkan shar bulutlar orasida. Flemingda bir quti rangli qalamlari bor, bir kuni kechqurun mustaqil dars payti Fleming yerni yashilga, bulutlarni esa jigarrangga bo'yadi. Bu Dentining javondagi ikkita cho'tkaday: dastasiga yashil barxat qoplangan cho'tka Parnell sharafiga, jigarrang barxat qoplangan cho'tka Maykl Devitt sharafiga. Biroq bunaqa ranglarga bo'yashni u Flemingdan iltimos qilgani yo'q. Fleming o'zi shunday bo'yadi.

U dars tayyorlamoqchi bo'lib geografiyani ochdi, biroq Amerikadagi atamalarni yodida saqlay olmadi. Har xil joylar turlicha nomlarda ataladi. Ular turli mamlakatlarda, qit'alarda, qit'alar esa Yerda, Yer esa Koinotda.

U yana birinchi betni ochdi va qachondir o'zi yozib qo'ygan so'zlarni o'qidi: mana uning o'zi, ism-sharifi va yashayotgan joyi.

Stiven Dedalus
Tayyorlov sinfi
Klongous Vud Kollej
Sellinz
Kilder grafligi
Irlandiya
Ovrup
Yer
Koinot

Buni o'zi qo'li bilan yozib qo'ygan. Fleming esa bir kuni kechki payt hazillashib shu betning orqasiga bunday deb yozdi:

Stiven Dedalus - ismim mening,
Irlandiya - mening vatanim.
Klongous - boshpanam mening
Osmon - mening panohim.

U she'rni teskari tomondan o'qidi, biroq endi she'rga o'xshamadi. Keyin u birinchi betdagi yozuvni quyidan yuqoriga qarab o'qib chiqdi va o'zining ismiga keldi. Mana bu uning o'zi. U tag'in hammasini yuqoridan quyiga qarab o'qidi. Koinotdan keyin nima keladi? Hech nima. Biroq koinot tevaragida, balki uning qayerda tugashini va bu hech nima qaysi joydan boshlanishini belgilaydigan bir nima bordir? U qalin devor bilan to'silmagandir, ehtimol tevaragini yupqa gardish o'rab olgan bo'lishi mumkin. Bor butunicha va hamma joyni o'rab olishi - g'alati-ku? Aqlga sig'maydi. Yolg'iz tangrigina bunga qodir. Bu cheku chegarasiz ulkan fikrni tasavvur qilishga urindi, biroq xayoliga faqat tangri keldi, xolos. Tangri - tangrining ismi bu, xuddi uning ismi Stiven bo'lganiday. Diyeu b'tangri shunday bo'ladi, tangrini shunday deb ham atashadi, kimdir birov tangriga sig'inayotib Diyeu deb murojaat qiladi, shunda tangri sig'inayotgan fransuzligini darhol payqaydi. Ismi turli tillarda turlicha bo'lsa-da, tangri hammasini tushunadi, odamlar o'z tillarida tilovat qilishsa-da, nimani gapirishayotganini bilib turadi, baribir tangri tangriligicha qoladi va uning haqiqiy ismi Tangri.

Bu fikrlardan u juda toliqdi. Nazarida boshi xumday shishib ketganga o'xshadi. Varaqni ochib, uyquli ko'zlari bilan jigarrang bulutlar orasidagi dumaloq yashil yerga qaradi. U o'ylab boshladi, qaysi to'g'ri - yashil rangni yoqlash kerakmi yoki jigarrangnimi, chunki bir kuni Denti qaychi bilan cho'tkaning dastasidagi Parnell sharafiga qoplangan yashil barxatni so'kib tashladi va unga eshittirib, Parnell - yaramas odam, dedi. Hozir uylarida bu haqda munozara qilishayotganmikan. Bu siyosat deyilardi. Ikki taraf bo'lardi: Denti bir taraf, otasi va mister Keysi - boshqa taraf, biroq onasi bilan Charlz tog'asi biror-bir tarafga qo'shilishmasdi. Har kuni ro'znomalar bu haqda nimalardir yozishardi.

Siyosat nima ekanini yaxshi tushunmasligi, Koinot qayerda tugashini bilmasligi unga alam qiladi. U o'zini kichkina va nimjon sezdi. Qachon u poyeziya va ritorika sinfidagi bolalarday bo'larkan? Ularning tovushi katta odamlarnikiday, barmoqlari ham katta-katta, ular trigonometriyani o'tadi. Bungacha hali juda uzoq. Avval ta'til bo'ladi, keyin esa navbatdagi semestr, undan keyin yana bir semestr, undan keyin yana ta'til. Bu poyezdga o'xshaydi, tunnelga kiradi, tunneldan chiqadi va yana shovqinga o'xshaydi, agar oshxonada qulog'ingni bekitib turib ochsang, bir eshilib, bir tinadigan shovqinga. Semestr - ta'til, tunnel - tashqari, shovqin - jimlik, ehe, hali bu judayam uzoq! Qaniydi, tezroq to'shakka kirib uxlab qolsa. Cherkovda ibodat qilib olinsa bo'ldi - to'shakka sho'ng'iydi. Uni bezgak tutdi, esnadi. Cho'yshablar ozroq isigandan keyin to'shakda yotish mazza-da. Kirgan paytingda muzday bo'ladi. Buni xayoliga keltirib, badani qaltirab ketdi. Keyin isiydi, shundan so'ng uyquga ketasan. O'zingni horg'in sezishning gashti bor. U yana esnadi. Kechki ibodat tugadimi - tamom, to'shakka sho'ng'iyisan, u kerishdi va tag'in esnagisi keldi. Bir necha daqiqadan so'ng huzur qilasan. U shitirlyotgan sovuq cho'yshabga iliq nafas urilayotganini, birdan isib ketayotganini his qildi, a'zoyi badani qizib ketdi, keyin biroz sovuganday bo'ldi, bezgak tutdi va esnagisi kelib og'zini ochdi.

Kechki ibodatga qo'ng'iroq chalindi va ular juft-juft bo'lib zinadan yurib, dahliz orqali cherkovga borishdi. Uzun dahlizdagi chiroqlar ham xira. Hademay hammasi o'chadi, tinchiydi. Cherkov sovuq, oqshomgi salqin havo ufuradi, marmar ustunlarning esa rangi tungi dengiznikiday. Dengiz sovuq, kechasi ham, kunduzi ham, biroq kechasi sovuqroq. Quyiroqda, ularning uylarining yonida, to'lqinga qarshi qurilgan g'ov atrofi ham sovuq va qorong'i. Uylarida olovda qozoncha qaynayapti, unda punsh pishayapti. Ruhoniy tepasida turib duo o'qidi va uning xotirasida duo satrma-satr muhrlandi.

Tangrim! Kalomimni o'zing rost etgaysan,
Kalomim sharaflarga burkagay nomingni Sening,
Shoshil, Xudoyim, menga najot bergali.

Cherkov sovuq, oqshom nafasi hukm suradi. Biroq bu ilohiy nafas. Bu yakshanba kunlari ibodat chog'ida ulardan orqaroqda tiz cho'kib o'tiradigan dehqonlardan anqiydigan hidga o'xshamaydi. Dehqonlardan qishloq havosining, yomg'irning, torf va dag'al matolarning hidi anqiydi. Ularning nafasi shundoq uning kiftiga urilib turadi, cho'qinganida ular xo'rsinib qo'yishadi. Ular Kleynda yashaydi, deydi bir bola. Kichik-kichik uycharlar bor Kleynda. Bir safar ular Sellinzni yoqalab yo'ldan o'tib ketishayotganida u qiya ochiq eshikda qo'lida bola ko'tarib turgan ayolni ko'rgan. Qani, uychara bir oqshom tunab, torf tutab yotgan o'choq oldida, lovullab qizib yotgan cho'g'ning alangasi yoritgan g'ira-shira qorong'ilikda dehqonlardan anqigan hiddan, yomg'ir, torf va dag'al matolarning hididan to'yib-to'yib nafas olsang. Biroq daraxtlar orasidan o'tgan yo'l qop-qorong'u! Bunday zimistonda adashib qolganning holiga voy! Bu haqda o'ylab, uni vahima bosdi. U tilovatning so'nggi so'zlarini o'qigan ruhoniyning tovushini eshitdi. Cho'qina boshladi, biroq xayolini daraxtlar orasidagi qorong'ulik haqidagi o'y tark etmasdi.

U yotoqxonada yechinayotganida barmoqlari titradi. Barmoqlarini bo'ysundirishga urindi. Gazni o'chirishguncha u yechinishi, tiz cho'kishi, duo o'qishi va to'shakka yotishi kerak edi. U paypoqlarini sug'urdi, shasha-pisha tungi uzun ko'ylagini kiydi-da, qaltirab karavot yoniga tiz cho'kdi va gaz o'chib qolishidan xavotirda naridan-beri duo o'qiy boshladi. U pichrlaganda yelkalari silkinib qo'yardi.

Tangrim, otam bilan onamni o'z panohingda
saqla va ularni men uchun asra!

Tangrim, ukalarim va singillarimni o'z
panohingda saqla va ularni men uchun asra!
Tangrim, Denti bilan Charlz tog'ani o'z
panohingda saqla va ularni men uchun asra!

U cho'qindi va sakrab to'shakka sho'ng'idi, ko'ylagining etagiga oyoqlarini chirmab, a'zoyi-badani titrab-qaqshab, muzday oq choyshabga kulcha bo'lib o'ranib oldi. Qazo qilganida do'zaxga tushmaydi, qaltirog'i esa hademay bosiladi. Yotoqxonada bolalarga xayrli tun tilagan ovoz eshitildi. U bir zum boshini chiqarib qaradi, karavotning oldi va yon tomonlariga tortilgan, uni to'rt tomonidan bekitib turgan yashil pardalarga ko'zi tushdi. Gazni sekin pasaytirib o'chirishdi.

Nazoratchining qadam tovushi uzoqlashdi. Qayoqqa ketayapti? Zinadan yurib pastga tushib, keyin dahlizga o'tarmikan yoki dahlizning to'ridagi o'zining xonasiga borarmikan? U zulmatni ko'rdi. Qora it haqidagi gaplar rostmikan, tunlari bu yerda izg'ib yurarmish, ko'zlari to'rt g'ildirakli aravaning chiroqlariday katta-katta. Aytishlaricha, bu qotillarning arvohlari emish. Qo'rquvdan uning badani qaltirab ketdi. Ko'ziga qasrning zim-ziyo dahlizi ko'rindi. Qartayib qolgan xizmatkorlar eski-tuski korjomalarida, zina tagidagi dazmolxonaga yig'ilishdi. Bu ancha burun bo'lgan. Qari xizmatkorlar churq etmay o'tirishardi. O'choqda olov lipillaydi, biroq past qop-qorong'i. Birov dahlizga ko'tariladigan zinadan chiqib kelayotir. Egnida oq marshallik plash, yuzi gazargan, befarq. Qo'lini yuragi ustiga mahkam bosgan. Qari xizmatkorlarga befarq qaradi. Ular ham xo'jayinlarining yuzini, kiyim-kechagini tanishdi va uning o'qqa uchganini payqashdi. Biroq ular qaragan taraf qorong'i edi, zim-ziyo, o'lik sukunat. Ularning xo'jayini Praga bo'sag'asida, juda uzoqda, dengizdan olis joyda ajal o'qiga duchor bo'lgan. U jang maydonida turardi, qo'li ko'ksiga mahkam bosilgan.

O', juda sovuq va bu haqda o'ylash juda qo'rqinchli! Qorong'ida battar sovuq va battar qo'rqinchli. To'rt tomonda yuzidan qoni qochgan, g'alati basharalar, fonarga o'xshagan katta chaqchaygan ko'zlar. Bu qotillarning arvohlari, uzoqlarda, dengizdan naridagi qonli jang maydonlarida o'qqa uchgan marshallarning sharpalari. Ular nima demoqchi bo'lishayotir, nega yuzlari g'alati?

"Tangrim, tashrifingni bu dargohdan darig' tutma, bizni yo'ldan ozdirguvchi shayton vasvasasidan o'zing omon saqla..."

Uyga - ta'tilga! Qanday soz bo'lardi! Bolalar unga aytishgan. Qish boshida erta tongda qasr darvozasi oldida hamma izvoshlarga o'tirib oladi. G'ildiraklar qayroqtosh yo'lda g'ichirlaydi. Rektorga xayr-xo'sh aytgan so'zlar jaranglaydi.

Ura! Ura! Ura!

Izvoshtar kichik butxona yonidan o'tadi, hamma bosh kiyimini yechadi. O'ynab-kulib qishloq yo'liga chiqib olishadi. Aravakashlar qamchi bilan Bundenstaun2 tarafga ishora qiladi. Bolalar qichqiradi: "Ura!" Ijarachi Jollining uyi yonidan o'tishadi. Ura, ura va yana bir bora ura! Shodon qiyqiriqlar bilan Kleyndan o'tishadi, yo'l chetida turgan odamlarga qichqirishib salom berishadi, ular ham kulib-qiyqirib alik oladi. Qiya ochiq eshiklar oldida qishloq ayollari qarab turishibdi, u yer-bu yerda erkaklarning qorasi ko'rinadi. Qish havosining ajoyib hidi - bu Kleynning havosi: yomg'ir hidi, eriyotgan torf va dehqonlarning dag'al ust-boshlaridan anqiyotgan hid.

Poyezd bolalar bilan tirband: uzun shokoladnusxa poyezd. Konduktorlar nari borib, beri kelib, eshiklarni yopib-ochib yurishibdi.

Ular to'q havorang zarhalli mundir kiyib olishgan, qo'llarida kumush hushtaklar, kalitlari quvnoq jiringlaydi: klik-klik, klik-klik.

Poyezd Ellin qirlarini ortda qoldirib, tap-taqir tekislikda shitob bilan ketayotir. Telegraf og'ochlari lipillab ortda qolayotir...

Poyezd yeldek uchadi... U yo'lni biladi. Uylari ayvonida fonarlar, yashil novdalardan yasalgan gulchambarlar bor. Pechakgul va ignabarglar katta toshoynani chirmab olgan, biri yashil, biri qirmizi pechakgul bilan ignabarg chilchiroqning girdiga chirmashib ketgan. Yashil pechakgul va qirmizi ignabarg devor bo'ylab eski suratlarining tevaragiga o'ralgan. Pechakgul ham, ignabarg ham uning shodligi uchun, mavlud ayyomi uchun.

Qanday soz!

O'z uying - o'lan to'shaging. Salom Stiven! Shodon qiyqiriqlar. Onasi uni o'padi. O'pish shartmikan? Uning otasi endi marshal, sudya ham gapmi. Mana uyingdasan. Salom, Stiven.

Shovqin...

Bu sharaqlab ochilayotgan pardaning shovqini edi, chanoqlardan oqib tushayotgan suvning shuvillashi edi. Yotoqxonada uyg'onib o'rnidan turayotgan, kiyinayotgan va yuvinayotgan bolalarning shovqini: nazoratchi kaftini kaftiga urib, nari-beri borib kelar, bolalarga baqirib, ularni qistardi... Quyoshning zaif nurlari surib qo'yilgan sariq pardalarga, g'ijimlanib yotgan choyshablarga tushib turibdi. Uning to'shagi tanchaday qizib ketgan, yuzi ham, a'zoyi-badani ham juda issiq.

U o'rnidan turib, karovatning chetiga o'tirdi. O'zini darmonsiz sezdi. Uzun paypog'ini kiymoqchi bo'ldi. Paypog'i juda qattiq,

5 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

dag'al tuyuldi, o'zini behol sezdi.

Fleming so'radi:

- Senga nima bo'ldi, tobing qochdimi?

O'zi bilmasdi nima bo'lganini. Fleming tag'in so'radi:

- To'shaginga kira qol. Men Makgleydga aytaman, tobi qochib qoldi, deyman.

- U kasal.

- Kim?

- Makgleydga aytinglar.

- Kir, kirib yotaver.

- U kasalmi?

Bolalardan biri qo'ltig'idan ushlab suyab turdi. U oyog'iga yopishib qolgan paypog'ini sug'urib oldi va issiq to'shakka kirib yotdi.

U to'shagi sovib qolmaganiga quvonib, o'zini choyshabning ichiga oldi. Qulog'iga ertalabki ibodatga chog'lanayotgan bolalarning o'zi haqidagi gap-so'zlari chalindi. Ablahlik qildi-da. Uni hojatxona teshigiga itarish - ablahlik bo'ldi, deyishardi ular. Keyin bolalarning ovozi tindi, ular chiqib ketishdi. Karavoti yonidan kimningdir ovozi keldi:

- Dedalus, sen bizlarni chaqib bermaysan-a, to'g'rimi?

Qarshisida Uyellsning basharasi ko'rindi. Unga qaradi va Uyellsning qo'rqatyotganini sezdi.

- Men atay qilganim yo'q. Aytmysan-a, Stiven?

Otasi zinhor o'rtoqlarining ustidan chaqimchilik qilib yurmagan, deb tayinlagan. U boshini chayqadi. "Yo'q" dedi va o'zini yengil his etdi.

Uyells dedi:

- Chin so'zim, ishon, men atay qilganim yo'q. Men hazillashdim. Xafa bo'lma.

Uyellsning basharasi g'oyib bo'ldi, tovushi uchdi. UZR so'rayapti, chunki qo'rqadi. Qo'rqadi, go'yo u bedavo dardga yo'liqqanu...

Giyohlarni qurt-qumursqa yeb bitiradi, jonzotlarni qisqichbaqa kemiradi yoki aksincha. Bu ancha oldin bo'lgan edi, o'shanda maydonda, kech kirib qosh qoraya boshlagan pallada, u komandasining dumida yer tepinib yurar va zim-zambil qush bo'zrang havoda yer bag'irlab uchardi. Lester abbatligida chiroqlarni yoqishdi, u yerda Uolsi qazo qildi. Uni abbatlar o'zlari dafn etishdi.

Bu endi Uyellsning emas, unga tikilib turgan nazoratchining basharasi edi. U tilyog'malik qilayotgani yo'q. Yo'q, hecham, u chindan betob. Aldayotgani yo'q. U manglayida nazoratchining qo'lini sezdi, nazoratchining qo'li ostida manglayi juda issiq va ho'l ekanini his qildi. Go'yo kalamushni ushlaganday seskandi - shilimshiq, jiqqa ho'l va sovuq. Har qanday kalamushda ko'zi ikkita, ular ko'rish uchun. Terisi tuksiz, taqir, silliq va sirpanchiq: oyoqlari kichkina, yig'ilgan, sakrashga qulay, qop-qora yiltillab turadigan ko'zchalari bor, ko'rish uchun. Ular biladi qanday sakrashni. Biroq trigonometriyani ular ikki dunyodayam tushunmaydi. O'lganlari yonboshi bilan yotadi, ularning terisi qovjirab, qurib qoladi. Endi bu o'limtik, xolos.

Nazoratchi qaytib keldi, gapirayotgan uning ovozi, turish kerakligini aytayapti, unga ibodatxona bosh ruhoniysi tursin, kiyinib kasalxonaga borsin debdi. U o'rnidan turib, kuchining boricha ildamroq kiyinishga urinayotganda nazoratchi dedi:

- Mana endi biz birga-birga Maykl og'aning qabuliga boramiz va qorinchamizda taloto'p bo'layapti, deb aytamiz unga.

Nazoratchi shunday dedi, chunki u yaxshi odam. Uni kulsin deb atay shunday gapirdi. Biroq u kula olmadi, chunki iyagi, lablari qalt-qalt titrayapti, buni ko'rgan nazoratchi o'zi kulib qo'ydi. Keyin qichqirdi:

- Qani bo'!! Dadil-dadil qadam tashla!

Ular birga-birga zinadan pastga tushishdi va dahlizdan yurib, hammomning yonidan o'tishdi. Hammomning eshigiga ro'para kelganda u bezovta xavotir ichida ilmiliq, torf tusidagi bo'tana suvni, iliqlik namxush havoni, suvga sho'ng'iyotgan gavgdalarning shov-shuvi va sochiqlarning dorilar hidiga o'xshash hidini esladi.

Maykl og'a kasalxonaga eshigi oldida turardi, uning o'ng tomonidagi qorong'i xona eshigidan dorilarning hidiga o'xshash hid kelardi. Bu javonlarga terilgan shishalardan chiqayotgan hid. Maykl og'a bilan gapga kirishib ketdi. Maykl og'a nazoratchining savollariga javob qildi va uni "ser", dedi. Uning sariq sochlariga oq oralagan, qiyofasi g'alatiroq edi. Uning bir umr og'aligicha qolishi qiziq. Uni "ser" deb chaqirish mumkin emasligiyam g'alati, chunki u og'a - tamom-vassalom, boshqalarga o'xshamaydi. U boshqalarday taqvodor emasmikan? Boshqalardan nimasi kam uning?

Xonada ikkita karavot qo'yilgan, bittasida bir bola yotgan edi, ular ichkariga kirishganda o'sha bola qichqirdi.

- Salom boshlovchi Dedalus! Tepada nima gap?

- Tepada osmon bor, - dedi Maykl og'a.

Bu uchinchi sinfdagi o'qiydigan bola edi. Stiven yechinayotganda u Maykl og'adan bir bo'lak qizartirib pishirilgan non bilan yog' uzatishini so'radi.

- Uzataqoling, iltimos, - dedi u.

- Yog' yegilari kelibdi-da, - dedi Maykl og'a. - Hali doktor kelsin, sening javobingni beramiz.

- Javobimni berasizmi? - takrorlab so'radi bola. - Men hali butkul sog'ayganim yo'q-ku.

Maykl og'a gapini takrorladi:

- Beramiz, beramiz, ko'ngling to'q bo'lsin. Buni senga men aytayapman.

U o'choqdagi olovni qo'zg'amoqchi bo'lib enkaydi. Uning beli chana tortadigan otlarnikiday uzun edi. U kosovni hafsala bilan silkiladi va uchinchi sinf bolasiga ma'nilatib bosh iring'ab qo'ydi.

Keyin Maykl og'a chiqib ketdi, biroz o'tib uchinchi sinf bolasi devor tomonga o'girilib oldi va uxlab qoldi.

Mana, u kasalxonada. Demak, u kasal. Ular ota-onasiga xat yozib, xabar berishganmikan. Yaxshi bo'lardi agar ruhoniylardan birortasi borib aysa. Yoki o'zi xat yozib berardi, eltib bersa.

Mehribon onajonim!

Men kasal bo'lib qoldim. Uyga ketgim kelayapti. Tezroq keling, meni uyga olib keting. Men kasalxonadaman.

Suyukli o'g'lingiz Stiven.

Ular judam uzoqda! Deraza ortidan quyoshning tafsiz nuri yiltiraydi. Birdan o'lib qolsa-ya? Axir, quyosh chiqib turgan kunda ham o'lib qolishi mumkin-ku. Ehtimol, u onasi yetib kelguncha o'lib qolar. Unday bo'lsa dafn marosimini cherkovda o'tkazishadi. Littl o'lganda shunday qilishgan - unga bu haqda aytib berishgandi. Hamma bolalar qora kiyimda cherkovda yig'ilishadi, hammasi motamsaro qiyofada. Uyells ham keladi, biroq birorta bola unga qayrilib qarashni istamaydi. Keyin tobutni ohista ko'tarishib, cherkovdan olib chiqishadi va katta xiyobon ortidagi jamoaning mo'jaz qabristoniga dafn etishadi. O'shanda Uyells qilgan ishiga

afsuslanadi va jomning ma'yus sadosi taraldi.

Qulog'iga hatto jom sadosi chalindi. Beixtiyor Brijet o'rgatgan qo'shiqni ichida takrorladi:

Qo'ng'iroq ding, donglab sado ber.

Alvidolar aytgin onajon!

Asra meni eski mozorda.

Akajonim qabri yonida.

Tobut chetidagi jiyak qarodir.

Olti nafar malak hamrohdir:

Duo o'qir ikkovi, ikkovi kuylar.

Ikkisi jonimni falakka eltar.

Qanday go'zal va mungli! Qanday chiroyli so'zlar, ayniqsa, "Asra meni eski mozorda", degan joyi. Badanida titroq turdi. Qanday mungli va qanday go'zal! Uning yig'lagisi keldi, xo'rliigi kelganidan emas, ana shu, xuddi musiqadag go'zal va mungli so'zlar uchun. Jom jaranglayapti. Alvidolar aytgin! Alvido!

Quyoshning tafsiz nuri xira tortib qoldi. Maykl og'a uning karavoti boshida, qo'lida sho'rva solingan kosani ko'tarib turibdi. U ichida sevindi, chunki tanglayi qurib, tomog'i qizib ketgandi. Maydonda o'ynayotgan bolalarning qiy-chuvllari qulog'iga chalinib turibdi. Bu kun ham kollejda hammasi oldingiday, xuddi o'zi bor paytdagiday o'tayapti. Keyin Maykl og'a ketishga chog'landi, uchinchi sinf bolasi uning, alabatta, kelib turishini va gazetalardagi yangiliklarni gapirib berishini iltimos qildi. U Stivenga ismi Eddi ekanini aytdi, otasining bir qo'ra poyga oti borligini, ularning hammasi sovrin olgan yo'rg'alar ekanini va yana otasi Maykl og'aga qaysi otga uning uchun sovrin qo'yishini aytishi mumkinligini, chunki Maykl og'a yaxshi odam ekanini, unga har kuni jamoaga kelib turadigan gazetalardagi yangiliklarni kanda qilmay gapirib berib turishini aytdi. Gazetalar turli-tuman yangiliklar, voqealar, kemalar halokati, sport va siyosat haqidagi xabarlar to'la.

- Hozir gazetalarda nuqul siyosat haqida yozishadi, - dedi u. - Sening ota-onang ham shu haqda gapirishsa kerak.

- Ha, - dedi Stiven.

- Biznikilar ham, - dedi u.

Keyin u bir daqiqa o'ylab turib dedi:

- Sening ism-sharifing g'alati-a - Dedalus, meniki ham g'alati - Eddi. Mening ism-sharifim shahar nomidan, seniki lotinchaga o'xshaydi.

Keyin u so'radi:

- Sen topishmoq topishga ustamisan?

Stiven javob qildi:

- Unchalikmas.

Shunda u dedi:

- Qani top-chi, Kilder grafligi nimasi bilan grammatikaga o'xshaydi.

Stiven javobi qanaqa bo'larkan, deb biroz o'ylandi, keyin dedi:

- Yutqazdim.

- Chunki unda ham, bunda ham "Edi" bor. Tushunarlimi? Eddi b' b' Kilder grafligidan shahar nomi, edi - grammatikada fe'l.

- Tushunarli, - dedi Stiven.

- Bu eski topishmoq, - dedi u.

Keyin biroz sukut saqlab turib, dedi:

- Bilasanmi?

- Nima? - so'radi Stiven.

- Bu topishmoqni boshqacha yo'l bilan topsa ham bo'ladi.

- Boshqacha yo'l bilan? - so'radi Stiven.

- Shu topishmoqni-da, - dedi u. - Bilasanmi, uni qanday qilib boshqacha yo'l topish mumkin.

- Yo'q, - dedi Stiven.

- Topolmaysanmi, a?

U o'mganini ko'tarib, Stivenga qaradi. So'ng o'zini yostiqa tushlab, dedi:

- Boshqacha yo'l bilan topsa bo'ladi, qanday topishni aytmayman.

Nega u aytmadi? Uning otasining bir qo'ra poyga oti bor, demak Sorinning, Sassiqlik Rouchning otasiday sudya bo'lsa kerak otasi.

Stiven o'zining otasini esladi, onasi royal chalganda otasi qo'shiq aytardi va har safar u tanga so'raganda otasi so'm berardi, otasining boshqa bolalarning otasiday sudya emasligi unga alam qildi. Unda nega bu bolalarga qo'shib, uni ham bu yerga o'qishga berishdi? Biroq otasi bir gap aytgan, senga bu joy begona emas, chunki bundan rosa ellik yil burin bobong bu yerda Xaloskor I nomini olgan, degan. O'sha zamonning odamlarini eski urfdagi kamzullaridan bilsa bo'ladi. O'sha paytlarda hammasi tantanavor ruhda kechgan - balki, deb o'yladi u, o'sha paytlar Klougousning tarbiyalanuvchilari mis tugma qadalgan havorang kalta kamzulda yurishgandir, sariq nimcha ham, quyon terisidan tikilgan qalpoq ham kiyishgandir, pivo ham ichishgandir kattalarga o'xshab, quyon ovi uchun tozi ham asrashgandir.

U derazaga qaradi, kunduzning yorug'i yanada xira tortganini ko'rdi. Endi maydoncha tepasini ham, ehtimol, bo'zrang bulut qoplab olgandir. Maydonchada jim-jitlik. Bolalar sinfda masala yechayotgan bo'lishsa kerak yoki hazrat Arnoll ularga ovoz chiqarib kitob o'qib berayotgandir.

Unga biror-bir dori berishmayotgani g'alati. Ehtimol, Maykl og'a qaytib kelsa, o'zi bilan olib kelar. Kasalxonaga tushsang allaqanday sassiqlik ichirishadi deyinshgandi. U o'zini oldingidan ko'ra tuzukroq his qildi. Asta-sekin sog'ayib ketgani tuzuk-da. Sog'aysa kitob so'rashi mumkin. Kutubxonada Gollandiya haqida kitob bor. Unda ajnabiycha g'alati atamalar, g'aroyib shaharlar va kemalarning suratlari bor. Ularni mazza qilib tomosha qilsa bo'ladi!

Derazaning yorug'i buncha so'nik bo'lmasa! Biroq shunisi ma'qul. Devorda olov bir ko'tarilib, bir tushadi. Bu dengiz to'lqinlariga o'xshaydi. Kimdir o'choqqa ko'mir tashladi va u ovozlarni eshitdi. Ular gaplashayotgandi. Xuddi to'lqinlarning shov-shuviday.

Yoki bu to'lqinlarmikan - ko'tarilib, tushib gaplashayotgan.

U bostirib kelayotgan to'lqinlarni ko'rdi - o'rkach-o'rkach uzun qora po'rtanalar bulutday ko'tariladi, tushadi, oysiz oqshomda battar qorayib ko'rinadi. Kemalar kiradigan ko'rfazdagi minoraga o'rnatilgan mayoqda xira shu'la miltillaydi va u qirg'oqqa yig'ilgan odamlarni ko'rdi. Ular ko'pchilik edi, bandargohga kirib kelayotgan kemani ko'rish uchun qirg'oqqa yig'ilishgandi. Bir novcha odam kema ortida zim-ziyo taqir qirg'oqqa qarab turibdi. Mayoqning xira shu'lasida Stiven uning yuzini ko'rdi. Bu Maykl og'aning motamsora yuzi edi.

U Maykl og'a olomon sari qo'lini qanday cho'zganini ko'rdi va suv ustida taralgan achchiq qayg'uli ovozni eshitdi.

- U o'ldi. Biz uning jasadini ko'rdik.

Olomon aytib yig'lardi:

- Parnell! Parnell! U o'ldi!

Og'ir musibatga tushgan olomon ohu faryod qilib, tiz cho'kdi.

U jigarrang baxmal ko'ylakda, yelkasidan oshirib yashil baxmal rido tashlab olgan, qirg'oq labida tiz cho'kkan olomon oldidan viqor bilan bir so'z demay, g'oz yurib o'tib borayotgan Dentini ko'rdi.

* * *

Qip-qizil cho'qqa aylangan toshko'mir uyumi kaminda alanganayotir, pechakgullar qoplagan qandil ostidagi mavlud dasturxoniga noz-ne'matlar tortilgan. Ular biroq kechikishdi, ovqat esa hali ham tayyor emas: biroq onasi birpasda tayyor bo'ladi, dedi. Ular eshikning ochilishini va xizmatkorlarning og'ir metall qopqoqlar yopilgan idishlarni ko'tarib kirib kelishini kutib o'tirishardi.

Hamma kutayotir. Charlz tog'a uy to'rida - deraza oldida o'tiribdi. Denti va mister Keysi kaminning ikki tarafidagi oromkursilarda, Stiven esa ularning o'rtasida stulda oyog'ini kaminning panjarasiga qo'yib o'tiribdi. Mister Dedalus o'zini kamin ustidagi oynaga solib qaradi, mo'ylovining uchini burab qo'ydi va frakining etaklarini qayirib, orqasini olovga o'girib turdi, biroq u tez-tez qo'lini ko'tarib, mo'ylovining goh u, goh bu uchini toblardi. Mister Keysi boshini bir yonboshga tashlab, kulimsirab, gardaniga shapatilab urib qo'yardi. Stiven ham jilmaydi: u kumush tanga solingan hamyon mister Keysining kaftidadir deb o'ylab, uning mahkam siqilgan mushtini ochmoqchi bo'lib urindi, lekin mister Keysining barmoqlari toshday qotib qolgan edi. Shunda mister Keysi malika Viktoriyaga tug'ilgan kuni munosabati bilan sovg'a taqdim etganimdan beri shu uchta barmog'im akashak bo'lib qolgan, deb aytdi unga. Mister Keysi gardaniga shapatilab urib qo'ydi va Stivenga qarab uyquli ko'zlari bilan kulimsiradi, mister Dedalus esa shunday dedi:

- Xo'-o'sh. Yaxshi bo'ldi-da. Ammo zo'r bo'ldi yurib kelganimiz! To'g'rimi, Jon! Xo'-o'sh... Bugun ovqatlanish nasib qilarmikan o'zi, bilsak bo'ladimi? Toza havodan to'yib nafas oldik. Harqalay yomon bo'lmadi, jin ursin.

U Dentiga o'girilib dedi:

- Siz bugun umuman chiqmadingiz-a, missis Rayorden?

Denti qovog'ini uydi va qisqa javob qildi:

- Yo'q.

Mister Dedalus frakining etagini tushirdi va bufetning oldiga keldi. U tokchadan viski solingan kattakon sopol ko'zani oldi va undan sekin grafinga quya boshladi, quya turib egildi, qancha quyanini ko'rmoqchi bo'ldi. Keyin ko'zani yana bufetga qo'ydi-da, ikkita qadahchaga oz-ozdan viski quydi, ustidan ozroq suv qo'shdi va qadahlarni ko'tarib kaminning oldiga keldi.

- Ovqat oldidan ishtahani ochadi-da, Jon, - dedi u.

Mister Keysi qadahni qo'lga olib, bir ko'tarishda bo'shatdi va uni yoniga - kaminning ustiga qo'ydi. Keyin dedi:

- Hozir men oshnamiz Kristoferni esladim, uning qo'li qo'lga tegmaydi...

U xoxolab kuldi, yo'taldi, so'ng qo'shib qo'ydi:

- Terga botib yigitlariga shashpan ulashadi.

Mister Dedalus qattiq kuldi.

- O'sha Kristimi? - dedi u. - Ha, uning taqir boshiga bitgan har bitta so'g'alda bir to'da firibgarnikidan ortiqroq ayyorlik bor.

U boshini osiltirdi, ko'zlarini yumdi va huzur qilib labini yaladi, so'ng xonadonning xo'jayiniga xos ovozda gap boshladi:

- O'zini nechog'i bo'sh-bayov qilib ko'rsatadi! Sayrab yuboradi-ya, dog'uli! Qo'y og'zidan cho'p olmaganay! Voy, anoyi!

Mister Keysini hamon yo'tal zabtiga olar, u o'zini kulgidan to'xtata olmasdi. Stiven otasining soxti-sumbatida, tovushida xonadonning xo'jayinini ko'rganday, ovozini eshitganday bo'ldi va kulgisi qistadi.

Mister Dedalus ko'ziga oynakni qo'ndirib, o'g'luga qarab, xotirjam va mehribon ohangda dedi:

- Xo'sh, bolakay, sen nega kulayapsan, a?

Xizmatkorlar kirib kelishdi va idishlarni dasturxonga qo'yishdi. Ularning ortidan missis Dedalus kirdi va hammani dasturxonga taklif qildi.

- Marhamat qilinglar, - dedi u.

Mister Dedalus o'zining joyiga kelib o'tirdi va dedi:

- O'tiring, missis Rayorden.

- Keling, Jon, azizim.

U Charlz tog'a o'tirgan tomonga o'girilib qo'shib qo'ydi:

- Marhamat qiling, ser, taom muntazir.

Hamma kelib joylashganidan so'ng u ovqat solingan idishning qopqog'iga qo'lini qo'ydi va birdan xato qilganini payqab qolib, qo'lini tortdi:

- Qani, Stiven.

Stiven ovqat oldidan duo o'qish uchun o'rnidan turdi.

"O'z panohingda asra bizni, Tangrim, muruvvatingni darig' tutmagaysan. Xaloskorimiz - Iso haqqi bizni rahm-shafqatingga doxil etgaysan. Omin".

Hamma cho'qinib oldi va mister Dedalus xursandligi-dan nafasini rostlab olib, idishning girdida yog' tomchilari yaltirab turgan zilday qopqog'ini ko'tardi.

Stiven idishdagi qovurilgan kurkaga qaradi, u kurkani ertalab oshxonadagi stolda, oyog'i boylangan va kegay sanchilgan alpozda ko'rgan edi. Otasi D'Oler -Stritdagi Danda bu kurka uchun bir geniya sarflaganini va sotuvchi barmog'i bilan kurkaning to'shiga niqtab, bu bilan parranda juda xaridorgir ekanini uqtirmoqchi bo'lganini Stiven bilardi va u beixtiyor sotuvchining ovozini esladi:

- Oling buni, ser. Keyin xursand bo'lasiz. Zotdor parranda.

Nega mister Barret Klongousda bolalarning qo'liga uradigan chizg'ichni kurka deydi? Biroq Klongous uzoqda, dasturxonidagi idishlardan esa kurka go'shtining, seldirning qaynoq xushbuy hidi taraladi, kamindagi alanga gurillab tepaga o'rlaydi, yam-yashil pechakgullar va qirmizi ignabarglar esa ko'zni quvontirib, ko'ngilga shodlik ulashadi! Keyin esa, ovqatlanib bo'lishgach, bodom mag'zi sepilgan, ko'katlar bilan bezatilgan kattakon plampudingni tortishadi, uning tegrasida zangori olov jimirlaydi, ustida esa yam-yashil jajji bayroqcha hilpirab turadi.

Bu uning birinchi marta mavlud ziyofatida ishtirok etishi edi. U ukalari va singillarini o'yladi. Ular narigi xonada kutishyapti, o'zi ham necha marta kutgan. Qaytarma ko'krak yoqali kamzulida u o'zini boshqacha, kattalarday his qildi bugun ertalab, ibodatga borishidan oldin kiyintirishib, onasi mehmonxonaga uni boshlab kirganida otasi yig'lab yubordi. Chunki uni ko'rgan payt otasi yodiga tushgan. Charlz tog'a shunday dedi.

Mister Dedalus idishning qoqog'ini yopib qo'ydi va ishtaha bilan ovqat yeyishga kirishdi.

- Sho'rlik Kristi, - ming'irladi u, - aftidan u o'zining makru hiylalariga butkul o'ralashib qolganga o'xshaydi.

- Saymon, - dedi missis Dedalus, - sen missis Rayordenga qayladan uzatmayapsan.

- Darvoqe, - dedi u hozirjavoblik bilan, - missis Rayorden, men gumrohning gunohimdan o'ting.

Denti qo'li bilan likopchasini to'sdi:

- Yo'q, minnatdorman.

Mister Dedalus Charlz tog'aga o'girildi:

- Siz-chi, ser?

- Hammasi joyida, Saymon.

- Jon, sizga-chi?

- Menga bas. O'zingiz olavering.

- Senga-chi, Meri? Likopchangni uzat, Stiven. Olsang-chi, olaver, mo'yloving tezroq chiqadi. Qani!

U Stivenning likopchasiga qayladan uyub soldi va idishni stolga qo'ydi. Keyin Charlz tog'adan go'sht mazalimi, deb so'radi. Charlz tog'a gapira olmadi, og'zi band edi, boshini sermab qo'ya qoldi.

- Qadrdomimiz o'shanda ruhoniya munosib javob qilganmidi? A? - dedi mister Dedalus.

- Men bunga uning qurbi yetadi, deb o'ylamagan edim, - dedi mister Keysi.

- "Cherkovning xarajatini men o'zim to'layman, hazrat, siz Tangrining dargohini tashviqot yuritadigan minbarga aylantirishni bas qilsangiz bo'lgani"1.

- O'z piriga bundan ortiq gap aytib bo'ladimi, - dedi Denti. - Aniqsa, o'zini katolikman degan odamning og'zidan shu gap chiqsa-ya.

- Ular aybni nafaqat o'zlaridan qidirganlari ma'qul, - dedi mister Dedalus soxta halimlik bilan. - Agar ular aqlliroq bo'lishganda din bilan mashg'ul bo'lishardi, boshqalarning ishiga tumshuq tiqib yurishmasdi.

- Axir, shuning o'zi din-da, - dedi Denti. - Ular xalqni ogohlantirib, o'z burchlarini bajarishyapti. Ular o'z jamoalariga pand-nasihat qilib turishlari kerak-ku.

- Biz cherkovga - Tangrining uyiga bosh egib yaratganga ibodat qilish uchun kelamiz, - dedi mister Keysi, - saylovoldi nutqlarini tinglash uchun emas.

- Shuning o'zi din-da, - takrorladi Denti. - Ular to'g'ri qilishyapti. Ular o'z jamoalariga va'z o'qib turishlari kerak.

- Mehrobdan turib tashviqot yurgizishlariga nima deysiz? - so'radi mister Dedalus.

- To'g'ri-da, - dedi Denti. - Bu jamoaning ma'naviyatiga daxldor. Agar ruhoniy o'z qavmiga nima yaxshi-yu, nima yomonligini tushuntirmasa, uning ruhoniyligi qayerda qoladi?

Missis Dedalus qo'lidagi pichoq bilan sanchqini dasturxoniga qo'yib, dedi:

- Xudo xayringizni bersin, siyosiy munozaralaringni juda bo'lmasa bugun, shunday kunda qo'ya turinglar!

- Mutlaqo haqsiz, mem, - dedi Charlz tog'a. - Bas, yetar, Saymon. Bo'ldi endi, tamom.

- Xo'p, xo'p, - dedi bidirlab mister Dedalus.

U idishning qoqog'ini ilkis ko'tardi:

- Xo'sh, kimga yana kurkadan?

Hech kim javob qilmadi. Denti yana gap ochdi:

- Voizlikni katolikka chiqargan, ha, shubhasiz, katolikka.

- Missis Rayorden, o'tinib so'rayman, - dedi missis Dedalus, вЂ”buguncha shu gapni to'xtatib turaylik.

Denti u tomonga o'girilib dedi:

- Sizningcha, men cherkov a'yonlarini tahqirlashlariga chidab turishim kerakmi?

- Agar ular siyosatga aralashishni bas qilishsa, - beixtiyor gapga qo'shilib ketdi mister Dedalus, - hech kim ularga bir og'iz ham gapirmaydi.

- Irlandiyaning yepiskoplari va poplari o'z so'zlarini aytishdi, - e'tiroz bildirdi Denti, - ularga bo'yin berish kerak.

- Ular siyosatdan voz kechsin, - gapga aralashdi mister Keysi, - bo'lmasa xalq cherkovdan yuz o'giradi.

- Eshitdingizmi? - dedi Denti missis Dedalusga murojaat qilib.

- Mister Keysi! Saymon! Bas, yetar, o'tinib so'rayman, - yalina boshladi missis Dedalus.

- Yaxshimas! Yaxshimas! - dedi Charlz tog'a.

- Bu qanday gap! - qichqirdi mister Dedalus. - Biz inglizlarning bir ishorasi bilan undan voz kecharamiz!

- U xalqni ortidan ergashtirishga noloyiq bo'lib qolgan edi, - dedi Denti. - U hammaning ko'z oldida gunohga botib yashadi.

- Hammamiz gunohkormiz, hammamiz gunohkor badbaxt-larmiz, - vazminlik bilan javob qildi mister Keysi.

- "Hoyu havasdan butkul tiyilish mushkul, biroq bundayin gunohdan o'zini chetga ola bilmaganning holiga voy, - dedi missis

Rayorden. - Magar bunday kimsaning gardaniga tegirmon toshini boylasalar, boz uni dengizga tashlasalar tuzuk, toki u o'zgalarni yo'ldan ozdirmagay". Mana, muqaddas kitobda nima deyilgan.

- O'ta bo'lmagur so'zlar bular, agar mening fikrimni bilishni istasangiz, - dedi mister Dedalus sovuq ohangda.

- Saymon! Saymon! - Charlz tog'a uni turtdi. - Yosh bolaning oldida-ya!

- Xo'p-xo'p, - dedi xato qilganini payqab mister Dedalus. - Aytgan... Men aytmog'chi edimki... Bo'lmag'ur gaplarni stansiyadagi bir hammol aytibdi. Shunday desak tuzukroq bo'lar. Qani, Stiven, likopchangni cho'z, oshna. Qoldirmagin-a, hammasini yegin.

U to'latilgan likopchani Stivenga uzatdi va Charlz tog'a bilan mister Keysining likopchalariga kurka go'shtidan ikkita katta bo'lakni qo'yib, ustiga qayladan bostirib qo'ydi. Missis Dedalus ovqatdan kamgina yedi, Denti esa qo'llarini tizzasiga qo'yib o'tirardi. Uning yuzi qizarib ketgan edi. Mister Dedalus sanchqi bilan kurkaning qolgan-qutganini kovlashtirarkan, dedi:

- Bu yerda yana bitta mazali luqma qoldi, buni arxiyerey luqmasi deyishadi. Xo'sh, xonimlar, jentelmenlar, qani kimga?..

U kurka go'shtini sanchqiga sanchib ko'tardi. Hech kim og'iz ochmadi. U luqmani o'zining likopchasiga qo'yib dedi:

- Mening ishim taklif qilish. Biroq endi bu o'zimga qoldi, shekilli, o'zim yeyman. Keyingi paytlarda negadir kuchdan qolayotgandayman.

U Stivenga ko'zini qisdi va bir qo'li bilan likopchasini pana qilib, yeyishga tutindi. U yeb bo'lgunicha hech kim churq etmadi.

- Havoyam zap havo bo'ldi-da! - dedi u. - Shaharda musofirlarning ko'pligini aytmaysizmi.

Hech kim gap qo'shmadi. U yana gapira boshladi:

- Menimcha, o'tgan yilgi mavlud bayramiga qaraganda bu yil ziyoratchilar ko'p keldi.

U o'tirganlarning dasturxonga egilgan bir qadar mulzam yuzlariga ko'z yugurtib chiqdi va hech qanday javob eshitmagach, bir daqiqa sukut saqlab turdi-da, so'ng alam bilan dedi:

- Xullasi kalom, mening mavlud ziyofatimni buzdinglar!

- Cherkov a'yonlariga hurmat bo'lmagan uyda, - deb uzib oldi Denti. - baxt-saodatga, xushvaqtlikka o'rin yo'q.

Mister Dedalus qo'lidagi sanchqi bilan pichroqni likopchaga sharaqlatib tashlab yubordi.

- Hurmat!? - dedi u. - Billiga hurmatmi, sharmandalarcha safsata sotgani uchun-a yoki o'sha armlik meshqorin ochofatgami! Hurmat-a?!

- Cherkov amaldorlari! - achchiq kinoya qildi mister Keysi.

- Lord Leytrimning otboqari, - qo'shimcha qildi mister Dedalus.

- Ular xudoning yorlaqagan bandalari, - dedi Denti. - Mamlakatning faxri!

- Ochofat meshqorin, - dedi yana mister Dedalus. - U uxlagan paytdagina beziyon. Uning qirovli qish kunida cho'chqa go'shtiga karamni qo'shib urib yotganini bir ko'rsangiz edi! Polvon!

U tumtoq basharasini bujmaytirdi va lablarini chapillatib qo'ydi.

- Qo'ying, Saymon, yosh bolaning oldida yarashmaydi bunday gaplar. Yaxshimas.

- Ha-da, katta bo'lganda hammasini eslaydi, - gapni ilib ketdi Denti qizishib, - bular bari xudoga, dinga va ruhoniylarga qarshi gaplar-ku, ularni o'zi tug'ilib o'sgan uyda eshitib o'tirsa-ya.

- Es lasin-da, - stolning narigi tarafidan turib qichqirdi mister Keysi, - ruhoniylarning, ularning malaylarining amru ma'ruflariniyam es lasin. Axir, Parnellning yuragini adoyi tamom qilgan, uni go'rga joylagan shular-ku! Katta bo'lganida buni ham es lasin, axir.

- Itdan tarqaganlar! - xitob qildi mister Dedalus. - Ahvoli tang bo'lganda, payt poylab Parnellni sotishdi-ya! Xuddi palid kalamushlarday unga tashlanishdi, g'ajishdi! Yovuz ko'ppaklar! Ko'ppakdan farqi yo'q ularning. Xudo haqqi!

- Juda to'g'ri qilishgan-da. - qichqirdi Denti. - Ular o'zlarining yepiskoplariga va poplariga itoatkor bo'lishgan. Ularga shon-sharaflar bo'lsin!

- Bas, yetar axir, qo'yinglar bu bema'ni gaplarni! - xitob qildi missis Dedalus. - Biror kun yo'qki, ko'nglingni qop-qora qiladigan shunday bema'ni mojarolarsiz o'tsa.

Charl tog'a tinchlaninglar degan ma'noda qo'lini ko'tardi:

- Jim, jim, jim! Nahotki odam o'zining fikrini g'azabga minmay, so'kinmay gapirishi qiyin bo'lsa. Bu yaxshimas, axir!

Missis Dedalus Dentining qulog'iga shivirlab, uni tinchlantirmoqchi bo'ldi, biroq Denti o'shqirib berdi:

- Yo'q, men jim turolmayman! Cherkovimni, e'tiqodimni himoya qilaman, bu dindan qaytganlarga uni tahqirlatib, tupurtirib qo'ymayman.

Mister Keysi oldidagi likopchani stol o'rtasiga ilkis surdi, keyin tirsagini stolga tiradi-da, hirqiragan tovushda uy egasiga qarab murojaat qildi:

- Men sizga o'sha mashhur tupurish tarixini gapirib berganmidim?

- Yo'q, Jon, aytganingiz yo'q, - dedi mister Dedalus.

- Nahotki, - dedi mister Keysi, - ammo juda ibrat olsa arziydigan voqea-da. Bu voqea biroz oldinroq, Uiklou grafligida, hozir siz bilan birga yashab turgan joyda yuz bergan.

U to'xtab, Dentiga o'girilib, qahr bilan salmoqlab gapira boshladi:

- Ijzatingiz bilan aytib qo'yay, xonim, agar siz meni nazarda tutib gapirayotgan bo'lsangiz adashasiz, men dinidan qaytganlardan emasman. Katolikman men, xuddi otamday, uning otasi ham katolik bo'lgan, uning otasining otasi ham juda qadim zamonlardayoq katolik bo'lgan va o'sha paytlarda biz o'z e'tiqodimizdan qaytgandan ko'ra hayotning bahridan o'tib qo'ya qolishga tayyor edik.

- Demak, sizday odam uchun, - dedi Denti, - hozir og'zingizdan chiqqan gaplarni aytish battar uyat.

- Ayting, Jon, - dedi mister Dedalus kulimsirab. - Qulog'imiz sizda.

- Katolik emish! - dedi yana kinoya bilan Denti. - Uchiga chiqqan protestant ham bugun men eshitgan gaplarga o'lsayam chidab o'tirmasdi.

Mister Dedalus boshini har yoqqa salanglatib, muqom qila boshladi.

- Men protestant emasman, buni sizga takror aydayapman, - dedi mister Keysi joni chiqib.

Mister Dedalus o'zicha g'ingshib va boshini salanglatib turdi-da, tuyqusdan hirqiroq tovushda ping'illab xirgoyi qildi:

Kelinglar, hoy, katoliklar, siz.

Ibodatdan yuzni burmangiz!!

U qo'lga pichoq bilan sanchqini olib, yana ovqat yeyishga tutindi va mister Keysiga quvnoq ovozdada dedi:

- Ayting o'shani, Jon, qulog'imiz sizda, bu ovqat hazm bo'lishiga yordam beradi.

Stiven mehr bilan mister Keysining yuziga qaradi, mister Keysi boshini qo'llariga tiraganicha bir nuqtaga termilib turardi. Stiven kaminning oldida u bilan yonma-yon o'tirib, uning qahrli, qoramag'iz chehrasiga tikilishni yaxshi ko'rardi.

Biroq uning qora ko'zlari hech qachon g'azab bilan chaqnamas, vazmin, salobatli tovushini eshitish maroqli edi. Nega u ruhoniylarga qarshi? Bundan chiqdiki, Denti haq ekan-da. U otasi gapirganda eshitgan, Denti yoshligida tarki dunyo qilgan - rohiba bo'lgan, keyincha akasi bilakuzuk va boshqa mayda-chuyda taqinchoqlarni qora xalqqa pullab boyigach, monastirni tark

etgan, Alleganga ketgan. Ehtimol, shuning uchun u Parnellga qarshi bo'lsa kerak? Ha, aytgancha, u Eylin bilan birga o'ynasa Denti yoqtirmaydi, chunki Eylin protestant-da, Denti yoshligida protestantlar bilan birga o'ynab yuradigan bolalardan protestantlar muqaddas Bibi Maryamning quyma haykalchasini tahqirlashganini eshitgan. "Fil suyakli minora - Tilla ko'shk!"²⁴, deyishgan ular. Qanday qilib ayol kishi fil suyakli minora yoki tilla ko'shk bo'lishi mumkin? Unda kim haq bo'lib chiqadi? Uning xotirasiga Klougousdagi kasalxonada oqshomi, qop-qora to'lqinlar, ko'rfazdagi mayoq yog'dusi va qayg'uli xabarni eshitgan olomonning dod-faryodi keldi.

Eylinning qo'llari uzun, oppoq edi. Bir kuni kechqurun, ular ko'z boylash o'ynayotganda Eylin uning ko'zlarini qo'llari bilan bekitdi: qo'llari uzun, oppoq, ingichka, sovuq va nozik. Bu o'sha fil suyagi. Sovuq va oppoq, mana, fil suyakli minora nima degani.

- Bu qisqa va juda qiziq voqea, - dedi mister Keysi. - Bu Arklouda bo'lgan edi, havo sovuq, bulutli kun edi, yo'l boshchimiz qazo qilishlaridan sal oldinroq. Uning ruhini o'zing shod qilgaysan, ilohim!

U madorsizlanib ko'zlarini yumdi va biroz sukut saqladi. Mister Dedalus likopchadagi suyakni qo'lga olib, go'shtini tishlari bilan uzib olarkan, dedi:

- Aytmoqchisizki, uni o'ldirishlaridan oldinroq bo'lgan edi, demoqchisiz-da?

Mister Keysi ko'zlarini ochdi, chuqur xo'rsindi va davom etdi:

- Bir kuni u Arklouga keldi. Biz mitingda edik, miting tugagandan so'ng, bir amallab, tirband olomonning orasini yorib, stansiyaga o'tishga to'g'ri keldi. Umrimda bunaqangi qiy-chuvni, dod-faryodni eshitmaganman! Olomon bizni goh u yoqqa, goh bu yoqqa surib ketadi. Shunda bir kampir, qari piyanista alvasti, negadir menga ariday yopishdi-qoldi. Atrofimda loyni kechib gir aylanadi, ko'zini menga qadab olgan, tinmay qichqiradi: Ruhoniylarning dushmani! Parij birjasi! Mister Foks! 25 Kitti O'Shi!

- Xo'sh, siz nima qildingiz, Jon? - so'radi mister Dedalus.

- Men uning akillashiga e'tibor qilmadim, - dedi mister Keysi. - Juda sovuq edi, badanni jinday qizdirar deb (meni kechirsinlar, xonim) tilimning tegiga dengiz tamakisidan ne miqdor tashlab olganman, turgan gap, og'zimni ocholmayman, chunki og'zim tamaki "sharbati"ga to'la.

- Xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ldi, Jon?

- Xullas, men unga e'tibor qilmadim, mayli, Kitti O'Shini qoralaydimi, bilganicha akillayversin, degandim, biroq bu alvasti muhtarama xonimni shunday bir so'z bilan haqoratladiki, bu so'zni aytishga til aylanmaydi, harqalay mavlud dasturxonida o'tiribmiz, qolaversa, begoyim, sizning ta'bingizni ham buzmay, o'zining lafzimniyam bulg'amay.

U jimib qoldi. Mister Dedalus boshini ko'tarib so'radi:

- Xo'sh, keyin siz nima qildingiz, Jon?

- Nima qilardim? - dedi mister Keysi. - Qarasam, u o'zining burishgan jirkanch basharasini naq iyagimga tirab kelayapti, mening og'zimda liq to'la tamaki "sharbati". Shunda men unga yaqinroq engashdim-da, mana shunday "Tfu!" dedim.

U yuzini chetga burib qanday qilganini ko'rsatdi.

- Tfu! Uning shundoq ko'ziga tupurib yubordim.

U qo'li bilan ko'zlarini bekitdi va joni qattiq og'riyotgan odamday chinqirib yubordi:

- "Voy, Iso Masih, Bibi Maryam, Yusuf! - deb ayuhannos solardi u. - Voy-dod, ko'r bo'lib qoldim, dod, o'laman!"

U xirillab, kulgidan va yo'taldan o'zini to'xtata olmay, bo'g'ilib takrorladi:

- Ko'r bo'lib qoldi, ko'r bo'lib qoldi!

Mister Dedalus qah-qah otib kulgancha o'zini stulning suyanchig'iga tashladi. Charlz tog'a boshini chayqab qo'ydi. Dentining yuzi qahrli tus oldi, o'tirganlar xoxolab kulisharkan, u bir gapni tinmay takrorlardi:

- Yaxshi, juda yaxshi, juda soz!

Ayol kishining ko'ziga tupurish yaxshimas.

O'sha kampir Kitti O'Shini qanday so'z bilan haqorat qildiyan, uni mister Keysi hatto tilga olishga ham hazar qildi-ya? Stiven olomon orasidagi mister Keysini ko'z oldiga keltirdi: ana u, aravaning ustida, tik turib nutq irod qilayotir. Shuning uchun ham u qamoqda o'tirgan. U beixtiyor esladi: bir kuni uylariga serjant O'Nil keldi, serjant dahlizda turib otasi bilan shivirlashib gaplashdi, ora-sira boshidagi temir qalpog'ining charm bandini asabiy tishlab qo'yardi. O'sha oqshom mister Keysi Dublinga odatdagiday poyezdda jo'namadi, uylari oldiga arava keldi va otasining Kebintili orqali o'tadigan yo'l haqida nimadir deganini eshitdi u, U ham otasi kabi Irlandiya uchun qayg'urar, Parnellni yoqlar edi, biroq aslida Denti ham ular tarafda, chunki bir kuni saylgohda orkestr chalib turganda Denti bir janobning boshiga shamsiya bilan tushirib qoldi, kuy oxirida orkestr "Xudoyo, qirolichani o'zing asra!"ni ijro etayotganda o'sha janob boshidan shlyapasini yechgan edi.

Mister Dedalus alam bilan pixilladi.

- Hoy, Jon, - dedi u. - Ular o'zi shunga munosib. Biz sho'rliklar poplar qo'l ostida ezilgan xalqmiz. Umrbod shunday bo'lib kelgan va oxiratgacha shunday bo'lib qoladi.

Charlz tog'a boshini chayqab dedi:

- Ha, ahvolimiz chatoq, chatoq!

Mister Dedalus gapini takrorladi:

- Poplarning qo'l ostida ezilgan va xudoning marhamatidan benasib xalq!

Shunday deb u o'ng tarafida devorga osig'liq bobosining suratiga ishora qildi.

- Jon, mana bu cholni ko'ryapsizmi? - dedi u. - Halol Irland, uning davrida odamlar faqat mol-dunyo deb o'lib-tirilgan emas. U oliy jazoga hukm qilingan Oq Bolalarning biri edi. Ming yetti yuz oltmishinchi yili oq qo'zg'olonchi sifatida o'limga hukm qilingan. U og'aynilarimiz - cherkov a'yonlari haqida gapirishni yaxshi ko'rardi, hech qachon ularni o'zim o'tirgan dasturxoniga yo'latmayman, derdi.

Denti chidab turolmadi:

- Bizni ruhoniylar boshqarib turibdi, biz bundan faxrlanishimiz kerak! Ular - yaratganning ko'z qorachig'i. Ularga otilgan tosh tangriga otilgan tosh bilan barobar.

- Bundan chiqdiki, bizning o'z vatanimizni sevishga haqqimiz yo'q ekan-da? - so'radi mister Keysi.

- Bizni ortidan ergashtirish, yo'l boshchi bo'lish uchun tug'ilgan insonga ergashish ham taqiqlanganmi?

- Vatan xoini, - baqirdi Denti. - Xoin, xotinboz! Cherkovimiz rahnamolari undan yuz o'girib juda to'g'ri qilishdi. Ular hamisha Irlandiyaning sodiq do'stlari bo'lishgan.

- Siz shunga ishonasizmi? - dedi Keysi.

U mushti bilan stolni urdi va qoshlarini asabiy kerib, barmoqlarini birin-ketin yoza boshladi.

- Uniya davrida, yepiskop Lenigen markiz Kornuollisga fuqarolikni bay'at qilganda, irland yepiskoplari bizni sotmaganmidi? O'sha yepiskoplar va poplar ming sakkiz yuzu yigirma beshinchi yili o'z mamlakatining kelajagini katolik dinining erki uchun qurbon qilmaganmidi? Minbaru mehroblardan turib fenilar harakatini badnom etganlari-chi? Terens Belyu Makmenus xokini tahqirlaganlari-chi?

Keysining yuzi g'azabdan bo'g'riqib ketgandi, Stiven uning yonib gapirayotganidan yonoqlari cho'g'day qizarib ketganini sezdi. Mister Dedalus alam bilan kuldi.

- O', xudoyim, - deya hayqirdi u, - men qariya Pol Kallinni unutib qo'yayozibman. Mana, tangrimning yana bir yorlaqagan ko'z qorachig'i.

Denti stol osha mister Keysiga qarab qichqirdi:

- To'g'ri qilishgan, judayam to'g'ri! Ular hamisha to'g'ri yo'l tutishgan! Xudo, axloq va din hamma narsadan ustun!

Missis Dedalus uning g'azablanganini ko'rib dedi:

- Missis Rayorden, o'zingizni bosing, ular bilan pachakilashmang.

- Xudo va din - hammasidan ustun! - qichqirdi Denti.

Mister Keysi mahkam siqilgan mushtini ko'tardi va zarb bilan stolga urdi.

- Bo'пти, yaxshi, - bo'g'ilib qichqirdi u, - agar shunaqa bo'ladigan bo'lsa, bas, Irlandiyaga xudoning keragi yo'q!

- Jon, Jon! - qichqirdi mister Dedalus mehmonning yengidan tortqilarkan.

Denti unga tikilgan qotib qoldi: uning yonoqlari pirillab ucha boshladi. Mister Keysi stolni zarb bilan surdi-da, stol osha Denti tarafga egilib, qo'lini ko'zlari oldida xuddi pashshani quvayotganday asabiy sermay boshladi.

- Irlandiyaga xudoning keragi yo'q! - baqirdi u. - U Irlandiyada juda ko'p bo'ldi. Bas, jonga tegdi! Yo'qolsin!

- Shakkok! Iblis! - Denti chiyillagan o'rnidan sakrab turdi va sal bo'lmasa uning yuziga tupirayozdi.

Charlz tog'a bilan mister Dedalus mister Keysini bir amallab joyiga o'tirg'izib, tinchlantirishga urinishdi. U nafratdan chaqnagan qoramtir ko'zlarini bir nuqtaga qadab tinmay baqirardi:

- Yo'qolsin, daf bo'lsin!

Denti ilkis qo'zg'alib, stolni zarb bilan chetga surdi va stoldan nari ketdi, stol ustidagi qo'lsochiqlar solingan idish yerga tushib, gilamning ustida yumalagan oromkursining oyog'iga urilib to'xtadi. Mister Dedalus o'rnidan chaqqon turib, Dentining ortidan eshikka yugurdi. Eshik oldida Denti to'xtab ortiga o'girildi, uning yonoqlari uchar va g'azabdan lov-lov yonardi, u xonani boshiga ko'tarib qichqirdi:

- Do'zaxilar! Biz g'alaba qildik! Biz uni o'limga mahkum etdik! Iblis!

Eshik sharaqlab yopildi.

Mister Keysi o'zini ushlab turganlarni itarib tashladi va manglayini stolga urib ho'ngrab yubordi.

- Badbaxt Parnell! - U o'kirib faryod chekdi. - Halok bo'lgan qirolimiz!

U bo'zlab yig'lardi.

Qo'rquvdan yuzi dokaday oqarib ketgan Stiven boshini ko'tarib qaradi, otasining ko'zlari jiqqa yosh edi.

* * *

Har joy, har joyda to'p-to'p bo'lib turgan bolalar gurunglashardi. Bittasi aytdi:

- Ularni Layens-Xill yaqinida ushlab olishibdi.

- Kim ushlabdi?

- Mister Glison bilan ruhoniy. Ular aravada ketayotgan ekan.

O'sha bola tag'in qo'shib qo'ydi:

- Menga buni yuqori sinfdagi bir bola aytdi.

Fleming so'radi:

- Ular nega qochibdi?

- Sababini men bilaman, - dedi Sesil Sander. - Ular rektorning xonasidan pul o'marishgan.

- Kim o'g'irlagan?

- Kikemning akasi. Keyin bo'lishib olishgan.

- Juda bilag'onsan-da, Sander! - dedi Uyells. - Ularning nega quyon bo'lganini men bilaman.

- Xo'sh, ayt-chi, nega?

- Aytma deb iltimos qilishgan menga, - dedi Uyells.

- Aytaqol, - chuyvillashdi bolalar.

- Qo'rqma, biz seni sotmaymiz.

Yaxshiroq eshitish ilinjida Stiven bo'ynini cho'zdi. Uyells, birortasi kelmayaptimikan, deb atrofga alangladi. Keyin shivirlab gapira boshladi.

- Ibodat liboslari turadigan shkafda cherkovning vinosi saqlanadi, bilasizlarmi shuni?

- Ha.

- Qisqasi, ular shu vinoni ichib qo'ygan, gunohkorni qidirganda hididan payqab qolishgan. Mana, nega ular juftakni rostlashgan, bildinglarmi endi?

Birinchi bo'lib gap ochgan bola aytdi:

- To'g'ri, to'g'ri, men ham yuqori sinfdagi boladan shu gapni eshitdim.

Hamma jimib qoldi. Stiven ularning orasida bir so'z aytishga jur'at etmay jim turar, eshitardi, xolos. U qo'rqqanidan biroz vahimaga tushdi, a'zoyi badani bo'shshab ketganday bo'ldi. Ular bunga qanday qo'l urishdiykan? U jim-jit qorong'i hujrani ko'z oldiga keltirdi. Hujrada yog'och shkaf bor edi, ichiga diniy kitoblar tartib bilan terib qo'yilgan. Bu joy butxona emas, biroq baribir bu yerda faqat shivirlab gaplashish mumkin. Bu muqaddas joy. U yoz oqshomini esladi, o'shanda marosim kuni - ibodat libosini kiydirish uchun ularni o'rmondagi kichik bir butxonaga olib kelishdi. Sirli, sinoatli joy. Eshikning oldida turgan bola qo'lidagi uzun zanjirga bog'langan isiriqdonni ohista tebratar, tebranganda isiriqdonning kumush qopqoqchasi xiyla ko'tarilib-tushib, ichidagi cho'g' olovlanardi. Isiriqdonga pista ko'mir solingan edi, bola idishni tebratganda ko'mir miltillab cho'g'lanar va

undan achqimtilroq hid taralardi. Hammaga ibodat libosi kiygizilgandan so'ng bola isiriqdonni rektorga uzatdi va rektor idishga bir qoshiq sedana sepdi, ko'mir cho'g'ining ustiga tushgan sedana jizilladi.

Bolalar maydonchada to'p-to'p bo'lishib gap sotishardi. Uning ko'ziga bolalarning bo'yi kaltarib qolganday tuyuldi. Buning sababi bor edi, kecha poygachilardan biri, ikkinchi sinfda o'qiydigan bola, uni velosiped bilan urib yubordi. U shag'al to'kilgan yo'lakka yiqilib tushdi, ko'zidagi ko'zoynagi uchib ketib, uch bo'lak bo'ldi, og'ziga jinday qum kirdi.

Shuning uchun ham bolalar uning ko'ziga kichrayib, darvoza ustunlari ingichka va uzoq bo'lib ko'rinar, mayin kulrang osmon esa juda balandlab ketgan edi. Sport maydonchasida hech kim yo'q edi, chunki hamma kriket o'ynash uchun bir joyga yig'ilgan, ba'zi bolalar Barns kapitan bo'ladi desa, boshqalari Flauyersni aytishardi. Nihoyat maydonchada to'pni havolatib, tashlab berib, urib-o'yinni boshlab yuborishdi. Muloyim havoni zarb bilan urilayotgan kriket tayoqlarining tovushi tutib ketdi. Pik, pak, pok, pek - xuddi favvoradan suv tomchilari limmo-lim hovuzga ohista tomchilayotganday.

Shu paytgacha miq etmay o'tirgan Etti pichirlab dedi:

- Sizlarning aytgan gaplaring to'g'rimas.

Hamma o'girilib unga qaradi:

- Nima uchun?

- Nima, sen bilasanmi?

- Senga kim aytdi?

- Aytgin, Etti!

Etti qo'li bilan maydonning Saymon Munen yolg'iz o'zi tosh tepib, aylanib yurgan tomoniga ishora qildi.

- Ana undan so'ranglar, - dedi u.

Bolalar o'sha tomonga qarashdi, keyin so'rashdi:

- Nega undan so'rash kerak?

- Uyam o'shalar bilanmi?

Etti tovushini pasaytirib dedi:

- Bu bolalar nega juftakni rostlab qolishganini bilasizlarmi? Men sizlarga aytaman, lekin hech kim bilmasin.

- Ayt, Etti, ayta qol. Hech kimga aytmaymiz.

U bir daqiqa jim turdi, keyin muhim sirni oshkor etayotganday shivirlab dedi:

- Kechasi Saymon Munen bilan Tis Boylni hojatxonada ko'rib qolishibdi.

Bolalar unga hayron bo'lib qarashdi:

- Ko'rib qolishibdi?

- Nima qilayotgan ekan ular?

Etti aytdi:

- Yopishishayotgan ekan.

Birdan hamma jimib qoldi.

- Bildinglarmi endi nima bo'lganini, - dedi Etti.

Stiven jo'ralarining yuziga ko'z tashladi, biroq ular bari maydonchani narigi tarafga qarab turishardi. Uning kimdandir so'rab bilgisi keldi. Hojatxonada yopishish - nima degani? Nega endi yuqori sinfning beshta bolasi shu uchun qochib ketishdi?

"БувЪ" hazil", deb o'yladi u. Saymon Munen doim bashang kiyinadi, bir safar kechki payt unga Saymon sharbatli konfet solingan sharni ko'rsatdi, idishni futbol komandasidagi bolalar oshxonaning o'rtasidagi poyonoz ustidan unga qarab yumalatishtiganda, Saymon esa eshik oldida turgan edi. Bu kechqurun, bektayv komandasi bilan musobaqadan keyin bo'lgan edi, shar esa yarmi yashil, yarmi qizil - naqsh olmaning o'zginasi, farqi shuki, uni ochsa bo'lardi, ichi sharbatli karamelga liq to'la edi. Bir safar Boyl filning ikkita "so'yoq tishi" bor deyish o'rniga "tisi" dedi, shuning uchun unga Tis Boyl deb laqab qo'yishdi. Ba'zi bolalar uni Boyl xonim deb chaqirishadi, nega deganda u doim tirnoqlariga zeb berib, egovcha bilan ularni silliqlab yuradi.

Eylinning ham uzun ingichka sovuqqina oppoq qo'llari bor, chunki u - qiz bola. Qo'llari xuddi fil suyagiday, faqat yumshoq. Mana fil suyakli minoraning ma'nosi, biroq protestantlar buni tushunmas, tushunmaganlari uchun ham masxaralab kulishadi. Bir safar u Eylin bilan birga mehmonxona hovlisiga qarab turishgan edi. Xizmatkor ustunga uzun bayroqni qo'ndirayotgan edi, kungay betdagi chimzorda esa bir tozicha uyoq-buyoqqa chopqillab yurardi. Eylin qo'lini uning cho'ntagiga tiqdi, o'zining qo'li ham shu cho'ntakda edi, shunda u qizning barmoqlari sovuq, nozik va yumshoq ekanini his etdi. Cho'ntaging bo'lsa mazza-da, dedi Eylin. Keyin birdan burilib, kulgancha, aylanma zinadan pastga yugurib ketdi. Uning kumushrang sochlari yelkasida, xuddi quyoshda tovlangan oltinday, yarqirab to'kilib turardi. Fil suyakli minora. Tilla ko'shk. Bir nimaning ustida bosh qotirsang, o'shanda uni tushuna boshlaysan.

Biroq nega aynan hojatxonada? Hojatxonaga faqat zaruratdan borasan-ku. U yerda sandiqday-sandiqday tosh plitalar bor, mayda teshikchalardan kun bo'yi suv tomib turadi, dimiqqan suvning qo'lansa hidi o'tirib qolgan. Bir eshikka qizil qalam bilan ikki qo'lida ikkita g'isht ko'targan, rim togasidagi soqolli odam rasmi chizilgan, rasm tagida: "Balbes devor tiklagan"2 degan yozuv bor.

Buni bolalardan biri kulgi uchun chizgan. Basharasi juda kulgili chiqqan-da, biroq soqolli odamgayam o'xshab ketadi. Devorga esa juda chiroyli husnixat bilan o'ngdan chapga: "Yuliy Sezar gallik kallar haqida yozgan"3, deb yozib qo'yilgan.

Balki ular, bolalar hazillashib yozib-chizib tashlagan bo'lar-bo'lmas narsalarni ko'rish uchun bu yerga kirib olishgandir. Baribir ularning bu qilig'ini oqlab bo'lmaydi, Ettining gapi xunuk chiqdi, qaysi yuz bilan aytdi-ya shu gapni. Ular qochib ketishdi-ku, demak, bu shunchaki hazil emas.

U maydonchani hamma qarab turgan tarafga qaradi va uni vahima bosdi.

Fleming dedi:

- Xo'sh, endi ular uchun hammamizning ta'zirimizni berishadimi?

- Ta'tildan keyin bu yerga qaytib qadamimni bosmayman, mana ko'rsan, kelib bo'pman, - dedi Sesil Sander. - Uch kunlab oshxonada miq etishmaydi-yu, sal narsaga darrov chizgich bilan savalay ketishadi.

- To'g'ri, - dedi Uyells. - Barret bo'lsa "Jarima daftari"ni qo'lidan qo'yamaydi, bir varaqlashga tushib kesa bormi, tamom, to'xtatib bo'psan - necha marta urushini xudo biladi.

- Menam qaytib kelmayman.

- To'g'ri, - dedi Sesil Sander, - bugun ertalab inspektor ikkinchi sinfga kirdi.

- Kelinglar, isyon ko'taramiz, - dedi Fleming. - Nima deysizlar?

Hech kim churq etmadi. Atrof jim-jit edi, kriket tayoqlarining zarbalari endi oldingidan ko'ra juda sekin eshitalardi: pik, pok.

Uyells so'radi:

- Endi ularni nima qilisharkan?

- Saymon Munen bilan Tisning payini qirqishadi, - dedi Etti, - yuqori sinfdagilarga bo'lsa bittasini tanlanglar: yo jazo yoki haydallasizlar, deyshdi.

- Ular qaysini tanladi? - so'radi birinchi bo'lib gap ochgan bola.

«B»Korrigendan boshqa hammasi haydaliшни ma'qul ko'rди,«B»dedi Etti. «B»Uni mister Glisson savalaydi.

«B»Men bilaman nega Korrigen buni tanlaganini,«B»dedi Sesil Sander, «B»to'g'ri qildi-da, boshqa bolalar adashdi, chunki jazo olganing odamlarning esidan chiqadi-ketadi, kollejdandaydalsang yomon, bir umr isnodga qolasan. Qolaversa, Glison, harqalay o'lasini qilib urmaydi-ku.

- To'g'ri-yu, lekin ish shungacha bormagani ma'qul-da, - dedi Fleming.

- Men hecham Saymon Munening yo Tisning o'rnida bo'lishni istamasdim,«B»dedi Sesil Sander. «B»Ularni jazolamasa kerag-ov. Ehtimol, faqat qo'llariga yaxshilab urishar.

- Yo'q, yo'q,«B»dedi Etti, - ikkovining ham yumshoq joylariga boplab savalashadi.

Uyells ketini silab yig'lamsiragan tovushda dedi:

- Boshqa qilmayman, ser, qo'yib yuboring, ser...

Etti kulimsiradi va kamzulining yengini shimarib dedi:

Gunoh qildingmi chida,

Hiqillama, vaqt o'tdi.

Ishtoningni tez tushir,

Tutib tur, ketti.

Bolalar kulishdi, biroq baribir ularning cho'chib turishganini u sezdi. Mayin, bo'zrang havoda kriket tayog'ining zarbalari eshildi: pok, pok. Bu uzoqdan kelayotgan zarbalar tovushi, biroq o'zingni urishayotganda boshqacha bo'ladi - joning og'rikanini sezasan. Qo'lga urganda chizg'ichdan ham tovush chiqadi, biroq bu boshqacha tovush. Bolalar uni kitning mo'ylovi va terisidan qilingan, ichida qo'rg'oshini bor deyshadi, urganda qanday og'ritishini u tasavvur qilib ko'rishga urindi. Tovushlar har xil bo'ladi. Uzun, ingichka xipchinning tovushi qattiq shuvillab chiqadi, tekkanda qanday og'ritarkan, deb o'yladi u. Xayoliga kelgan bu o'ylardan badani qaltirab ketdi. Ettining gapini eslab eti junjikdi. Nimasi kulgili ekan? Badani jimirlab ketdi, axir, ishtoningni tushirgan paytda o'zi biroz sovuq bo'ladi-da, sal-pal qaltiraysan. Vannada yechinayotganingda ham shunday bo'ladi-ku. Ularning ishtonlarini kim yecharkan «B»o'zlarimi yoki tarbiyachimi? Buning kulgili joyi yo'q-ku?!

U Ettining turilgan yenglariga va siyoh chaplangan ozg'in qo'llariga qaradi. Etti mister Glison yenglarini qanday qayirishini qo'rsatmoqchi bo'lib yenglarini shimardi. Biroq mister Glissonning yeng qaytarmasi dumaloq va oppoq, yarqirab turadi, qo'llari esa top-toza, oppoq, lo'ppigina, tirnoqlari uzun va o'tkir. Ehtimol, u ham tirnoqlarini Boyl xonimga o'xshab egovcha bilan silliqlab yurar. Biroq uning tirnoqlari ko'zga xunuk ko'rinadi - uzun va o'tkir. Oppoq, lo'ppigina qo'llari hecham qo'rqinchli emas, muloyim, biroq tirnoqlari uzun, qo'rqinchli. Garchi Stiven qo'rqinchli uzun tirnoqlarni va xipchinning shuvillab urilgan tovushini, yechinayotganda ko'ylak etagining tagidan kirib badanni junjiktirib o'tadigan qaltiroqni tasavvur etib, sovuq va qo'rquvdan titrayotgan bo'lsa-da, oppoq, lo'ppigina, kuchli va muloyim qo'llarni ko'z oldiga keltirib g'alati va xotirjam huzur tuyg'usini his etdi. Shunda u Sesil Sander aytgan gapni esladi: mister Glisson Korrigenni jonini og'ritib urmaydi. Fleming esa: to'g'ri, chunki uning o'zi biladi bunday qilmasa yaxshi bo'lishini, dedi. Nega shunday - tushunarsiz.

Maydoncha tarafdand qichqirgan ovoz eshildi:

- Hamma yotoqqa!

Unga boshqa ovozlar jo'r bo'ldi:

- Yotoqqa, hamma yotoqqa!

Husnixat darsida u qo'l qovushtirib o'tirdi, sinfda perolarning sekin qitirlagani eshitalardi. Mister Xarford nari borib, beri kelib yurib turibdi, gohida qizil qalam bilan kichik tuzatishlar qiladi, ora-sira peroni qanday ushlashni ko'rsatish uchun bolalardan birortasining yoniga o'tiradi. Stiven doskadagi birinchi satrni, garchi u yerda nima yozilganini bilsa-da, harflab o'qishga urindi, bu darslikdagi eng oxirgi gap edi: "Tushunmay turib qilingan harakat rulsiz kemanding suzishiga o'xshaydi". Biroq doskadagi harflarning chiziqchalari qilday ingichka ko'rinadi, u o'ng ko'zini qattiq qisib, chap ko'zi bilan uzoq sinchiklab tikilibgina bosh harflarning dumaloq shaklini zo'rg'a ilg'ar edi.

Biroq mister Xarford juda mehribon, hech qachon jahli chiqmaydi. Boshqa o'qituvchilar qattiq darg'azab bo'lishadi. Nega endi katta sinfdagi bolalarning qilg'iligi uchun ular javob berishlari kerak? Ular hujradagi shkafdan cherkov vinosini olib ichishgan, buni hididan bilib olishgan, deydi Uyells. Ehtimol, ular muqaddas ne'mat solingan idishni o'g'irlab, bir joyga olib borib sotishni o'ylashgandir? Biroq baribir kechasi bildirmay kirish, qorong'ida shkafni ochib, oltinday tovlanib turgan idishni o'marish - bu gunohi azim; axir, uning ichidagi vinoda, gullar va shamalar orasida tantanali tarzda o'tadigan marosim chog'i, ladanning xushbo'y hidi har ikki tarafdand taralib, ruhoniy isiriqdondni sermab turgan, Dominik Kelli yolg'iz o'zi xorni yetakchi ovozda boshqarayotgan bir damda tangrini o'zi hozir bo'ladi-ku. Ular idishni o'g'irlashgan paytda tangri u yerda bo'lmagan, albatta.

Biroq baribir idishga qo'l tekizishning o'zi aqlga sig'maydigan ish, gunoh. Bu haqda u qo'rquvga qorishgan ixlos tuyg'usi bilan o'yladi: dahshat aqlga sig'maydigan ish; perolarning yengilgina qitirlashini eshitib o'tirib bu haqda o'ylaganida uning yuragi ortiga tortib ketdi. Axir, tap tortmay shkafni ochish va cherkov vinosini ichish, keyin buni hididan sezib qolishlari... kimki yurak yutib bu ishni qilgan bo'lsa, garchi unchalik dahshatli va aqlga sig'maydigan ish bo'lmasa-da, baribir gunoh. Lekin vinoning hididan biroz ko'ngil ayniydi. U birinchi marta cherkovda qovushuv marosimida vinoni tatiyotib ko'zlarini yumib oldi va og'zini ochdi, tilini biroz chiqardi, rektor unga muqaddas ne'matni ulashish uchun egildi, shunda u rektorning nafasidan vinoning yengil hidini sezdi. Vino - yoqimli so'z. Ko'z oldingga to'q qizil rang keladi, chunki uzum donalari to'q qizil - Yunonistonda, oppoq ibodatxonalarga o'xshagan uylar oldida o'sadigan toklarda bo'ladi. Biroq baribir rektorning nafasidan unqib turgan vinoning yengil hidi o'sha kuni - marosimda u birinchi marta qatnashib, ilk bor muqaddas ne'matni tatishga musharraf bo'lgan kuni ko'nglini biroz aynitdi. Bu kun - hayotdagi eng baxtli kun. Bir safar ko'pchilik generallar Napoleondan hayotingizdagi eng baxtli kun qaysi, deb so'rashgan.

Napoleon biror-bir yirik jangda g'alaba qozongan yoki imperator bo'lgan kuni aysa kerak, deb o'ylashgan. Biroq u shunday

degan:

- Janoblar, mening hayotimdagi eng baxtli kun - bu mening birinchi muqaddas qovushuv kunim.

Sinfga hazrat Arnoll kirib keldi, lotin tili darsi boshlandi, u esa hali ham qo'lini qovushtirib o'tirardi. Hazrat Arnoll mashq yozilgan daftarlarni tarqatdi va sinf ishi juda yomon bajarilganini, hammaga mashqni tuzatilgan xatolari bilan qayta ko'chirishni buyurdi.

Daftarlar orasida eng yomoni Flemingniki edi, chunki varaqlariga siyoh chaplanib ketgandi. Hazrat Arnoll daftarlarni bir chetidan ushlab ko'tarib ko'rsatdi va bunday daftarlarni o'qituvchiga berish - uchiga chiqqan hurmatsizlik, dedi. Keyin u Jek Lotenni doskaga chaqirib, mare otini turlashni buyurdi, biroq Jek Loten o'rin-payt kelishigining ko'plikda qanday turlanishini bilmay, to'xtab qoldi.

- Uyal, - dedi hazrat Arnoll qat'i ohangda. - Sen, axir, a'lochi o'quvchisan-ku!

Keyin u boshqa bir bolani chaqirdi, so'ng yana birin-ketin boshqalarni chaqirdi. Hech kim bilmadi. Hazrat Arnollning yuzi favqulodda xotirjam tus oldi, doskaga chaqirilayotgan bolalar harakat qilishgani, biroq javob bera olishmagani sayin uning xotirjamligi ortib bordi. Faqat qovoqlari biroz osildi, ko'z qarashi jiddiylashdi, tovushi esa vazmin edi. Nihoyat u Flemingni chaqirdi va Fleming bu so'zning ko'plik soni yo'q dedi. Hazrat Arnoll birdan kitobni yopdi-da, baqirib berdi:

- Hoziroq sinfnning o'rtasiga o'tib, tiz cho'k. Umrimda bunaqangi dangasani ko'rgan emasman. Sizlar esa, bo'linglar, mashqni qaytadan ko'chiringlar!

Fleming o'rnidan sekin turib, o'rta o'tdi va oxirgi ikki partaning oralig'ida tiz cho'kib o'tirdi. Qolgan bolalar daftarlari ustiga egilib, yoza boshlashdi. Sinf suv quyganday jim-jit bo'lib qoldi, Stiven cho'chibroq hazrat Arnollning xo'mraygan yuziga qaradi va uning yuzi jahldan qizarib ketganini ko'rdi.

Hazrat Arnollning jahl qilayotgani gunohga kirarmikan, yo bolalar erinchoq bo'lib qolganda u jahl qilsa bo'laverarmikan, axir, bu bilan ular yaxshi o'qib qolmaydi-ku? Yoki ehtimol, u o'zini jahli chiqqanday ko'rsatayaptimikan? Bunga uning haqqi bor, chunki u ruhoni, nima gunoh, nima gunoh emasligini o'zi biladi, bilgandan keyin, albatta, gunohga yo'l qo'ymaydi-da. Biroq mabodo bexosdan gunohkor bo'lib qolsa-chi, unda qayerga borib tavba qiladi? Tavba qilish uchun, balki, jamoa boshlig'ining huzuriga borar-a? Maboda jamoa boshlig'i gunoh qilib qo'ysa, rektorga boradi, rektor esa provinsialga, provinsial bo'lsa iyezuitlar generaliga boradi. Bu joy iyezuitlar ordeni, u otasining iyezuitlarning bari aqlli odamlar, deganini eshitgan. Agar ular iyezuit bo'lishmaganida edi, albatta, juda mavqeli-martabali kishilar bo'lishardi. U hazrat Arnollni, Peddi Barretni ham, Makgleyd va mister Glisonni ham iyezuit bo'lishmaganida kim bo'lishlarini ko'z oldiga keltirishga urindi. Biroq buni tasavvur qilish mushkul, chunki ularning har qaysisini har xil rangdagi kamzullarda, shimlarda, mo'ylovlarini soqollari bilan, tag'in boshlarida har xil shlyapalar bilan ko'z oldingga keltirish kerak.

Eshik shovqinsiz ochilib yopildi. Sinfga: "inspektor", degan vahimali shivir-shivir yashin tezligida yoyildi. Bir daqiqa og'ir jimlik cho'kdi, keyin oxirgi partadan chizg'ichning qattiq qarsillab urilgan tovushi eshitildi.

Stivenning yuragi orqasiga tortib ketdi.

- Hazrat Arnoli, bu yerda jazoga ehtiyoj sezayotganlar yo'qmi? - qichqirdi inspektor. - Bekorchi yalqovlar yo'qmi bu yerda ta'zirini yeyishga loyiq.

Inspektor sinfnning o'rtasiga keldi va tiz cho'kib o'tirgan Flemingga ko'zi tushdi.

- A-ha! - xitob qildi u. - Bu kim bo'ldi? Nega u tiz cho'kib o'tiribdi? Ism-sharifing nima sening?

- Fleming, ser.

- A-ha, Fleming! Shubhasiz, bu g'irt dangasa, ko'zlari aytib turibdi. Nega u tiz cho'kkan, hazrat Arnoll?

- U lotin tili mashqini yomon yozgan, - dedi hazrat Arnoll, - buning ustiga grammatikadan birorta savolga javob berolmadi.

- To'g'ri-da, - baqirdi inspektor, - turishidan ma'lum. Uchiga chiqqan tanbal. Ko'zidan ma'lum, ko'zidan.

U partani taqillatib urdi va o'shqirdi:

- Tur o'rningdan Fleming! Chaqqon!

Fleming sekin qo'zg'alib o'rnidan turdi.

- Qo'lingni tut! - o'shqirdi inspektor.

Fleming qo'lini cho'zdi. Chizg'ich qattiq qarsillagan tovush chiqarib ura boshladi: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti.

- Narigi qo'lingni tut!

Chizg'ichning yana olti marta shiddat bilan qarsillab urilgani eshitildi.

- Tiz cho'k! - baqirdi inspektor.

Fleming, qo'llarini pinjiga tiqqancha tiz cho'kdi, og'riqdan uning yuzi burishib ketdi. Stiven Flemingning qo'llari qattiqligini, chunki Fleming qo'llariga qatron surtib, ishqalab yurishini bilardi. Ehtimol, uning joni qattiq og'rigandir, axir, urganda tovush juda qattiq chiqdi-ku? Stivenning yuragi uvishib ketdi.

- Qani, hamma ishga! - o'shqirdi inspektor. - Bu yerda bizga dangasalarning, ishyoqmas muttahamlarning keragi yo'q. Hamma ishga! Hazrat Dolan sizlarni har kun kelib tekshiradi. Hazrat Dolan ertagayam keladi. - Shunday deb u chizg'ich bilan o'quvchilardan birining biqiniga turti va: - Xo'sh, qani, sen tur-chi! Hazrat Dolan qachon kelarkan?

- Ertaga, ser, - Tom Ferlonning ovozi eshitildi.

- Ertagayam, indingayam, indinogayam - kelaveradi, - dedi inspektor. - Buni quloqlaringga quyib olinglar. Hazrat Dolan har kun keladi. Qani endi yozishga kirishinglar-chi. Xo'sh, sen kimsan?

Stivenning yuragi shuv etib ketdi.

- Dedalusman, ser.

- Nega boshqalar yozayaptiyu sen qo'l qovushtirib o'tiribsan?

- Men... haligi...

Qo'rqib ketganidan uning tili aylanmay qoldi.

- Nega bu yozmay o'tiribdi, hazrat Arnoll?

- U ko'zoynagini sindirgan, - dedi hazrat Arnoll, - shuning uchun men uni mashg'ulotdan ozod qildim.

- Sindirdi? Bu nima qiliq? Ism-sharifing nima? - so'radi inspektor.

- Dedalus, ser.

- Beri kel, Dedalus. Buni qara-ya, mana yana bitta ishyoqmas mug'ombir! Basharang aytib turibdi nayrangbozligingni.

Ko'zoynagingni qayerda sindirding?

- Yuguradigan yo'lakda, ser.

- A-ha, yuguradigan yo'lakdamish! - baqirdi inspektor. - Men bunaqa nayranglarni ko'p ko'rganman!

Stiven ajablanib boshini ko'tarib qaradi va bir daqiqa uning ko'zi hazrat Dolanning oqarib-bo'zargan, qarimsiq yuziga, ikki qansharida tuklari ho'ppaygan oqish-kulrang boshiga, ko'zoynagining temir gardishi va oynaklar ortidan o'qrayib turgan nursiz ko'zlariga tushdi. Nega u bunaqa nayranglarni ko'p ko'rganman, dedi?

- Ishyoqmas tirrancha! - o'shqirdi inspektor. - Ko'zoynagini sindirganmish! Odatdagi nayrang buyam! Qani, tez bo'l, qo'lingni cho'z!

Stiven ko'zlarini yumdi va kaftini tepaga qilib qalt-qalt titrayotgan qo'lini oldinga cho'zdi. U bir daqiqa inspektorning barmoqlari, qo'lini yoymoqchi bo'lib barmoqlariga tekkanini sezdi va qo'li tepaga ko'tarilganda keng-mo'l yengi shitirlaganini, zarb bilan urish uchun havolangan chizg'ichning shuvillagan tovushini eshitdi. Bir zarb bilan sindirilgan tayoqning tovushiday qarsillagan achchiq, shiddatli va ayovsiz zarbadan uning qo'li olovga tushgan bargday bujmayib-tirishib qoldi, ketma-ket tushayotgan zarbalar shovqini va og'riqning zo'ridan ko'zlariga qaynoq yosh quyilib keldi. Qo'rquvdan a'zoyi badani qaltirar, qo'llari titrar, qip-qizarib olovi chiqib ketgan kafti va barmoqlari havoda muallaq osilib qolgan bargday titrardi. O'pkasi to'lib ketdi, agar og'zini ochsa o'kirib, bo'ldi bas, qo'yib yuboring, deya ho'ngrab yig'lab yuborishi aniq edi. Biroq ko'zlari qaynoq yoshlarga to'lgan, qo'llari og'riq azobidan qalt-qalt titrayotgan bo'lsa-da, u ko'z yoshlari aralash bo'g'ziga tiqilgan faryodni ichiga yutdi.

- Narigi qo'lingni cho'z! - qichqirdi inspektor.

Stiven abjag'i chiqib ketgan, titrayotgan qo'lini tushirdi va chap qo'lini cho'zdi. Yana tepaga ko'tarilgan qo'l yengi shitirladi, yana havolangan chizg'ichning shuvillagan eshitildi va qattiq qarsillagan, achchiq, chidab bo'lmas, cho'g'day kuydirib yuboradigan og'riqdan uning kafti va barmoqlari bir parcha qip-qizil go'shtga aylanib tugilib qoldi. Ko'zlaridan qaynoq yoshlar tirqirab otildi, alam, azob va qo'rquv ichida yuz-ko'zlari lovullaganicha, titrab turgan qo'llarini tortib oldi va ingrab yubordi. Qo'rquvdan vujudi karaxt bo'lib qoldi, ayanchli ahvolidan alam bilan to'lg'anarkan bo'g'zidagi faryod beixtiyor otilib chiqayotganini, qaynoq ko'z yoshlari tizillab lov-lov yonayotgan yonoqlaridan oqib tushayotganini his qildi.

- Tiz cho'k! - baqirdi inspektor.

Stiven ayovsiz savalab tashlangan qo'llarini pinjiga bosganicha darhol tiz cho'kdi. Ezilgan, qavarib shishib ketgan qo'llariga ichi achidi, bular o'zining emas, boshqa birovning qo'llariday ularga rahmi keldi. U tiz cho'kib o'tirib, bo'g'zidagi so'nggi alamli yoshlarni ichiga yutib, kuyishib og'riyotgan qo'llarini pinjiga bosib, kaftini tepaga qarata cho'zgan qo'lini, inspektorning qo'li barmoqlariga qattiq tekkanini, titrayotgan barmoqlarini qanday yoyganini, abjag'i chiqib, qavarib, qip-qizarib ketgan kaftining yumshoq go'shtini va havoda najotsiz qaltirab turgan barmoqlarini bir-bir ko'z oldiga keltirdi.

- Qani hamma ishga! - qichqirdi inspektor eshik tomonga burilayotib, - hazrat Dolan har kun kelib xabar oladi, tekshiradi - qani bu yerda yana jazoga loyiq ishyoqmas takasaltanglar, yalqovlar bormikan? Har kuni keladi hazrat Dolan, bilib qo'yinglar! Har kuni! Uning ortidan eshik berkildi.

Yuvvosh tortib qolgan bolalar nafasini ichiga yutib, bosh ko'tarmay mashqni yozishni davom ettirishardi. Hazrat Arnoll o'rnidan turdi va partalar orasidan yurib, yoqimli so'zlar bilan bolalarning ko'nglini ko'tardi, yo'l qo'yishgan xatolarini tushuntira boshladi. Uning ovozi juda yoqimli va mayin bo'lib qolgan edi. Keyin u kelib joyiga o'tirdi va Fleming bilan Stivenga dedi:

- Joylaringga borib o'tirishlaring mumkin. Ikkalang ham.

Fleming bilan Stiven o'rinlaridan turishib, borib partalariga o'tirishdi.

Uyatdan yuzlari bo'g'riqib ketgan Stiven shoshib-pishib bir qo'li bilan kitobni ochdi-da, egilib boshini varaqlar orasiga burkab oldi.

Nohaqlik, shafqatsizlik bo'ldi bu, chunki unga doktor ko'zoynaksiz o'qishni taqiqlagan edi, bugun ertalab u otasiga xat yozib, ko'zoynak yuborishlarini so'ragan edi. Hazrat Arnoll ham uyidagilarning ko'zoynak yuborishguncha yozmay turishing mumkin, degandi. Shundan keyin ham uni butun sinfning oldida nayrangboz deb haqorat qilishdi, savalashdi, axir, u sinfda doim birinchi yoki ikkinchi o'quvchi bo'lsa. Yorklarning sardori bo'lsa. Nega inspektor uni nayrangboz dedi? U inspektorning barmoqlari, kaftini yoymoqchi bo'lib, barmoqlariga tekkanini sezgan paytda ko'rishmoqchi shekilli, deb o'ylagandi, chunki inspektorning barmoqlari yumshoq, lo'ppigina edi, biroq shu daqiqada bir zum yuqoriga ko'tarilgan qo'l yengining shitirlaganini eshitildi-yu, zarba tushdi. Uni sinfning o'rtasiga tiz cho'ktirib qo'yishgani ham nohaqlik va shafqatsizlikdan boshqa narsa emas. Hazrat Arnoll ikkalasiga ham joylaringga borib o'tirishlaring mumkin dedi, biroq bu gapni ikkalang ham bir go'rsan, degan ohangda aytdi. U hazrat Arnollning mashqlarini tuzatayotib xotirjam va muloyim ovozda gapirganini eshitdi. Ehtimol, u endi afsuslanayotgandir, rahmdil bo'lgisi kelib qolganidir. Biroq baribir nohaqlik, shafqatsizlik bo'ldi bu. Inspektor - ruhoni kishi, ammo uning bu ishi nohaqlikdan, berahmlikdan boshqa narsa emas. Uning oqishdan kelgan bo'zrang basharasida, temir gardishli ko'zoynagi ortidan o'qrayib qaragan nursiz ko'zlarida rahm-shafqatdan asar ham yo'q edi, chunki u avvaliga o'zining yumshoq barmoqlari bilan uning kaftini yoydi, biroq ko'rishmochi bo'lib emas, ayovsiz savalash uchungina shunday qildi.

- Men buni uchiga chiqqan razillik deb hisoblayman, bor gap shu, - dedi Fleming bolalar uzun dahlizdan turnaqator bo'lib oshxonaga borishayotganda. - Axir, hech qanday aybi yo'q odamni savalash adolatdanmi?

- Chindanam sen ko'zoynagingni bilmay sindirib qo'ydingmi? - so'radi Sassi Rouch.

Flemingning gapidan Stivenning yuragi siqildi. Sassi Rouchga esa javob qilmadi.

- Albatta-da, bilmay, bexosdan, - dedi Fleming. - Men bunga chidab turolmasdim. Men to'g'ri borib rektorga shikoyat qilardim, o'lay agar.

- To'g'ri, - uning gapini chaqqon ilib oldi Sesil Sander, - men ko'rdim uning chizg'ichni kiftiga tashlab bildirmay olib kirganini. Bunday qilishga uning haqqi yo'q.

- Juda qattiq og'ridimi, a? - so'radi Sassi Rouch.

- Ha, judayam, - dedi Stiven.

- Men hecham bu Tozining shu qilg'iga chidab o'tirmasdim. Umuman, bunday tozilarni ko'rishga ko'zim yo'q, - gapga aralashdi Sassi Rouch, - ertaga yana kelaman dedi u, kelib u seni yana uradi.

- To'g'ri aytayapti. Sen borib rektorga shikoyat qilmasang bo'lmaydi, - chuvillashdi bolalar.

Ikkinchi sinfning ba'zi bir bolalari bu mojaroni eshitib turishgandi, ulardan biri dabdabali ohangda shunday dedi:

- Senat va Rim ahli qaror qiladi: Dedalusga berilgan jazo noto'g'ri.

Bu noto'g'ri berilgan jazo edi, bu chindan nohaqlik va shafqatsizlik edi. U oshxonada o'tirib boshiga tushgan ko'rgulikni boshdan-oxir qayta-qayta eslarkan, kutilmaganda miyasiga: yuzimga qaragan odam meni nayrangboz deb o'ylashi mumkinmi, degan o'y keldi. Afsus, hozir cho'ntagida kichkina oynasi bo'lganda yuziga bir qarab ko'rardi. Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas, unga nisbatan adolatsizlik qilindi, bu nohaqlik, borib turgan shafqatsizlik.

To'q kulrang tUSDagi baliq kotleti uning tomog'idan o'tmadi. Ularga chorshanba, muqaddas ro'za kunlari shunday kotlet berilardi: bitta kartoshkada belkurakning izi qolibdi. Ha, to'g'ri, u shunday qiladi, xuddi bolalar aytganiday ish tutadi. To'g'ri borib, rektorning oldiga kiradi, o'zini nohaqdan jazolashganini aytib beradi. Bir buyuk odam ham shunday qilgan, tarix darsligida uning surati bor. Rektor unga jazo noto'g'ri berilganini e'lon qiladi - axir, senat va rim xalqi nohaq jazolanganlarni hamisha oqlagan va ular noto'g'ri jazolanganlar, deya e'lon qilgan. Ular buyuk odamlar bo'lishgan, ismlari Richmel Megnollning savolnomasida bitilgan. Tarixda ham, Piter Parlining Yunoniston va Rim haqidagi hikoyalari ham shunday odamlar va ularning ishlari haqida aytilgan. Birinchi betdagi suratda Piter Parlining o'zi chizilgan. Suratda tekislikdagi ikki tomonini o't-o'lanlar va butalar qoplagan yo'l tasvirlangan, Piter Parle esa protestantlar ruhoniysiga o'xshab, soyavoni keng-mo'l shlyapada, qo'lida yo'g'on hasa bilan Yunonistonga va Rimga olib boradigan yo'lda jadal odimlab borayotir.

Axir, buning hech qanday qiyin joyi yo'q - rektorning oldiga kirib, bor gap aytiladi, xolos. Bu oson: tushlikdan hamma bilan birga chiqadi, dahlizdan yurmaydi, aksincha, qasrga boriladigan zinadan ko'tariladi: shundan so'ng o'ngga burilsa bo'ldi, bir zumda pastqam, g'ira-shira, tor dahlizda paydo bo'ladi, bu joydan rektorning xonasi bir qadam.

Qanday bo'larkan? U yuqori sinf bolalarining stoldan turishayotganini eshitdi: oshxona o'rtasidagi poyonoz ustidan yurib borayotgan bolalarning qadam tovushlari eshitildi. Ana Peddi Ret, Jimmi Meji, ana ispan bola, portugal bola ham ketayapti, beshinchi bo'lib Korrigen borayotir, Korrigenni mister Glison savalaydi. Inspektor Dolan esa uni nayrangboz deb haqorat qildi va hech bir sababsiz savaladi: Stiven yig'idan qizarib ketgan xira ko'zlariga zo'r berib, Korrigenning keng yelkalariga qaradi. Korrigen qora boshini osiltirib hammadan orqada u bilan yonma-yon borayotir. Biroq Korrigenning o'zidan ham o'tdi-da, harqalay, mister Glison uni jonini achitib urmaydi. U Korrigenning hammomda juda basavlat ko'ringanini esladi. Uning terisi torf rangiday, xuddi hovuz chetidagi sayoz loyqa suv tusiga o'xshaydi, yo'lakdan yurib o'tganida oyoqlari ho'l plitalar ustida gurs-gurs etadi, qadam tashlaganda sonlari lorsillaydi, chunki u semiz.

Oshxonaning yarmi bo'shab qoldi, bolalar turnaqator tizilishib eshikka qarab borishayotir. U zinadan to'g'ri yuqoriga qarab yuradi, chunki oshxonaning eshigi ortida hech qachon nazoratchiyam, inspektor ham bo'lmaydi.

Yo'q, bormagani ma'qul. Rektor baribir inspektorning tarafini oladi, bular bari nayrang, deydi, buning ustiga inspektor har kun keladi-ku, battar bo'ladi keyin, rektorga shikoyat qilgan shu bolami, deb yomon ko'rib qoladi uni. Bolalar uni borishga undashayapti-yu, biroq o'zlariga qolsa borishmasdi. Ular hammasini unutilib yuborishgan allaqachon. Yo'q, bormaydi, uyam unutilgani ma'qul. Aytgancha, inspektor har kuni kelaman deb shunchaki po'pisa qildimikan. Yo'q, bormagani tuzuk, yaxshisi inspektorning ko'zidan panaroqda yuradi, nega deganda, kichkina bo'lsang, ko'zga ilinmasang senga tegishmaydi.

Uning stolidagi bolalar qo'zg'alishdi. U o'rnidan turib, bolalarning ortidan eshikka yurdi. Hal qilish kerak. Mana, eshikka yaqinlashib qoldi. Agar bolalarga ergashib yana ozgina yursa o'tib ketadi - rektorning xonasiga borolmaydi, chunki keyin sport maydonchasidan qaytib kelishning iloji bo'lmaydi. Rektorga borsayam, baribir, jazolashadi, hamma uning g'ashiga tegadi, inspektorning ustidan rektorga shikoyat qilgan tirrancha Dedalus shu, deb gap qilib yuradi.

U poyonozdan yurib eshikkacha bordi. Yo'q. Bormaslik kerak. U bunday qilolmaydi. Stiven inspektorning kal boshini, o'qraygan rahmsiz ko'zlarini esladi va qulog'iga uning ism-sharifing nima, degan tovushi qayta-qayta eshitildi. Nega u bir marta aytganda eslab qololmadi? Eslab qololmagani uchun qayta so'radimikan yo ism-sharifini masxaralamoqchi bo'ldimikan? Tarixda o'tgan buyuk kishilarning ism-shariflari unikiga o'xshaydi, biroq hech kim ularni masxaralab kulmaydi-ku. Kalaka qilgisi kelgan bo'lsa, o'zining ism-sharifidan kulsin. Dolan - ularning uyiga kir yuvish uchun kelib yuradigan bir xotinning ism-sharifiga o'xshaydi.

U tor, qorong'i dahlizdan yurib, hujralarning pastak eshikchalari yonidan o'tdi. G'ira-shira qorong'ulikda o'ngga, chapga alanglab borayotib, bu yerdagi devorlarda suratlar bo'lishi kerak, deb o'yladi. Atrof qorong'i va jim-jit edi, uning ko'zlari yaxshi ko'rmas, yig'idan shishib ketgan, shu sababdan u hech narsani ajratolmasdi. Biroq jamoaning ulug' kishilarining suratlarini devordan unga qarab turganday tuyuldi: avliyo Ignatij Loyola qo'lida ochiq kitob, shahodat barmog'i bilan "Ad Mojozem Dei Gloriam"[2] iborasini ko'rsatib turibdi, avliyo Fransisk Ksaveriy ko'ksiga ishora qilgan, boshiga movut qalpoq kiygan Lorenzo Richchi sinf nazoratchisining o'zginasi, xudojo'y o'g'lonlarning uch nafar homiysi - avliyo Stanislav Kostka, avliyo Aloiziy Gonzaga va saodatmand Ioann Berxmans - uchalasi ham navqiron qiyofada, chunki ular navqiron yoshda qazo qilishgan, hazrat Piter Kenni esa oromkursida keng-mo'l plashiga o'ranib o'tiribdi.

U kiraverishdagi maydonchaga chiqdi va alanglab atrofga ko'z tashladi. Mana shu yerdan o'tgan Gamilton Rouyen, askarlar otgan o'qlarning izi bor edi bu yerda. Keksa xizmatkorlar marshalning oppoq libosiga burkangan arvochini shu yerda ko'rishgan.

Keksa xizmatkor maydonchani bir chetini supurayotgan edi. U qariyadan rektorning xonasi qayerda deb so'radi, qariya qarshi tomondagi oxirgi eshikni ko'rsatdi va u yurib kelib, eshikni taqillatguncha orqasidan kuzatib turdi.

Ichkaridan hech kim javob qilmadi. U qattiqroq taqillatdi va ichkaridan bo'g'iq ovoz eshiltilganda yuragi shuv etib ketdi:

- Kiravering.

U eshikning tutqichini buradi, eshikni ochdi va ichkaridagi yashil namat qoplangan ikkinchi eshikning tutqichini izlab paypasladi. Tutqichni topib bosdi va xonaga kirdi.

Rektor stolda yozib o'tirardi. Stolda bosh suyagi turibdi, xonada eski oromkursiga qoplangan terining hidiga o'xshagan g'alati hid bor edi.

Bunday tabarruk joyga kirib qolganidan hayajonlanib va xonadagi vazmin sukunat bosib, yuragi tez urib ketdi: u stoldagi bosh suyagiga va rektorning muloyim chehrasiga qaradi.

- Xo'sh, bolakay, nima gaplar? - so'radi rektor. - Tinchlikmi?

Stiven entikib, tomog'iga tiqilgan hayajonni yutarkan dedi:

- Men o'zimning ko'zoynagimni sindirib qo'ydim, ser.

Rektor og'zini ochdi va taajjublangan ohangda dedi:

- O'!

Keyin kulib turib dedi:

- Nachora, modomiki ko'zoynagimizni sindirib qo'ygan ekanmiz, demak, endi uyga xat yozishga to'g'ri keladi, yangisini yuborishsin.

- Men uyimizga xat yozdim, ser, - dedi Stiven, - hazrat Arnoll ham aytdilar, uydagilaring yangi ko'zoynak yuborishguncha yozmay turgin, dedilar.

- Yaxshi, juda yaxshi, - dedi rektor.

- Biroq...

- Xo'sh?

- Hazrat Dolan bugun kelib, meni mashqni yozmaganim uchun savaladi.
Rektor bir so'z demay unga qarab turdi, Stiven yuzlariga qon yugurayotganini his qildi, shu damda ko'zlaridan yosh tirqirab ketadiganday tuyuldi.
Rektor aytdi:

- Sening ism-sharifing Dedalus, shundaymi?

- Ha, ser.

- Qayerda sindirding ko'zoynagingni?

- Yuradigan yo'lakchada, ser. Bir bola velosipedda meni urib yubordi, men yiqilib tushdim, ko'zoynagim uchib ketib sindi. Men u bolaning ism-sharifini bilmayman.

Rektor yana bir muddat churq etmay unga tikilib qoldi. Keyin kulib turib, dedi:

- Menimcha, bu yerda anglashmovchilik bo'lgan, hazrat Dolan bilmagan-da.

- Men unga aytdim, ser, ko'zoynagimni sindirib qo'ydim dedim, biroq u meni jazoladi.

- Sen uyingga xat yozib yuborganingni unga aytdingmi?

- Yo'q, ser.

- Ana, ko'rdingmi, demak, hazrat Dolanga tushuntirib aytmagansan. Unga aytgin, men seni bir necha kunga mashg'ulotlardan ozod qildim.

- Rahmat, ser, biroq hazrat Dolan aytdi, ertaga u yana kelarkan, meni yana uradi.

- Yaxshi, - dedi rektor, - anglashmovchilik bo'libdi-da, hazrat Dolan bilan o'zim gaplashaman. Xo'sh, bo'ldimi?

Stiven ko'zlarini yosh qoplaganini sezdi va pichirlab dedi:

- Ha, bo'ldi, rahmat, ser.

Rektor stolning bosh suyagi turgan tarafidan qo'lini uzatdi va Stiven bir lahza uning sovuq, ho'l kaftini his qildi.

- Xo'p, xayr, - dedi rektor qo'lini olarkan, bosh iring'ab.

- Xayr, ser, - dedi Stiven.

U ta'zim qildi va xonadan astagina chiqib, ortidan ikkala eshikni ham sekin, avaylab bekitdi.

Biroq maydonchada keksa xizmatkorning yonidan o'tib, yana pastqam, tor va qorong'i dahlizga kelganda qadamini tezlatdi. U tobora qichab, g'ira-shira qorong'ilikda shoshib-pishib, entikib, tez-tez yura boshladi. Dahlizning oxiridagi eshikni tirsagi bilan itarib ochdi-da, zinadan yugurib tushib, yana ikkita dahlizdan chopib o'tdi va - tashqariga otilib chiqdi.

U maydonda o'ynayotgan bolalarning qiyqiriqlarini eshitdi. O'zini to'xtatolmay yugurib ketdi va shu chopishda yuguradigan yo'lakdan o'tdi-da, maydonchaga yetganda nafasi tiqilib, o'zining sinfi oldida to'xtadi.

Uning chopib kelayotganini bolalar ko'rib turishgandi. Ular darhol Stivenni qo'rg'alab o'rab olishdi, gapini yaxshiroq eshitish uchun bir-birlarini turtib-sura boshlashdi.

- Xo'sh, ayt qani, nima bo'ldi?

- U nima dedi?

- Kirdingmi oldiga?

- U nima dedi?

- Ayt qani, nima bo'ldi?

U bolalarga o'zi nima deganini va rektor nima deb gapirganini aytib berdi. Gapini tugatishi bilan bolalar bir varakayiga furajkalarini osmonga iring'itishib, qichqirib yuborishdi:

- Ur-ra!..

Ular furajkalarini ilib olishib, yana osmonga qarab iring'itishdi va yana qichqirishdi:

- Ura! Ura!

Keyin bir-birlarining qo'llarini chalishtirib ushlab, ustiga uni ko'tarib o'tqazishdi va to o'zi sakrab tushib qochib ketgancha ko'tarib chopishdi. U o'zini yerga tashlab bir chetga qochgandan so'ng bolalar har yoqqa sochilib, yotgan joylarida yana furajkalarini osmonga iring'itishdi va furajkalari havoga ko'tarilganda hushtak chalib, qichqirishdi:

- Ura!

Keyin ular uch marta kal Dolanga qarshi g'azab bilan hayqirishdi va yana uch bor Konmi sharafiga "ura" aytishdi va uni Klougous kolleji tarixida eng zo'r rektor, deb e'lon qilishdi.

Mayin bo'zrang havoda olisdan kelayotgan qiyqiriqlar tovushi tindi. U yolg'iz o'zi o'tiribdi. Yelkasidan og'ir yuk tushganday yengil, vaqti chog'. Biroq baribir u hazrat Dolanning oldida kekaymaydi, intizomli va itoatkor bola bo'ladi. Ko'nglida hazrat Dolanga biror-bir yaxshilik qilgisi, takabburlik qilmayotganini bildirgisi keldi.

Havo mayin, bulutli va sokin edi: qosh qoraya boshlagandi. Kechki salqin turdi, qishloqda dala havosi shunaqa yoqimli bo'ladi, ular dalada mayor Bartonning chorbog'ida sholg'om kavlashdi, sholg'omni shu yerdayoq tozalashib, yo'l-yo'lakay yeyishdi: ayvoncha ortidagi, mozilari o'sadigan o'rmondan shunaqa yoqimli hid taraladi.

Bolalar uzoqdan va yaqindan to'p oshirishni mashq qilishayapti. Bulutli mayin havoda dukkillagan past tovush quloqqa chalinadi va bu osoyishtalikni buzib, har tarafdan kreket tayog'ining zarbalari eshitildi: pik, pok, pak - xuddi favvoradagi suv tomchisi limmo-lim hovuzga ohista tomib tushayotganday.

Ikkinchi Bob

Charlz tog'a chekadigan tamaki shu qadar achchiq ediki, oxir-oqibat unga bog'ning etagidagi saroychaga borib, ertalabki kayfini o'sha yerda qilishini tayinlashdi.

- Zo'r, Saymon. Juda soz! - dedi qariya bosiqlik bilan. - Qayerda bo'lganda-chi. Saroyda bo'lsa saroy-da, qaytaga yaxshi.

- He, jin ursin, - dedi qizishib mister Dedalus, - bu bema'ni narsani og'zingizga qanday olasiz, hech aqlimga sig'dirolmayman.

Axir, bu zahri qotilning o'zginasi-ku, xudo haqqi!

- Ajoyib tamaki, Saymon, - dedi qariya, - badanni yumshatadi, kayfni chog' qiladi.

O'shandan beri Charlz tog'a har kuni ertalab sochlarini hafsala bilan orqaga tarab-tekislab, boshiga gard qoldirmay tozalangan tsilindrni qo'ndirgach, o'zining saroyiga yo'l oladi. U chekib o'tirganda eshikning tirqishidan tsilindrning bir cheti va trubkasining boshchasi ko'rinib turadi. Mening boshpanam, deydi u badbo'y saroychani, bu yerda yana mushuk va bog'da ishlatiladigan asbob

turadi, shuningdek, boshpanasi unga ashula mashq qiladigan studiya vazifasini ham o'taydi va har kuni ertalab u o'zining yaxshi ko'rgan qo'shiqlari: "Shox-shabbalar ko'lankasi chekindi" yoki "Moviy ko'zlar, oltin sochlar", yo bo'lmasa "Blarni daraxtzori"ni berilib, dimog'ida ming'irlab xirgoyi qiladi, kulrang va zangori tutun halqalari esa trubkadan ohista o'rmlab, ochiq havoga singib ketadi.

Yozning birinchi yarmida Blekrokda Charlz tog'a Stivenning sodiq hamrohiga aylandi. Charlz tog'a qoruvli, yuzlaridan qat'iyati aniq ko'rinib turadigan, oftobda toblangan, oppoq chakka soqolli chol edi. Dam olish va bayramdan boshqa kunlari unga oziq-ovqatga buyurtma berib kelish vazifasi yuklanar, u uydan chiqib, Kerisfort-avenyuga, shaharning shoh ko'chasidagi, odatda, oila zarur narsalarni xarid qiladigan do'konga yo'l olardi. Stiven u bilan do'kon aylanishni yaxshi ko'rardi, chunki Charlz tog'a yo'l-yo'lakay ochiq qutilarga, katta yog'och chelaklarga to'latilgan meva-chevalardan olib unga ulashardi. Bir bosh uzumni xas-xashagi bilan changallab ko'targan yoki ikki-uch dona olmaga qo'l solgan va ularni bolaga bajonidil hadya etgan paytlari bo'lgan. Bunday paytda sotuvchi tirjayib qo'yadi; agar Stiven o'zini olgisi kelmayotganday ko'rsatsa, sotuvchi qovog'ini solib deydi:

- Olavering, ser, eshitayapsizmi gapimni! Ichak-chovoqqa nafi bor buning!

Buyurtma qabul qilib olingandan so'ng ular bog'ga yo'l olishardi, bog'da ularni Stivenning otasining eski oshnasi Mayk Flinn skameykada kutib o'tirgan bo'lardi. Shu yerdan Stiven bog'ni aylanib yugura boshlardi. Mayk Flinn qo'lida soat bilan vokzalga yuriladigan yo'lak boshida turar, Stiven esa bog'ni aylanib, Mayk Flinnning qoidasi bo'yicha - boshini g'oz tutib, tizzalarini baland ko'tarib, qo'llarini ikki biqiniga tiragan holda yugurardi. Ertalabki yugurish tugagandan so'ng murabbiy unga xatolarini uqtirar va ba'zan qanday yugurish kerakligini ko'rsatish uchun eski ko'k kanop tuflida, oyoqlarini bir-biriga urib, zavq bilan bir necha qadam yugurardi. Garchi unga otasi bizning zamonning eng zo'r chopag'onlari Mayk Flinnning qo'lida tarbiya topgan, deb aytgan bo'lsa-da, Stiven ustozining so'lg'in, tikanday tuk bosgan yuziga, tamaki o'rayverib sarg'ayib ketgan uzun barmoqlariga achinib ko'z tashlab qo'yar, qavargan uzun barmoqlari tamaki o'rashdan to'xtaganda, tamaki uvoqlari shuvillab xaltachaga to'kilib tushayotganidan bexabar holda tuyqusdan uzoq-uzoqlarga o'ychan termilib qarab qoladigan zangor xira ko'zlariga qarardi.

Uyga qaytayotganlarida Charlz tog'a ko'pincha cherkovga kirardi. Bu yerdagi muqaddas suv solingan idishga Stivenning qo'li yetmasdi, shunda chol idishga qo'lini botirib olib, tez-tez silki Stivenning ust-boshiga va cherkovning eshigi oldiga suv sachrardi. Cho'qina turib u tiz cho'kardi, bungacha qizil dastro'molini yozar va har bir sahifasining tagiga duoning ilk so'zlar bitilgan, eskirib qorayib ketgan duolar kitobiga qarab pichirlab ovoz chiqarib ibodat qilardi. Stiven uning taqvodorligiga xayrxoh emasdi, biroq cholning e'tiqodiga hurmat yuzasidan yonida tiz cho'kib o'tirardi. U ko'pincha: Charlz tog'a nega bunchalik berilib duoxonlik qilarkan, deb o'ylardi. Ehtimol, arosatda qolgan ruhlarga Yaratgandan shafqat tilar yoki oxirini oson qilishini iltijo etar, balki Korkda o'zi shamolga sovurgan katta boylikning hech bo'lmasa bir bo'lagini qaytarib berishini Yaratgandan o'tinib so'rar. Yakshanba kunlari Stiven otasi va tog'asi bilan birga sayrga chiqardi. Oyog'idagi qadoqlariga qaramay chol bemalol yayov yurardi va ko'pincha ular o'n, ba'zan hatto o'n ikki mil yo'l bosib qo'yishardi. Stillorgen qishloqchasida yo'l ikkiga ajralardi. Ular yo chappa, Dublin tog'lari tarafga qayrilishar yoki Goutstaunga qarab yurib, u yoqdan Dandremga o'tib va Sendiford orqali uyga qaytishardi. Yurib borayotib yoki oyoqlarini sovutish uchun yo'l chetidagi biror-bir oshxonaga bosh suqishganda kattalar har doimdagiday o'zlarining yaxshi ko'rgan mavzulari - Irlandiyadagi siyosiy masalalar haqida, Manster yoki bir paytlar oilada bo'lib o'tgan voqealar to'g'risida gapga tushib ketishardi, Stiven esa ularni jon qulog'i bilan tinglardi. Tushunarsiz so'zlarni u ichida qayta-qayta takrorlar, yodlab olguncha tinchimasdi va atrofidagi dunyoni ularning gap-so'zlaridan tushunib olishga shu tariqa oz-ozdan o'rganib borardi. Nazarida, dunyo ishlarida o'zi ham ishtirok etadigan vaqt-soatlar yaqinlashib qolganday tuyular va u zimdan ulug' ishga tayyorlana boshlagan, bu ulug' ish o'zining taqdir-pehonasiga bitilganini ko'nglida his etar, biroq mohiyatini g'ira-shira tasavvur qilar edi.

Tushlikdan keyin uning ixtiyori o'zida bo'lardi: eskirib to'zigan kitobni - "Graf Monte-Kristo"ning tarjimasini o'qishga berilardi. Bu qayg'uli qasoskor obrazi uning tasavvurida bolaligida xayol qilgan tushunarsiz va qo'rqinchli narsalarga bog'lanib ketardi. Kechalari u mehmonxonadagi stol ustida qog'ozga ko'chiriladigan suratlardan, qog'oz gullar, rangli yupqa qog'ozlar va shokolad o'raydigan yaltiroq qog'oz tasmachalaridan oroldagi vahimali g'or shaklini yasardi. Keyin bu inshootni, soxta yaltiroqligidan yuragi siqilib, buzib tashlardi va shunda ko'z o'ngida Marselning yorqin manzarasi, quyosh nurlari to'kilib turgan bog' tevaragidagi to'siqlar va Mercedes paydo bo'lardi.

Blekrok ortida, toqqa olib boradigan yo'lda, atirgullar o'sadigan bog'da kichkina oq uycha bor, bu uychada, derdi u o'ziga-o'zi, boshqa bir Mercedes yashaydi. Sayr qilgani chiqayotib yoki uyga qaytib kelayotib, u o'sha joygacha bo'lgan masofani o'zicha chamalar va xayol-orzusida xuddi kitobdagiday, uzundan-uzoq g'aroyib sarguzashtlarni boshdan kechirar, oxirida esa o'zi paydo bo'lardi: mana u - qarib qolgan va g'amgin, oy yog'dusiga cho'mgan bog'da Mercedes bilan yonma-yon turibdi, ko'p yillar oldin qiz uning muhabbatiga xiyonat qilgan va u hasratga to'lib, biroq mag'rur turib dedi: "Xonim, men muskat uzumini tanovul etmayman".

U Obri Millz degan bola bilan do'stlashdi va u bilan birgalikda bog'da sarguzasht ishqibozlari ittifoqini tuzdi. Obri kamzulining yoqasi ustidan hushtak, belidagi kamariga velosipedning kichkina chirog'ini osib olgan, boshqa bolalar kamarlariga kalta tayoqchalarni xanjarga o'xshatib tiqib olishgan. Stiven bir joyda Napoleonning oddiy kiyinishni ma'qul ko'rgani, bo'lar-bo'lmas nishonlardan voz kechganini o'qigan edi va bu unga askarlari bilan kengash o'tkazganda ayricha qoniqish bag'ishlarkan. Ittifoq a'zolari alvastilar chorbog'iga hujum uyushtirar yoki qasrdagi qo'rg'onchaga jam bo'lishib, yo'sin qoplagan paxmoq xarsanglar ustida jang qilishardi: keyin horib-tolib uy-uyulariga qaytishar, dumog'lariga suvi eskirib ayniy boshlagan hovuzning badbo'y hidi o'tirib, qo'llari, boshlari baqato'nlarning achchiq shilimshiq shirasiga butkul belanib qolardi.

Obriga ham, Stivenga ham sutni faqat bir kishi olib kelardi va ular tez-tez aravada u kishi bilan birga Karrikmaynzga borishardi, sigirlar shu yerlarda o'tlab yurardi. U sigirlarni sog'ib olguncha bolalar navbat bilan yuvosh biyaga minib, dalani aylanardi. Biroq kuz kelib, sigirlarni daladan molxonaga haydab ketishdi va Stiven Stredburkdagi sasib yotgan molxonani bir ko'rib qoldi - bijg'ib yotgan ko'lmaqlar, uyub tashlangan suyuq go'ng, oxurlarda kepak qorilgan yemishdan ko'tarilayotgan bug'dan sal bo'lmasa ichi ag'darilayozdi. Quyoshli kunlarda yam-yashil qirlarda yayilib o'tlab yurgan sigirlarni ko'rganda ko'zi quvonardi, endi molni ko'rsa jirkanadigan, hatto sutga ham qayrilib qarolmaydigan bo'lib qoldi.

Bu yil sentabrning yaqinlashib kelayotgani uning dilini siyoh qilmasdi, chunki endi Klongousga qaytib borishining hojati yo'q. Mayk Flinn kasalxonaga yotdi, shu bilan bog'dagi mashqlar ham barham topdi. Obri maktabga qatnay boshladi, unga o'ynash uchun faqat tushdan so'ng bir soatgina ruxsat berishardi. Ittifoq ham tarqab ketdi, alvastilar chorbog'iga hujumlar, xarsanglar ustida jang qilishlar ham tugadi. Ba'zan Stiven sutchi bilan kechqurun sog'ilgan sutni tarqatish uchun aravada birga yurar, kechki salqinda esgan sovuqqina shabada molxonaning qo'lansa hidini xotirasidan quvganday bo'lar, pichan bog'lamlari va sutchining ust-

boshiga ilashgan molning yunglaridan endi jirkanmasdi. Arava biror uy oldiga kelib to'xtaganda: hozir eshik ochilib, bir zum yaltiratib tozalangan oshxona yoki yop-yorug' dahliz ko'rinadi, ichkaridan xizmatkor ayol chiqib, ko'zchasini qo'yadi-da, eshikni berkitadi, deb kutib qarab turardi. Biroq ayni shunday b"ning uning yuragini siqib, bog'da mashq qilayotganida tuyqusdan oyoqlaridan madorini quritadigan gumon tuyg'usi, ustoz Mayk Flinnning uzun, sarg'ayib ketgan, qadoqli barmoqlariga, ma'yus egilgan so'lg'in, tikanday tuk bosgan yuziga umidsiz qarashga majbur etadigan xavotir hissi kelajak haqidagi shirin orzularini to'zg'itib yuborardi. Otasining ishlari chatoqligini u oz-moz payqagan edi: shuning uchun ham uni Klongousga jo'natishmadi. Yaqindan beri uylarida ro'y bera boshlagan ba'zi bir noxushliklarni u sezib yurardi, bu o'zgarishlar uning nazarida juda mustahkam bo'lib ko'ringan narsalarni birin-ketin buzib tashlayotgani har safar uning dunyo haqidagi bolalarcha tasavvuriga sezilarli zarba bo'lib tushardi. Gohi-gohida qo'zg'aladigan izzatlablik tuyg'usi yuragining tub-tubida g'imirlab qo'yar va yuzaga chiqish uchun yo'l qidirmasdi. U ot tuyoqlarining dupiriga, Rok-roudg'a tomon temir izlardan kelayotgan ko'nka-vagonlarning taraqturuqiga quloq solganda, shundoq ortida taraqlab yumalab tushgan kattakon tunuka idishning shovqinini eshitganda ongini, yerni qoplagan shom pardasiday, qorong'ulik cho'lg'ab olardi.

U xayolida Mercedesning yoniga qaytar va ko'z oldida qizning qiyofasi jonlanganda tomirlarida g'alati bir bezovtalik uyg'onardi. Ahyon-ahyonda vujudini allaqanday hayajon zabt etar va uni beixtiyor shom qorong'usi qoplagan sokin ko'chalariga quvib solardi. Bog'lardagi osudalik, derazalardan yog'ilib turgan nurafshon yog'dular hayajondan hapriqayotgan yuragiga tasalli berardi. O'ynab yurgan bolalarning qiy-chuvlari uning g'ashini qo'zg'ar, ularning ahmoqona baqiriq-chaqiriqlari esa unga, Klongousdagidan ko'ra ham qat'iroq tarzda, o'zining hecham boshqalarga o'xshamasligini his etishga majbur qilardi. Uning o'ynagisi kelmasdi. U o'zi ko'rib turgan mana shu haqiqiy hayotda yuragini besaranjom qilayotgan o'sha tutqich bermas qiyofani uchratgisi kelardi. Uni qayerdan, qanday izlab topishini bilmasdi. Biroq hech qanday zahmat chekmasa-da, bir kuni o'sha qiyofa qarshisida paydo bo'lishini ko'nglida sezardi. Shunda ikkalasi, garchi bir-birini oldindan bilishsa-da, oldindan biror-bir shiypon ostidagi yoki boshqa xilvatroq joyda uchrashishga ahdlashgan bo'lishsa-da, albatta, xotirjam ko'rishishadi. Faqat ikkalasi bo'ladi - atrof esa qorong'u va jim-jit; ana shu beqiyos fayzu tarovatli lahzada u qayta tug'iladi. U qizning ko'z o'ngida bir zum g'oyib bo'ladi, jonsiz, tanasiz shaffof ruhga aylanadi va shu lahzaning o'zidayoq qayta yaraladi. Bo'shangligi, ma'yusligi, tajribasizligi ana shu sehrli lahzada uni butkul tark etadi.

Bir kuni erta tongda darvoza oldiga bir juft sariq soyabon arava kelib to'xtadi va odamlar og'ir-og'ir qadam tashlashib uyga kirishdi, ular jihozlarni olib ketish uchun kelishgandi. Mebelni aravaga gulzorni bosib ko'tarib olib o'tishdi, gulzorda poxol va ip-arqonlarning uzuq-yuluq parchalari sochilib yotardi. Jihozlarni yuklab bo'lishgach, aravalar taraqlagancha ko'chada yurib ketdi. Yig'lamsiragan onasining yonida o'tirgan Stiven ko'nkaning derazasidan Merion-roud bo'yab yo'rtib ketishayotganini ko'rdi. O'sha kuni kechqurun mehmonxonadagi kaminni yoqish qiyin bo'ldi, mister Dedalus temir kosov bilan kaminni kovlashtirdi, ko'mirning olov olishini kutib turdi. Charlz tog'a bo'shab qolayotgan, to'shanchilari yig'ib olingan xonaning bir burchagida mudrab o'tiribdi. Stoldagi chiroq yuk tashuvchilar oyoq izlari qolgan kir-chir polni xiragina yoritadi. Stiven otasining yonida kichkina kursichada, uning o'ziga-o'zi aytayotgan uzuq-yuluq gaplarni eshitib o'tiribdi. Avvallari u kam narsani tushunar yo umuman hech narsani tushunmas edi, biroq asta-sekin otasining dushmanlari borligini va qandaydir kurash bo'lishi kutilayotganini ilg'ay boshladi. U o'zini ham bu kurashga tortishayotganini, unga ham allaqanday majburiyat yuklanayotganini sezdi. Uning orzularini, Blekrokdagidagi osoyishta hayotini ostin-ustun qilib yuborgan kutilmagandagi ko'chish, tuman bosgan fayzsiz shahardan aravada yurib o'tganlari, endi ular yashaydigan, saromjon-sarishtasiz yap-yalang'och uy haqidagi o'ylar yuragini siqardi. Shunday damlarda yana qandaydir bir nur, kelajakdan umidvorlik tuyg'usi unga kuch bag'ishladi. U endi xizmatkor ayollarning dahlizda nega sirli pichirlashganini, otasining nega kamin tagiga to'shlangan gilamcha ustida tik turib olovga orqasini tutib, ovozi boricha Charlz tog'aga bir nimalarni uqtirmoqchi bo'lgani-yu, Charlz tog'aning uni o'tirishga, ovqatlanib olishga ko'ndirmoqchi bo'lib uringanlarining sababini bilardi.

- Men hali taslim bo'lganim yo'q, Stiven, o'g'lim, - derdi mister Dedalus kosov bilan kamindagi miltillab turgan olovni asabi qo'zg'arkan, - hali biz kurashamiz, jin ursin (o'zing kechirgaysan, tangrim), ha, hali shunday jang qilaylikki!

Dublin yangi va notanish joy edi. Charlz tog'a shu qadar uquvsiz bo'lib qoldiki, uni topshiriq bilan biror joyga ishonib jo'natishning iloji yo'q edi, boz ustiga, ko'chib kelishgandan so'ng uyda avj olgan besaromjonlik va tashvishlardan Stiven, Blekrokdagidan ko'ra ham, bekorchi bo'lib qoldi. U dastlab qo'shni uy oldidagi maydonchani aylanishga jur'at etdi, bir tor ko'chaning yarmigacha bora oldi, biroq keyin xayolida o'zicha shahar planini chizgan bo'lib, markaziy ko'chalardan biriga chiqib oldi va dadil yurib bo'yxonagacha bordi. U daryo qirg'og'idagi kemalar ta'mirlanadigan ustaxonalar yonida shunchaki sandiraqlab yurdi, suv betidagi qalin sarg'aygan ko'pik ichida qalqib turgan bir talay po'kak-suzgichlarga, bandargohda uymalashib turgan yuk tashuvchilarga, taraqlab borayotgan aravalaru pala-partish kiyingan, soqolli politsiyachilarga ajablanib qaradi. Qirg'oqqa uyub tashlangan yoki kemalarning ichida osilib turgan toy-toy narsalar unga hayotning zalvorli va favqulodda g'alatiligidan darak berar, tag'in qalbida kechqurunlari bog'dan bo'qqa Mercedesni qidirib izg'ishga majbur etadigan o'sha bezovta tuyg'uni qo'zg'ar edi. Va bu yangi gullagan qaynoq hayot ichida u Marselni ham tasavvur qila olishi mumkin edi, biroq bu yerda na shishaday toza osmon va na quyosh nuri yaraqlab turgan vino do'konlarining panjarasimon derazalari bor. U qirg'oqqa nazar tashlaganida, daryoga va yer bag'irlab turgan osmonga qaraganida ichida mubham bir g'ashlik toshib kelar, biroq u baribir har kuni shaharni izg'ishini kanda qilmas, go'yo o'ziga chap berayotgan kimnidir izlayotganday tinib-tinchimas edi.

U ikki marta onasi bilan qarindoshlarining uyiga mehmondag bordi va har gal mavlud bayrami uchun bezatilgan - yarqirab nur sochib turgan savdo rastasi yonidan yurib o'tilgan bo'lsa-da, chiroyi ochilmadi, g'amgin kayfiyat uni tark etmadi. G'amginligining esa o'ziga bog'liq va bog'liq bo'lmagan sabablari ko'p edi. O'zining hali kichik ekani unga alam qilar, allaqanday ahmoqona tiyiqsiz ehtiroslarga berilib qolishlari, uylarida hayot maromining o'zgarib ketgani orzu-o'ylarini ostin-ustun qilib, dardu dunyosini favqirona va soxta bir nimaga aylantirib qo'ygani uni pushaymonga solardi. Biroq alam va pushaymonlar uning tevarak-atrofdagi olamni anglay boshlagan idrokiga yilt etgan yangilik olib kirmadi. U nimaiki ko'rgan bo'lsa, barchasini chidam bilan, og'rinib ko'nglidan o'tkazar va bu og'ir kayfiyat zimdan uning qon-qoniga singib borardi.

U xolasinikida, oshxonada kursida o'tirardi. Kaminning ortidagi loklangan devorda qalpoqli chiroq osilib turar va uning yorug'ida xolasi tizzasiga tashlagan oqshomgi gazetani o'qirdi. Xolasi kulib tushgan ayollar suratiga uzoq qarab turdi, keyin o'ychan ohangda dedi:

- Go'zal Meybl Xanter.

Qo'ng'iroqsoch qizaloq oyoqlarining uchiga ko'tarilib, suratga qaradi-da, sekingina so'radi:

- Bu qaysi piyesada, oyi?

- Pantomimada, qizalog'im.

Qizcha qo'ng'iroqsoch boshchasini onasining qo'liga qo'ydi va suratga qarab, go'yo sehrlanib qolganday shivirladi:

- Go'zal Meybl Xanter!

Ayyorona kulib turgan bu quv ko'zlardan, go'yo sehrlanib qolganday, qizcha ko'zlarini uzolmay turdi va hayajonlanib pichirladi:

- Voy, qanday chiroyli!

Ko'chadan yelkasida bir qop ko'mir bilan og'ir qadam tashlab bukchayib kirib kelgan bola uning gapini eshitdi. Bola yelkasidagi qopni yerga chaqqon tashlab, yugurib keldi. U qizarinqiragan, ko'mirdan qoraygan qo'llari bilan gazetani o'ziga tortdi va qizchani chetroqqa surib, o'ziga ko'rinmayotganidan nolindi.

Stiven derazalari qoraygan eski uyning tepa qavatida ensiz tor oshxonada o'tiribdi. O'choqdagi olov aksi devorda jilpanglab o'ynayapti, deraza ortida daryoni qoplagan shom qorong'usi quyuqlashayotir. Kampir o'choq oldida kuymalanadi, choy damlamoqchi: u ishidan boshini ko'tarmay ruhoniyl bilan doktor nima deyishganini sekin gapirib berayapti. Va yana kampir bemorning ahvoli qay tomonga o'zgarayotgani, harakatlari, gap-so'zlaridagi g'alati alomatlarini ham aytayotir. U bu gaplarni eshitayapti, xayoli esa qarshisida miltirayotgan ko'mir uyumida - qasrlar va saroylar ichida egri-bugri uzun yo'laklar va tor, zimiston g'orlarda kechayotgan olatasir sarguzashtlar bilan band.

Tuyqusdan u eshik oldida allaqanday sharpani sezdi. U yerda, g'ira-shirada, qiya ochiq eshikning qorong'u tirqishida bir bosh ko'rindi. Maymunbashara g'arib mavjudot o'choq boshidagi ovozlarga muztar bo'lib turibdi. Inragan ovoz so'raydi:

- Jozefinami bu?

Kuymalanayotgan kampir, o'choq boshidan jilmay, dadil javob qaytaradi:

- Yo'q, Ellen, bu Stiven!

- Ha... salom Stiven.

U salomga alik oladi va eshikdagi basharada ma'nisiz tabassumni ko'radi.

- Senga biror nima kerakmi, Ellen? - so'raydi kampir.

Biroq u, savolga javob bermay, deydi:

- Men bu Jozefina, deb o'ylabman. Men sizni Jozefina debman, Stiven. - Qiz buni bir necha bor takrorlaydi va sezdirmay qiqirlab kuladi.

U Xarold-krossdagi bolalar bayramida o'tiribdi. Odamovi sergak kayfiyat tobora uni o'z ta'siriga olayotir, u o'yinlarga deyarli qo'shilmayapti. Bolalar boshlariga qalpoq kiyib olishib, sakrashib raqs tushayotir, uning o'yin-kulgilarga qo'shilgisi kelayotgan bo'lsa-da, baribir bu serzavq davrada ola-bula qalpoqlar orasida o'zini begonaday, g'amgin his etadi. Biroq o'zi tayyorlagan qo'shiqni aytib berib, tinchgina burchakka kelib qulay o'rnashib olgach, yolg'iz o'tirgani o'ziga yoqdi. Boshida unga soxta va bema'niday tuyulgan xursandchilik oqshomi endi tuyg'ularini erkalayotgan, begona ko'zlardan sir tutishga urinayotgan ehtirosiga tasalli berayotgan yoqimli shabadaday huzur bag'ishlar, boz ustiga, ashula aytib raqsga tushayotgan bolalar orasidan, musiqa va o'yin-kulgilar ichida qizning u o'tirgan burchakka qadalib-qadalib qarayotgan mehrlil, besaranjom va ayni damda intizor nigohi yuragini to'lqinlantirib yuborardi.

Dahlizda bolalar kiyinishayapti. Bayram oqshomi tugadi. Qizaloq boshiga sholro'molini tashlab oldi va ular yonma-yon yurib chanaga borishayotganda uning issiq nafasidan chiqqan bug' ro'molga burkangan boshi uzra o'ynoqlab ko'tarilar, boshmoqlari muz qotgan yo'lga urilib beparvo taqillardi.

Bu chananing oxirgi qatnovi edi. Horigan to'riq otlar buni sezar va oydin kechaga po'pisa qilganday bo'yinlaridagi qo'ng'iroqchalarni silkib-silkib qo'yardi. Pattachi yo'l boshlovchi bilan gaplashib oldi va yashil chiroq yorug'ida ular bir-biriga bosh silkishdi. Bo'm-bo'sh o'rindiqlarda bir talay rangli pattalar sochilib yotardi. Ko'chaning na u va na bu tarafidan oyoq tovushi eshitilardi. Tungi sukunatni hech qanday tovush buzmas, faqat horigan to'riq otlar tumshuqlarini bir-biriga suykashar va qo'ng'iroqlarni silkitib qo'yishardi.

Ular, aftidan, aytilgan gapga quloq solishdi: u yuqoridagi o'rindiqqa, qiz pastdagisiga o'tirdi. Qiz bir necha bor uning o'rindig'iga chiqdi va yana o'zinikiga tushdi, gap tugaganda qiz pastga tushishni unutib, ikki marta uning yonida bir daqiqacha turib qoldi, biroq keyin tushdi. Uning yuragi suv yuzidagi po'kaksuzgichday qizning harakatlariga monand ko'tarilib-tushardi. Qizning sholro'mol tagidan qaragan ko'zlari nima deb so'zlayotganini u eshitdi va bunday so'zlarni u qachondir bir zamonlar, hayotdami yo xayoldami, eshitgan edi. U qizning o'zini chiroyli ko'rsatib, yarashib turgan ko'ylagini, sumkasi va uzun qora paypoqlarini namoyish qilib, atay yuragini o'rtayotganini payqadi, biroq undan ko'zini hech uzolmasdi. Shunda hapqirib urayotgan yuraging tub-tubidan toshib kelayotgan allaqanday ovoz: u qizning, shundoq qo'l uzatsa yetadigan tuhfasini qabul qila olarmikan, deganday bo'lardi.

Bir kuni Eylin bilan mehmonxona hovlisiga qarab turishgani yodiga tushdi: mehmonxona xodimi ustunga uzun bayroqni qo'ndirayotgan edi, kichkina ov kuchugi kungaydagi maysada u yoqdan bu yoqqa yugurib yurardi, shunda Eylin to'satdan kulib yubordi va qiya yo'lakdan pastga qarab chopib ketdi. Hozir ham u, yana o'sha paytdagiday, joyidan jilmay, harakatsiz turibdi - go'yo sahnada o'ynayotgan tomoshani kuzatayotgan xotirjam tomoshabinday.

"Uyam xohlayapti mening qo'l tegizishimni, - deb o'yladi u, - shunga men bilan birga ketayapti-da. Agar u mening o'rindig'imga chiqsa, unga yaqinlashishim oson bo'ladi: shunda bizga hech kimning ko'zi tushmaydi. Men uni quchoqlardim, o'pardim".

Biroq u bunday qilgani yo'q; keyin bo'm-bo'sh chang'ida, oyog'i ostidagi taram-taram zinaga g'ussaga botib termilib o'tirdi va qo'lidagi pattani yirtib-yirtib qiymalab tashladi.

Ertasi kuni u o'zining tepadagi bo'm-bo'sh xonasiga qamalib olib, bir necha soat stolga egilib o'tirdi. Oldida yangi pero, yangi och yashil daftar va yangi siyohdon turardi. Daftarning birinchi betini ochib, tepasiga, odatiga ko'ra, iyezuit ordeni shiorining bosh harflarini yozdi: A.M.D.G. Birinchi yo'lga yozmoqchi bo'lgan she'rining sarlavhasini bitdi: E.ga. She'rga shunday sarlavha qo'ysa ham bo'lishini bilardi, chunki lord Bayronning she'rlar to'plamida shunaqa sarlavhani ko'rgan edi. Sarlavhani yozib, tagiga to'lqinli chiziq tortib, keyin o'ylanib qoldi va beixtiyor muqovaga allambalolarni chizaboshladi. Yodiga Breda mavlud ziyofatining ertasi kuni stolda qanday o'tirgani va miyasiga o'rnashib qolgan otasining iboralarini ishlatib, Parnell haqida she'r yozishga uringani tushdi. Biroq o'shanda mavzu og'irlik qilgandi chog'i, mashqdan voz kechib, varaqni to'ldirib sinfdoshlarining ism-shariflarini yozib tashlagan edi:

Tayyorlov sinfi
Klongous Vud Kollej
Koinot

Aftidan, hozir ham uringani bilan bir ish chiqmaydigan ko'rindi, biroq o'sha bayram oqshomini eslab ko'ngli yorishdi, o'ziga ishonchi ortdi. O'shandagi ahamiyatsiz, o'tkinchi narsalar yodidan ko'tarilib ketgan, xotirasida na chang'i, na pattachi bilan izvoshchi, va na otlar qolgan, hatto o'zi bilan qiz ham xayolidan juda uzoqlashib ketganday edi. She'r faqat oqshom haqida, beholgina esayotgan shabada va o'ning bokira yog'dusi haqida so'zlardi, xolos; barglaridan ayrilib mung'ayib qolgan dovdaraxtlar tagida turishgan qahramonlarning yuraklaridagi noayon dard tarqab borar, xayrlashuv fursati yetganda esa ularning biri joyidan jilmadi va bo'sa ularni bir-biriga qovushtirdi. U she'rni bitirib, varaqning pastiga L.D.S.[3] harflarini yozib qo'ydi, keyin daftarni yopib, onasi yotadigan uyga kirdi va u yerdagi oynaga qarab o'zining yuziga uzoq tikildi.

Biroq emin-erkin kunlar ham oyoqlab borayotgan edi. Kunlarning birida otasi bir dunyo yangilik bilan kelib qoldi, ovqat ustida jag'i tinmay javradi. Stiven otasini kutib o'tirgandi, chunki bugun qo'y go'shtidan qovurma pishirilgan, otasi unga nonni qovurmaning qaylasiga bulab yegin, deb qistashini bilardi. Biroq bu safar qaylaning mazasi unga tatimadi, chunki Klongous haqida gap ochilishi bilanoq tomog'iga bir nima tiqildi.

- Uning yoqasidan olishimga sal qoldi, - dedi mister Dedalus bir gapni to'rtinchi marta takrorlab, - maydonning shundoq burchagida tutdim-da o'ziniyam.

- Ishqilib, bu ishning uddasidan chiqarmikan u? - so'radi missis Dedalus. - Men Belveder haqida gapirayapman.

- Bo'lmasa-chi, chiqqanda qandoq, - dedi mister Dedalus. - Men senga aytgandim-ku, axir, u endi iyezuitlar ordenining rahbari - provinsial.

- Menga qolsa, sira ham uni xristian birodarlar maktabiga4 bergim yo'q, - dedi missis Dedalus.

- Jin ursin o'shalarni, - baqirdi mister Dedalus.

- Allaqanday Peddiyu Mayklar bilan og'iz-burun o'pishishi yetmay turgandi! Yo'q, iyezuitlar bilan birga bo'lsin, shu yerda boshladimi o'qishni - shu yerda tugatsin. Keyin ham unga foydasi tegadi. Obro'yliroq joyga joylashtirib qo'yishga ham imkoniyat bor ularda.

- Buning ustiga eng boy tashkilot, to'g'rimi Saymon?

- Ha-da! Kunlari poshsholik bilan o'tadi! Sen ko'rganmidig ularning Klongousdagi dasturxonini? Yaratganga shukr, ularning yegani oldida, yemagani ortida.

Mister Dedalus o'zining likopchasini, qolgan ovqatni tozalab yesin deb, Stivenning oldiga surdi.

- Endi sen, Stiven, qunt bilan kirishgin, - dedi u. - Sandiraqlab yurganing yetar.

- Men unga ishonaman, u endi tirishib o'qiydi. - dedi missis Dedalus, - buning ustiga Moris ham endi u bilan birga bo'ladi.

- Voy, xudoyim, esim qursin, Morisni unutib qo'yibman-ku, - dedi mister Dedalus. - Qani, yaramas, bu yoqqa kel-chi. Kel oldimga tirrancha. Bilasanmi nima, men hali seni maktabga olib chiqaman, u yerda senga harflarni qo'shib o'qishni o'rgatishadi: n-o-nb"non. Men senga yana chiroyli dastro'molcha sotib olib beraman, burningni tozalab artib yurasan. Zo'r bo'ladi, a?

Moris kayfi chog' bo'lib, avval otasiga, keyin Stivenga qaradi. Mister Dedalus ko'zoynagini ko'ziga qistirib, ikkala o'g'liga sinchkovlik bilan ko'z tashladi. Stiven non chaynayotgan edi, otasiga qaramadi.

- Ha, darvoqe, nb"dedi nihoyat mister Dedalus, - rektor boru, o'sha-da, haligi provinsial, menga sen bilan hazrat Dolanning o'rtalarida bo'lib o'tgan mojaroni gapirib berdi. Sen deyman, bu, juda shumtaka chiqib qolding-ku, a, uyatsiz.

- Nahot u shunday degan bo'lsa, Saymon?

- Yo'q, gap boshqa yoqda! - Kuldi mister Dedalus. - Biroq u menga bu voqeani oqizmay-tomizmay gapirib berdi. Biz u bilan uyoq-buyoqdan ancha valaqlashdik... Eh-a, esim qursin! Aytgancha, bilasanmi u menga nima dedi? Ha, uning joyini kim egallaganidan xabaring bormi? Mayli, bu haqda keyin. Xullas, biz u bilan juda ochilib-sochilib laqillashdik, u mendan oshnamiz haliyam ko'zoynak taqib yuribdimi, deb so'radi, keyin o'sha mojararo tarixini erinmay gapirib berdi.

- U norozimi, Saymon?

- Norozi! Bo'lmagan gap! "O'g'il bola ekan", dedi u.

Mister Dedalus provinsialning manqalanib ohanjama bilan gapirishini kalaka qildi:

- "Endi qo'yaverasiz, hazrat Dolan ham, hammamiz qotib-qotib kuldik, desayiz, men buni ovqat ustida ularga gapirib berdim-da".

"Ehtiyot bo'ling, hazrat Dolan, - dedim men, - tag'in tirrancha Dedalus qo'llaringizni ayovsiz savalab, ta'ziringizni berib qo'ymasin!". Endi qo'yaverasiz, hazrat Dolan ham, hammamiz qotib-qotib kuldik! Ha, ha, ha!

Mister Dedalus xotiniga o'girilib qaradi va o'zining odatdagi gap ohangida ta'kidlab dedi:

- Ko'rdingmi, u yerda qanday tarbiyalashlarini! Iyezuit degani - bu suyak-suyagigacha diplomat, axir!

U yana provinsialning ovozigaga taqlid qilib, takrorladi:

- "Endi qo'yaverasiz, hazrat Dolan ham, hammamiz qotib-qotib kuldik, desayiz, men buni ovqat ustida ularga gapirib berdim-da. Ha, ha, ha!".

Kechqurun maktab spektakli boshlanishidan oldin Stiven kiyim javoni oldida, tepasiga xitoy fonuschalari chambarak qilib tortib ilingan mo'jazgina maysazorga tikilib turardi. U mehmonlarning bosh binodan zina orqali tushib kelib, teatrga kirishayotganini ko'rди. Frak kiygan mezbolar, Belveder qariyalari teatr eshigi oldida navbatchilik qilishar, mehmonlarni tavoze bilan joylarigacha boshlab borishardi. Tuyqusdan yongan fonuscha yorug'ida u ruhoniyning kulimsiragan yuzini ko'rди.

Muqaddas ne'matlar kovchegdan olib qo'yilgan, mehrob supasi va uning tevaragi xoliroq bo'lishi uchun birinchi qatordagi o'rindiqlar orqaga surilgan. Devor tagiga gantellar, irg'itib o'ynaladigan xo'qqalar va boshqa sport anjomlari qo'yilgan, og'ir toshlar burchakka uyub tashlangan, jigarrang qoplarga nari-beri tiqib joylangan son-sanoqsiz gimnastika tuffilari, kamzul va ko'ylaklar uyumlari orasidagi ustiga charm qoplangan yog'och ot esa o'z navbatini kutib turibdi, sport dasturi oxirida uni sahnaga olib chiqishadi va atrofida bellashuvchi komandalar saf tortadi.

Stiven garchi yozma ishlarda erishgan yutuqlari uchun gimnastika sinfiga sinfboshi etib saylangan bo'lsa-da, tomoshaning birinchi turida ishtirok etmadi, biroq ikkinchi turda namoyish etiladigan spektaklda o'qituvchining bosh komik roli unga topshirilgan edi.

Jussasi va sipoligini inobatga olishib, shu rolga ma'qul ko'rishgandi. U endi Belvederda ikkinchi yilni o'tkazayotgan va oxirgi sinfdan bitta oldinda o'qiyotgan edi.

Oppoq paypoq va kamzulcha kiyib olgan bolalar qatori to'pirab ruhoniylar kiyimi saqlanadigan xona orqali cherkovga yugurib o'tdi. Kiyimxonada va cherkovda hayajonlangan tarbiyachilar va o'quvchilar uymalashib turishardi. Xomsemiz tepakal serjant yog'och ot oldidagi tramlinni oyog'i bilan bosib ko'rdi. Ho'qqalar bilan o'yin ko'rsatadigan uzun paltodagi ozg'in yigit uning yonida qiziqsinib qarar, yarqiragan kumushrang ho'qqalar uning chuqur yon cho'ntaklaridan chiqib turardi.

Allaqayerdan yog'och soqqalarning qarsillab urilgan tovushi eshitildi, komanda sahnaga chiqishga tayyorlanayotgan edi, bir daqiqa o'tib, shoshib-pishayotgan tarbiyachi, g'ozlar galasini quvlayotganday, uzun to'nining etagini hovliqib silkib, ortda qolganlarga baqirib, kiyimxonadan bolalarni oldiga solib haydadi. Qadimgi dehqonlarga o'xshab kiyinib olgan bir to'da bola cherkovning ichkarisida, ba'zilari qo'lini boshi uzra ko'tarib, boshqalari o'tirgan joylarida sun'iy gullar solingan savatchalarni silkitib, raqsnini mashq qilishardi. Mehrob ravoqining qorong'i burchagida semiz kekxa xonim keng-mo'l qora ko'yilgining ichida xirmonday bo'lib tizzalab turardi. Xonim o'rnidan turganda yonida pushtirang ko'yilak kiygan, gajaklari oltin tusli yasama soch, boshiga urfdan qolgan poxol shlyapa kiygan, qoshlarini terib, yonoqlarini did bilan qirmiziga bo'yab, upa surgan xushbichim qomat ko'rindi. U ko'zga ko'ringan chog'da cherkovni taajjubli ohangdagi shivir-shivir tutib ketdi. Tarbiyachilardan biri kulimsirab, boshini sermab ishora qilib, qorong'i burchakka bordi va semiz kekxa xonimga ta'zim bajo keltirib, iltifot bilan dedi:

- Nimaydi bu - yosh go'zal ledimi yo qo'g'irchoqmi, missis Tellin?

U shunday deb shlyapaning peshayvoni tagidagi oro berib bo'yalgan tabassumli chehrani ko'rmoqchi bo'lib egilib qaradi va beixtiyor xitob qildi:

- Nahotki! Bu, axir, jajji Berti Tellen-ku!

Stiven o'zining deraza yonidagi kuzatish postida turib kekxa xonim bilan ruhoniyning kulishganini eshitdi, keyin orqa tarafdagi, yakka o'yin - poxol shlyapa raqsini ijro etadigan bolachani ko'rgani yig'ilgan o'quvchilarning qoyil qolishib shivirlashayotgani eshitildi.

Stiven toqatsizlanib keskin harakat qildi. U pardaning chetini qo'yib yubordi va o'zi tik turgan kursidan tushib, cherkovdan tashqariga chiqib ketdi.

U kollej binosi ichidan o'tib, bog'ga tutashgan shiypon tagida to'xtadi. Qarshidagi teatrdan ovozlarning bo'g'i q sasi va harbiy orkestrning mis asoblari shapillab urilayotgani eshilib turardi. Yorug'lik binoning oynavand tomidan tepaga taralar, teatr go'yo bayramona bezatilgan kemaday tig'iz joylashgan uylar orasida langar tashlagan, miltirab turgan fonuslar shodasi bilan qirg'oqqa boylab qo'yilganday. Teatrning biqinidagi eshik tuyqusdan lang ochildi - yorug'lik poyondoqday maysazor uzra to'shaldi. Kemadan kutilmaganda musiqaning gumbirlagan sadosi taraldi - valsning birinchi vaznlari chalindi, eshik yana bekildi va endi musiqqa sadosi bir qadar so'nik, mayin eshilib-oqib eshitildi. Birinchi vaznlarning ohanrabosi, ishvali mayin taronasi uning yuragida tushuntirib bo'lmaydigan sirli tuyg'ularni qo'zg'adi va ayni shu tuyg'ular uni kun bo'yi qo'nim topolmay yurib turishga, haligina esa toqatsizlanib cherkovdan chiqib ketishga majbur etgandi. Behalovat tuyg'ular to'liqinday ichidan toshib kelar va tobora avj olayotgan musiqqa toshqinida fonuschalar shodasini chuvatib, go'yo kema suzib borardi. Kutilmaganda, xuddi o'yinchoq to'pdan o'q otilganday, qarsillagan shovqin bu harakat maromini buzdi. Tomoshabinlar sahnaga chiqqan gimnastikachilarni qarsak chalib olqishlayotgan edi.

Shiyponning oxirida, ko'cha bilan tutashgan joyida qorong'ulikda qip-qizil nuqta miltilladi. O'sha tarafga qarab borayotib, u yengil yoqimli hid dumog'iga urilganini sezdi. Ikkita bola yo'lakda chekishib turishardi: u uzoqdan Kuronni ovozdin tanidi.

- Ana, olijanob Dedalus kelayotir! - xirillagan ovoz qichqirdi. - Sadoqatli do'stga salomlar bo'lsin!

Salomlashish tugar-tugamas past tovushdagi soxta kulgi eshitildi va Kuron ta'zim qildi, qo'ldagi xivichni yerga urib-urib qo'ydi.

- Ha, bu menman, - dedi Stiven to'xtab, nigohini Kurondan olib, uning yonidagi do'stiga ko'z tashlarkan.

Kuronning yo'ldoshini u birinchi bor ko'rishi edi, biroq sigaretning tutashgan cho'g'i yorug'ida uning rangpar yuzini, masxaraomuz kulgi yugurgan biroz oliftanoma turqini, palto kiygan bo'ychan qomati va boshidagi qo'nqaygan shlyapasini ilg'adi. Kuron ularni tanishtirishga urinmadi va buning o'rniga dab-durustdan dedi:

- Men hozir do'stim Uollisga aytib turgan edim: agar sen bugun kechqurun o'qituvchi rolda rektorini ko'rsatsang bormi, rosa kulgi bo'lardi-da. Juda zo'r tomosha chiqardi!

Kuron o'zicha rektorning maydakash yo'g'on ovozin kalaka qilmoqchi bo'lib uddalay olmadi, uquvsizligidan o'zi kulib, Stivenga murojaat qildi:

- O'zing bir ko'rsat, Dedalus, sen unga juda zo'r taqlid qilib qo'yasan-da. "Ma-agar che-erkovga qu-uloq osmas e-ekan, de-emak endi u bo-orib turgan maj-jusiy va yo'-o'ldan oz-zgan g'ay-yridindir".

Biroq uning gapini Uollisning xotirjam xitobi bo'ldi, uning sigareti mushtugiga tiqilib qolgan edi:

- Jin ursin bu la'nati mushtukni, - Uollis og'zidan mushtukni olarkan, ijirg'anib tirjaydi. - Doim shunday tiqilib qoladi-ya. Siz ham mushtuk bilan chekasizmi?

- Men chekmayman, - dedi Stiven.

- Ha, - dedi Kuron, - Dedalus odobli bola. U chekmaydi, xayr-ehson ulashadigan bozorlarga bormaydi, qizlarga ilakishmaydi - unisiniyam qilmaydi, bunisiniyam qilmaydi.

Stiven raqibining qizargan, jonlangan yuziga, qirg'iyning tumshug'iday qayrilgan burniga kulimsirab qarab, boshini chayqab qo'ydi. Uni doim Vinsent Kuronning ism-sharifi qushning nomidan olingani, boz ustiga, yuzi ham qushga o'xshab ketishi hayron qoldirardi. Manglayiga rangsiz soch tolalari, xuddi paxmaygan po'pakchaday, tushib turardi. Cho'tmanglayi turtib chiqqan, ingichka qirg'iy burni bir-biriga yaqin joylashgan chaqchaygan ma'nosiz ko'k ko'zlari orasidan osilib tushgan edi. Aslida raqiblar maktabdosh do'stlar edi. Ular sinfdan birga o'tirishar, cherkovda yonma-yon tiz cho'kishib ibodat qilishardi, ibodatdan so'ng nonushta ustida miriqib laqillashardi. Birinchi sinfdan o'quvchilarning zehni pastroq edi, shu bois asosan Kuron bilan Stiven sinfni boshqarishardi. Ular biror kunga javob olish yoki gunoh qilib qo'ygan bolaga avf so'rash lozim bo'lganda birgalashib rektorga borishardi.

- Ha, aytganicha, - dedi Kuron. - Men bu yerda otangni ko'rdim.

Stivenning yuzidagi tabassum yo'qoldi. Qachon va kim bo'lmasin, do'stimi yo o'qituvchisimi, otasi haqida gap ochildi deguncha, Stiven sergak tortib qolardi. U sukut saqlab, ichida hadik bilan Kuron yana nima derkin deya uning og'zini poyladi. Biroq Kuron uni tirsagi bilan ma'nodor qilib turtib, dedi:

- Sen, juda ayyor ekansan-a.

- Nega endi? - so'radi Stiven.

- Sirdan qarasang qo'y og'zidan cho'p olmaydiganday, - dedi Kuron, - aslida pixini yorganlardansan.

- Marhamat qilib ayting-chi, sirdan qaraganda nimani nazarda tutayapsiz? - xushmuomalalik bilan o'smoqchiladi Stiven.
- Darhaqiqat, marhamat qilsinlar! - dedi Kuron. - Biz o'sha qizni ko'rdik, to'g'rimi Uollis? A? Juda chiroyli qiz ekan, qurg'ur! Hamma narsani bilgisi kelaverganini aytmasanmi! "Stiven qaysi rolni o'ynarkan-a, mister Dedalus? Stiven qo'shiq aytarmikan, mister Dedalus?" Sening otajoning ham oynagining ustidan juda sirli qarab qo'ydi: harqalay, dardingdan xabari borga o'xshaydi. Xo'sh, nima bo'пти, bilgani yaxshimasmi, shaxsan men bundan hecham xijolat bo'lmasdim! Ammo juda dilbar qiz ekan, to'g'rimi Uollis?

- Ha, yomonmas, - dedi Uollis xotirjamlik bilan mushtugini yana og'zining chetiga qistirarkan.
Begona bolaning oldida aytilgan betakalluf qochiriqlardan Stivenning nafrati qo'zidi. Qizning u bilan qiziqqani-yu, u haqda so'rab-surishtirganlaridan Stiven hech qanday zavq tuymadi. Kun bo'yi uning xayolini qiz bilan Xarold-krossda chana o'rindig'ida turib xayrlashganlari, o'sha oqshomgi hayajonli kechinmalar, keyin uyga borib yozgan she'ri haqidagi o'ylar band etdi. Kun bo'yi u qiz bilan yana uchrashishini ko'z oldiga keltirishga urindi, chunki uning bugun spektaklga kelishini bilardi. Xuddi o'sha oqshomdagiday bezovtalik uning yuragini siqar, biroq bu azob endi she'rga ko'chib, ko'ksidan chiqib keta qolmasdi. "Bugun" bilan "o'sha payt" orasida ikki yil yotibdi, ko'p narsaga aqli yetib ulgurgan shu ikki yil uni bugungiday huzurli imkoniyatdan ajratib qo'ygan edi va bugun kun bo'yi vujudini o'rta huzurbaxsh iztirob asov to'lqinday chayqalib-toshgan, goh tushib, gohida quturib va yana ortga chekinib, so'ngra tag'in shitob bilan ko'tarilib turdiki, u nihoyat, butkul holdan toyishigacha borib yetgan bir paytda tarbiyachining qo'g'irchoqday yasatilib, grim qilingan bolakayga otgan qochiriqli gap-so'zlari uni muvozanatdan chiqib ketishgab b"tuyqusdan keskin harakat qilishiga sabab bo'ldi.

- Kel, yaxshisi, aybingni bo'yningga olib, tavba qil, - dedi Kuron. - Biz seni bu safar qo'lga tushirdik. Endi o'zingni har yoqqa tashlab, avliyoga o'xshatib ko'rsatishing befoyda, hammasi o'ziday ravshan!

U beixtiyor takabburlik bilan hiringlab kulib yubordi va egilib Stivenning oyog'iga xivich bilan koyigannamo sekin urib qo'ydi. Stivenni endi nafrat tuyg'usi tark etgandi. U endi o'zini na mamnun va na g'amgin his etar, shunchaki hazil-huzul bilan vaziyatdan chiqib ketishga chog'langan edi. U haligina betakalluf tuyulgan qochiriqlarga endi xafa bo'lmas, qalbida kechayotgan sohir tuyg'ularga hech qanday gap-so'z daxl qilolmasligini bilar va shu boisdan raqibining ko'ngliga qarab, maynavozchiligiga soxta kulgi bilan javob berardi.

- Tavba qil, - deya takrorladi Kuron xivich bilan uning oyog'iga urib.

Hazillashib urgan bo'lsa-da, bu zarba oldingisidan kuchliroq edi. Stiven yengil, biroq jizillatib o'tgan zarbani tuydi va itoatkorona bosh egib, do'sti boshlagan o'yinni davom ettirishga mayl sezayotganday "Sonfiteor"ni o'qishga tutindi. Bu sahna yaxshigina yakun topdi, Kuron bilan Uollis bu tahqirromuz tazarrudan zavqlanib, takabburlaracha kulishdi.

Stiven duo so'zlarini beixtiyor aytib yubordi, so'zlarning o'zi go'yo uning og'zidan uchib chiqayotganday edi va shu lahzada uning yodida boshidan kechgan boshqa bir shunday holat jonlandi; o'sha holat, u Kuronning tirjayib turgan og'zining ikki chetidagi ajinlarga ko'zi tushganda xuddi sehru jodu ta'sirida namoyon bo'lganday xotirasidan sizib chiqdi. U oyog'iga tushayotgan o'sha tanish zarblarni his etdi va ayni damda tanbeh berib aytilgan o'sha tanish so'zni ham eshitdi:

- Tavba qil!

* * *

Bu voqea birinchi semestrning oxirida, u kollejga kelgan yili sodir bo'ldi. Uning hissiyotga beriluvchan mijozi hanuz g'arib, omonat hayotning ayovsiz turtkilaridan azob chekardi. Dublinning zerikarli manzaralarini ko'raverib siqilib ketgan yuragini esa hali ham g'ashlik va sarosima tark etmagan edi. Ikki yil u orzular og'ushida yashadi, endi esa mutlaqo notanish dunyoga tushib qolganday, bu yerdagi har bir hodisa, har qanday yangi odam uning izzat-nafsiga juda qattiq tegib ketar, bu hol uni goh umidsizlikka tushirsa, gohida maftun etar yoki aksincha, maftun etib va umidsizlikka tushirib, doimo qalbida bezovtalik, qayg'uli o'y-xayollarni qo'zg'ar edi. U o'zining bo'sh vaqtini asosan isyonkor yozuvchilarning asarlarini o'qib o'tkazardi, ularning zaharxandaligi va g'azabga qorishgan nutqlari ko'ngliga og'ir botar, o'zicha ijodga berilib, hali g'o'r bo'lsa-da, yozgan insholariga ko'nglidagini to'kmaguncha, fikr-o'ylariga g'ulg'ula solib, tinchlik bermasdi.

Insho uning uchun o'quv haftasining eng muhim mashg'uloti edi va seshanba kuni uylaridan maktabga kelayotib u o'zidan oldinda borayotgan biror-bir odamni mo'ljalga olar, shu odamdan ma'lum joyga yetganda o'zib ketishga yoki qadamlarining yo'lakka yotqizilgan har bir plitaga to'g'ri tushishiga urinar va shu tariqa o'zining inshodan birinchi bo'lish-bo'lmasligini tasmollar edi. Mana seshanba ham keldi va kutilmaganda omadli kunlar yakun topdi. Mister Teyt, ingliz tili muallimi, unga barmog'ini o'qalib, dona-dona qilib dedi:

- Mana bu o'quvchi inshosida bid'atni yozibdi.

Jimlik cho'kdi. Mister Teyt jimlikni buzmay, qo'li bilan tizzalarining orasini qashladi, sinfda uning ohorlanib qotirilgan qaytarma yengi va yoqasining mayin qisirlagani eshitilardi, xolos. Stiven boshini ko'tarmadi. Ko'klamning bulutli kuni edi, uning ko'zlari hali ham zaif, og'rib turardi. U tamom bo'ldim deb o'yladi, o'zini fosh etilganday his etdi, aqlim ham notavon mening, oilamiz ham nochor, degan xayolga bordi va bo'yniga yopishib turgan g'adir-budir qaytarma yoqasining dag'al girdini his qildi.

Mister Teytning baland tovushdagi qisqa kulgisi sinfdagi og'ir jimlikni yumshatdi.

- Balki buni o'zingiz bilmagandirsiz? - dedi u.

- Qaysini? - so'radi Stiven.

Mister Teyt tizzalarining orasidan qo'lini olib, yozma ishni ochdi.

- Mana bu joyini aytayapman. Yaratganga va ruhga doir joyini. Xo'-sh-sh! A-ha! Mana... "Qachondir yaqinlashishga imkon yo'qligidan". Bu shakkoklik.

- Men "Qachondir erishishga imkoniyat yo'qligidan", demoqchi edim, - ming'irladi Stiven.

Bu bilan u yon bergan edi va mister Teyt tinchlanib, daftarni yopib, unga uzatarkan, dedi:

- Ha! Darvoqe! "Qachondir erishishga". Bu boshqa gap.

Biroq sinfdagilar ha deganda tinchishmadi. Garchi darsdan so'ng hech kim unga bu haqda og'iz ochmagan bo'lsa-da, u tevaragida davom etayotgan ig'vogarliklarni his etdi.

Og'zaki tanbehdan so'ng, oradan bir necha kun o'tib, xatni qutiga tashlash uchun Dramkondr-roud bo'ylab ketayotganida u tuyqusdan kimningdir chaqirganini eshitdi:

- To'xta!

U orqasiga o'girildi va sham qorong'usida o'zi tomon yaqinlashib kelayotgan uchta sinfdoshini ko'rdi. Uni chaqirgan Kuron edi, u

ikki do'stining o'rtasida dadil qadam tashlab, qo'lidagi xivich bilan havoni qadamiga mos tarzda shuvillatib kesib kelardi. Oshnasi Boland u bilan baqamti qadam tashlar, og'zi qulog'ida, Nesh esa tez yurayotganidan hansirab, xumday sariq boshini salanglatib orqaroqda pildirab kelardi.

Bolalar Klonliff-roud tomonga burilgan joyda kitoblar va yozuvchilardan gap ochildi, kim qanaqa kitob o'qiganiyu, uylaridagi shkaflarda ota-onalarining qancha kitobi borligini aytishib maqtanishga tushib ketishdi. Stiven ularning gaplarini eshitib hayron qoldi, chunki Boland sinfda eng zehni past bola hisoblansa, Nesh uchiga chiqqan yalqov edi. Shunga qaramay, sevimli yozuvchi haqida gap ochilishi bilanoq Nesh tap tortmay eng ulug' yozuvchi B"bu kapitan Merriyet, deya bilag'onlik qildi.

- Bekor gap! - dedi Kuron. - Dedalusdan so'ra-chi. Seningcha, eng buyuk yozuvchi kim, Dedalus? A?

Stiven, uning piching qilayotganini sezib so'radi:

- Nosirlardanmi?

- Ha.

- Menimcha, Nyumen.

- Kardinal Nyumenmi?

- Ha, - dedi Stiven.

Nesh Stivenga o'grilib savol berarkan, uning sepkil bosgan yuzi kulgidan oshqovoqday yoyilib ketdi:

- O'sha kardinal Nyumen senga yoqadimi?

- Ko'pchilik Nyumenning uslubini juda zo'r deb hisoblaydi, - tushuntira ketdi Kuron ikki oshnasiga, - to'g'ri-yu, lekin u shoir emas-da.

- Eng zo'r shoir kim, Kuron? - so'radi Boland.

- Albatta, lord Tennison-da, - javob qildi Kuron.

- To'g'ri, lord Tennison, - dedi Nesh, - bizning uyimizda uning bir jildli to'la she'rlar to'plami bor.

Shu gapdan so'ng Stivenning sabri chidamadi, gapirmayman, deb o'ziga bergan va'dasini buzdi:

- Tennison B"shoir? Qofiyaboz-ku u?

- Nima deyapsan! - dedi Kuron, - Tennisonning buyuk shoirligini hamma biladi.

- Sening-cha, kim buyuk shoir? - so'radi Boland yonidagi oshnasini yelkasi bilan turtib.

- Bayron B"buyuk shoir, - javob berdi Stiven.

Avval Kuron, keyin oshnalari uni masxaralab kulib yuborishdi.

- Nega kulayapsizlar? - so'radi Stiven.

- Sening ustingdan kulayapmiz, - dedi Kuron. - Bayron B"buyuk shoir emish? Chalasavod nodonlargina uni shoir deyishi mumkin.

- Ol-a! Ana senga zo'r shoir! - dedi Boland.

- Sen, yaxshisi, tilingni tiysang bo'lardi, - dedi Stiven unga dadil burilib qarab. - Sening poyeziya haqida bor bilganing hovlidagi devorga yozganingdan ma'lum-ku? Bema'ni qilig'ing uchun ta'ziringni berishmoqchi bo'lishdi-ku.

Haqiqatan ham Boland hovlining devoriga kollejdani uyiga pastdakkinani tota otda boradigan bir bola haqidagi anchayin misralarni yozgan, deb gapirishardi:

Tayson otda Quddusga ketdi,

Yiqilib yo'lda lat yedi keti.

Stivenning bu hujumidan sheriklarining uni uchgan bo'lsa-da, Kuron tiyilmadi:

- Nima bo'lgandayam baribir Bayron shakkok bo'lgan, buning ustiga axloqi buzuq bo'lgan.

- Uning qanday bo'lgani bilan mening ishim yo'q, - qo'rs javob qildi Stiven.

- Uning shakkok bo'lgani yoki bo'lmagani senga baribirmi? - gapga qo'shildi Nesh.

- Sen bu haqda nimaniyam bilarding? - qichqirdi Stiven. - Umingda darslikdagi bitta-yarim misoldan boshqa baloniyam o'qimagansan-ku, sen ham, Boland xuddi shunday.

- Men bilaman, Bayron tuturiqsiz odam bo'lgan, - dedi Boland.

- Qani, ushlanglar bu shakkokni, - qichqirdi Kuron.

Shu damdayoq Stivenni ushlab olishdi.

- Teyt behudaga dumingni buramadi sening, inshoda shakkoklikka yo'l qo'yganing uchun shunday qildi, - dedi Kuron.

- Ertagayoq unga hammasini aytib beraman, - tahdid qildi Boland.

- Sen-a? - dedi Stiven. - Og'zingni ochishga qo'rqasan-u!

- Qo'rqamanmi?

- Ha, qo'rqasan!

- Kerilma! - qichqirdi Kuron Stivenning oyog'iga xivich bilan urib.

Bu Stivenga tashlanishga shay turganlarga bir ishora edi. Nesh uning ikkala qo'lini orqasiga qayirib ushlab turdi, Boland esa ariq chetidagi qurib qolgan karamning uzun tomirini sug'urib oldi. Stiven xivich bilan tayoqday qattiq karam tomirining zarbalaridan qutilmoqchi bo'lib, jon-jahdi bilan siltanib yulqinmasin, ilojisiz edi, uni tikonli sim o'ralgan to'siqqa qisib olishgandi.

- Bo'yingga ol, sening Bayroning bir pulga qimmat.

- Yo'q.

- Bo'yingga ol.

- Yo'q.

- Bo'yingga ol.

- Yo'q. Yo'q.

Nihoyat, qattiq olishuvlardan so'ng u bir amallab qutilib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Unga azob bergan bolalar xoxolashib, uni masxaralashib Jonsis-roud tomon ketishdi, u yoshlangan ko'zlarini uqalab, hech nimani ko'rmay, turtinib-surtinib mushtini mahkam siqqancha alamzada kayfiyatda alahsirab borardi.

Hozir ham, o'zini ma'qullab hiringlab turgan bolalar oldida tavba-tazarru duosini aytib turibdi-yu, xotirasida o'sha shafqatsiz olishuv manzarasi aniq-tiniq jonlandi va u ajablaniib o'ziga-o'zi: menga o'shanda azob berishgan bu bolalarga nega ko'nglimda zig'ircha nafrat yo'q, deb savol berdi. U hammasini juda yaxshi eslaydi, ularning qo'rqoqligini ham, rahmsizligini ham, biroq negadir xotirasidagi o'sha voqea endi g'azabini qo'zg'amasdi. O'qigan kitoblaridagi iztirobga to'lib-toshgan oh-vohlar-u qahr-

g'azablarning unga soxta tuyulgani shundandir, balki. Hatto o'sha kuni, kech kirib qorong'u tushgan mahalda, Jonsis-roud bo'ylab turtinib-surtinib alamzada kayfiyatda alahsirab uylariga ketayotgan paytda ham allaqanday kuch vujudini qamrab olgan nafrat tuyg'usini, hil-hil pishgan shaftolining po'stini osongina shilganday, sidirib olayotganini his etgandi.

U hanuz shiypon tagida, ikki oshnasining biri qo'yib, biri olayotgan safsatarini, qolaversa, teatrdan kelayotgan gulduros qarsaklar tovushini beparvo eshitib turibdi. Qiz bu paytda teatrdan, begonalar orasida, balki uning sahnaga chiqishini poylab o'tirgandir. U qizni ko'z oldiga keltirishga urinib ko'rdi, biroq buning iloji bo'lmadi. Faqat boshiga o'ralgan sholro'molni eslay oldi, xolos, bu qizlar qishda kiyadigan bog'ichli bosh kiyimiga o'xshardi; qizning tim qora ko'zlari esa g'oyibdan uni o'ziga chorlar va aqlini shoshirardi. U o'zidan: men uni o'ylaganimday, u ham men haqimda o'ylarmikan, deb so'radi. Keyin qorong'ida yonidagilarga sezdirmay bir qo'lining barmoqlari uchini ikkinchi qo'lining kaftiga tegizdi va bilinar-bilinmas tarzda ohista siladi. Biroq qizning barmoqlari muloyim va xiyla dadil tekkan edi va o'shandagi holat xotirasida jonlanib, vujudi, to'lqin ko'z ilg'amas tebranganiday, bir zum chayqalib ketdi.

Bir bola to'siq bo'ylab shiypon tagidan ular tomonga chopib kelardi. Bolaning nafasi tiqilib, halloslab qoldi.

- Ey, Dedalus, - qichqirdi u, - Doyl jinni bo'lib qoldi-ku! Yugur tezroq, tez bo'l, kiyin! Sahnaga! Tezroq!

- Boradi, - dedi Kuron kalondimog'lik bilan. - Qachon lozim ko'rsa, shunda boradi.

Bola o'g'rilib Kuronga qaradi va takrorladi:

- Tez bo'l! Doylning jahli chiqayapti.

- Mening salomimni yetkazib qo'y Doylga, men tupirdim unga, - javob qildi Kuron.

- Mayli, borishim kerakka o'xshaydi, - dedi Stiven, bunaqa oriyat talashish unga begona edi.

- Sening o'rningda bo'lsam bormasdim, - dedi Kuron, - hech ham bormasdim, xudo haqqi! Yuqori sinf o'quvchilarigayam shunaqa muomala qiladimi? Nima bo'пти, jahli chiqsa chiqar! Uning ahmoqona piyesasida o'ynayotganingga shukr qilsin.

Ko'pgina o'rtoqlariga xos bo'lgan bunday manmanlikni Stiven yaqindan beri raqibida ham payqagan edi, biroq bu uning fe'l-atvoridagi vazmin itoatkorlik odatiga zig'ircha ta'sir qilmadi. U o'zboshimchalikning nafiga ishonmas, bunaqa do'stlikning samimiyligiga shubha bilan qarar va buni balog'at yoshining tiyiqsiz beboshliklari, deb bilardi. Hozir qo'zg'algan oriyat masalasi va shunga aloqador boshqa gaplar unga ahamiyatsiz tuyuldi. O'zicha xayol surib, uchqur orzu-o'ylar og'ushida parvoz qilgan lahzalarda kutilmaganda xayoli buzilar, beixtiyor shirin orzularidan voz kechar, shunda qulog'iga o'tirib qolgan otasining va muallimlarining ovozlari qayta jaranglaganday bo'lardi, ular Stivenni avval boshda jentelmen va e'tiqodli katolik bo'lishga da'vat etishardi. Endi bu ovozlarga ma'nisiz tuyuladi.

Kollejda sport gimnastikasi sinfi ochilganda u boshqa bir ovozni eshitdi, endi uni kuchli, jasur va sog'lom bo'lishga da'vat etishardi; kollejda milliy tiklanish uchun kurash sharpalari oralay boshlagach esa, yana bir ovoz uni vatanga sodiq bo'lishga, ona tilini, milliy urf-odatlarini tirlitirishga yordam berishga unday boshladi. Kundalik turmush, oila tashvishlari bir kun kelib uni ter to'kib, o'z mehnati bilan otasining qo'ldan ketgan mavqeini tiklashga majbur etishini bilar va bu hozir uni yaxshi do'st bo'lishga, jo'ralarining yonini olishga yoki ularni jazodan asrab qolish va qanday yo'l bilan bo'lmasin, bir kun hordiq chiqarish uchun sinfga ruxsat olib berishni so'rayotgan tengqurlarining ovozig'a o'xshab ketardi. Bu ma'nisiz ovozlarning qorishgan g'ala-g'ovuri uni qat'iyatsiz qilib qo'yar, bemalol xayol surishiga yo'l qo'ymasdi. U ora-sira bu ovozlarga ham quloq tutar, biroq ulardan uzoqlashganda, ular yetib bormaydigan joyda yolg'iz o'zi qolganida yoki xayolan yaqinlari orasida bo'lganida o'zini baxtiyor his etardi.

Ruhoniylar kiyimxonasida yuzlari qip-qizil iyezuit bilan keksaroq bir kishi, ikkalasi ham ohori ketib qolgan ko'k yaktakda, upa-elik solingan qutini titkilashardi. Allaqachon grim qilib olishgan o'g'il bolalar u yoqdan bu yoqqa salanglab yurishibdi, ba'zilari garangsib bir joyda to'pirlashib turishibdi, bo'yalgan yuzlarini barmoqlarining uchi bilan ehtiyot bo'lib ushlab qo'yishadi. Kollejda mehmon bo'lib turgan yosh iyezuit, qo'llarini chuqur yon cho'ntaklariga tiqib, kiyimxonaning o'rtasida turibdi, u oyog'ining uchida ko'tarilib, tushib, bir maromda tebranadi. Uning ipakday mayin malla jingalak sochli kichkina boshi va archilgan tuxumday tekis qirtishlangan iyaklari egnidagi nihoyatda ozoda ruhoniycha libosi va yaltiratib tozalangan botinkasiga quyub qo'yganday yarashib tushgan.

Tebranib turgan qomatga qarab turib, ruhoni yigitning istehzoli kulimsirashi sababini bilgisi kelayotgan Stiven otasining uni Klougousga jo'natayotib, iyezuitni hamisha did bilan kiyina olishidan bilsa bo'ladi, deganini esladi. Shu payt xayolidan otamning fe'l-atvorida kulimsirab turgan, po'rim kiyingan shu ruhoniycha xos nimadir bor, degan fikr kechdi va tuyusdan muqaddas martaba, qolaversa, ruhoniylar kiyimxonasining o'zi ham tahqirlanayotganini his etdi, chunki bu osuda maskanga tuturuqsiz gap-so'zlar, hazil-huzullar shovqini bostirib kirayotgan, havoni esa upa-elik va gaz chiroqlarning badbo'y hidi bulg'ayotgan edi.

Ko'k xalatlilik kexsa kishi manglayiga ajinlar tortib, og'zining ikki chetiga ko'k va qora bo'yoqlarda soya solguncha Stiven sahnada baland ovoz bilan aniq-ravshan gapirish kerakligini uqtirayotgan do'mboqqina yosh iyezuitning ovozi parisonxotir tingladi.

Qulog'iga orkestrning "Liliya Kilarni"ni chalayotgani eshitildi va hozir, bir necha soniyadan so'ng parda ochiladi, deb o'yladi. U sahnaga chiqishdan cho'chimayotganini sezib turardi, biroq ijro etadigan roli o'zini kamsitadiganday tuyuldi. O'zi aytadigan ba'zi kinoyali gaplarni eslaganda bo'yoq surilgan yonoqlariga qon yugurdi. U qizning zaldan jiddiy, maftunkor ko'zlarini tikib qarab turganini tasavvur qildi va shu lahzadayoq ko'nglidagi shubha-gumonlar yo'qoldi, o'ziga ishonchi ortdi. Go'yo g'oyibdan xushkayfiyat in'om etilganday edi - u tuyusdan go'daklarga xos sho'x-shaddodlikning yuqumli ta'siriga tushdi va bu kayfiyat tabiatidagi ezgin umidsizlikni butkul tarqatib yubordi. Bir soniya ichida u bolalar baxtiyorlik og'ushida, go'yo qayta tug'ilganday tamom o'zgardiqoldi: spektaklning boshqa ishtirokchilari bilan sahna ortida turib, ularga qo'shilib, ikki baqaloq ruhoniychaning tob tashlab qiyshayib qolgan sahna pardasini jon-jahdlari bilan surib ochishayotganini ko'rib qiyqirib kuldi.

Oradan sanoqli daqiqalar o'tib, u o'zini sahnada - charaqlagan chiroqlar yorug'i va nursiz, xira bezaklar orasida ko'rdi, hayhotday bo'shliqdan behisob chehralar unga tikilib turishardi. Mashq payti unga qovushmaganday, sun'iy tuyulgan piyesa sahnada favqulodda jonli chiqayotganini anglab u ajablendi. Spektakl go'yo o'zidan-o'zi ochilib, avj olib qizir, u va uning sheriklari esa o'zlarining kinoyali gap-so'zlari bilangina tomoshaga ko'maklashib turishardi. Tomosha tugab, parda yopilganda u bo'shliq qarsaklar sadosidan gumburlaganini eshitdi va yon tarafdagi oraliqdan qarab, behisob chehralardan tarkib topgan ulkan yaxlit to'da bir necha guruhlarga bo'linib, qizg'in muhokamaga kirishib ketganini ko'rdi.

U sahnadan chaqqon tushib, kiyimlarini almashtirdi va cherkovdan bog' tarafdagi chiqdi. Endi, tomosha tugagandan so'ng, uning ko'ngli battar betoqat bo'lib, yangi sarguzashtni qo'msar edi. Ayni shuning ketidan tushganday, u chopqillab ketdi. Teatrning barcha eshiklari lang ochiq, zal allaqachon bo'shab qolgan edi. Unga kema langarining zanjirini eslatgan sim arqonda bir necha fonus tungi shamolda tebranib g'ira-shira nur sochardi. U hovliqib, qandaydir o'ljani boy beradiganday, yugurgancha boqqa

chiqiladigan ayvonga bordi va mehmonlarga ta'zim bajo etib, qo'l siqishib xayrlashayotgan ikki iyezuit yonidan o'tib, boqqa chiqayotgan to'da orasiga o'zini urdi. Upaga belangan boshiga birovlarining kulib, birovlarining mazax qilib yo ajablanib qarab qolayotganini ilg'ab-ilg'amay hovliqqancha oldinga talpinar, o'zini juda shoshayotganga o'xshab ko'rsatardi.

Tashqarida u o'zining oila a'zolarini ko'rdi, ular fonus tagida uni kutib turishardi. Bir qarashdayoq bu guruhdagilar o'ziga tegishli odamlar ekanini payqadi va zinapoyadan pastga chopib tushib ketdi.

- Men bir ish bilan Jorjis-stritga o'tishim kerak. - dedi u chopib borayotib otasiga. - Uygacha kechroq qaytaman.

U otasining javobini kutmay, yugurgancha yo'lni kesib o'tdi-yu, tepalikdan pastga enib ketdi. Qayoqqa bunchalik shoshayotganini o'zi ham bilmasdi. G'urur, umid va ishonch, misoli oyoq ostida toptalgan o't-o'landay, o'zining o'tkir ifori bilan uning yuragini o'rtayotgan, aql-hushini o'g'irlagan edi. U qirdan quyiga yelday uchib borar, kutilmaganda dardu dunyosini o'rtab yuborgan kamsitilgan g'urur, toptalgan umid va aldangan ishonch og'usi uni tamom gangitib qo'ygan edi. Bu og'u burqirab uning ko'zlari oldida pag'a-pag'a bo'lib tepaga o'rladi va asta-sekin, havo yana tiniqlashib soviy boshlagach, nihoyat, yo'qoldi.

Hanuz ko'z oldini tuman to'sib turardi, biroq endi ko'zlari boyagiday yonmasdi. Bot-bot g'azab va umidsizlikdan voz kechishni buyuradigan ichki bir da'vatga o'xshash allaqanday kuch uni to'xtashga majbur qildi. U endi harakat qilmas, qarshisidagi o'likxonaning qoramtir tomiga va qayroqtosh yotqizilgan qorong'i tor ko'chaga qarab turardi. U uyining devoridagi lavhada tor ko'chaning "Lots" degan nomini o'qidi va og'ir achchiq hiddan og'rinib nafas oldi.

"Otning siydigi bilan chirigan pichan, - deb o'yladi u. - Undan nafas olish foydali. Yuragimni tinchlantiradi. Mana, endi yuragim ancha xotirjam. Ortga qaytaman".

* * *

Stiven tag'in otasi bilan Kings-brish vokzalida poyezdda o'tiribdi. Ular kechki poyezd bilan Korkka ketishayotir. Parovoz pishqirib, bug' chiqarib, poyezd vokzal sahnidan jilganda Stiven bir necha yil burun, Klongousga yo'l olishganda ko'rganlaridan bolalarcha ajablanganini va maktabdagi birinchi kunni butun tafsilotlari bilan esladi. Biroq hozir u hecham ajablanmayotgan edi. U bir tekis suzib o'tayotgan dov-dalaga, har to'rt soniyada lipillab o'tayotgan sim yog'ochlarga, xuddi asov otning tuyog'idan sachragan uchqunday, qorong'ulikda yalt etib va shu zumda ortda qolib kelayotgan kichik, xira yorug' bekatlar, ularning sahnida qotib turgan navbatchilarga qarab ketayotir.

U otasining Kork haqidagi, yoshligi haqidagi hikoyalari gap qo'shmay, beparvo eshitdi: otasi vafot etgan biror-bir birodari yoki bu gal safarga chiqishga nima majbur etgani haqida gap boshladi deguncha chuqur xo'rsinib qo'yar yoki beixtiyor qo'lini idishga cho'zardi. Stiven jim o'tirib tinglar, biroq ko'nglida hamdardlik tuymasdi. Otasi eslagan marhumlar orasida u Charlz tog'adan boshqasini tanimas, endi uning qiyofasi ham xotirasidan o'cha boshlagan edi. U otasining mol-mulki auksiondan sotilishini bilardi, otasi o'zining xonavayron bo'layotgani sababini bu shafqatsiz dunyoning orzu-umidlariga tajovuzidan, deb qarardi.

Meriborda u uxlab qoldi. Ko'zini ochganda Melloudan o'tib ketishgandi: otasi yon tomondagi o'rindiqqa cho'zilib uxlab yotardi. Sovuq sahar yog'dusi hosilsiz dalalarni, daraxtlar, uyquga cho'mgan uylar tomini g'ira-shira yoritdi. Jim-jit qishloqlarga qarab, otasining chuqur nafas olib, uyqusida alahsirayotganini eshitib borarkan, g'aflat uyqusida yotgan dunyo qarshisida uning o'y-xayollarini vahima bosdi. Tevaragida chala o'likday dong qotgan odamlar yuragiga g'ulg'ula soldi, ulardan o'ziga biror-bir ziyon-zahmat yetadiganday tuyuldi, va tezroq tong otishini o'tinib so'rab, duo o'qiy boshladi. Uning tangriga va avliyolarga yukinmay, shunchaki o'qigan duolari eshik tirqishidan esayotgan sahargi salqin shamolda qaltiroq bilan boshlanib va poyezdning bir maromdagi taq-tuqiga monand, allaqanday qovushmagan so'zlarining sarosimali pichir-pichiri bilan yakun topdi; qaqqaygan, har to'rt soniyada lipillab, shovqinga basma-bas o'tib turgan telegraf yog'ochlari go'yo harakat maromini ta'kidlayotganday edi. Bu asov musiqa uning yuragidagi vahimani biroz bosganday bo'ldi va u deraza panjarasiga suyanib, tag'in ko'zini yumdi. Poyezd shovqin-suron solib Korkka kirib kelganida hali juda erta edi. "Viktoriya" mehmonxonasida Stiven yana uxlagani yotdi. Charaqlagan quyoshning iliq nurlari derazani qopladi. Stiven ko'chada hayot qaynay boshlaganini eshitdi. Otasi qo'l yuviladigan joyda tik turib, sochiga, yuziga va mo'yloviga sinchiklab qarayotir, u suv solingan ko'za ustidan bo'ynini cho'zib, o'zini yaxshiroq ko'rmoqchi bo'lib boshini burdi. Ayni paytda ohista, har bir so'zni ohangga solib, cho'zib xirgoyi qildi:

Yoshligimda g'o'rlik qilib,
Uylandim-qo'ydim.
Mana endi, jonginam,
Baridan to'ydim.
Ro'zg'or degan g'or ekan,
Bilibman qaydan.
Baxtimni izlaymikan
Men Amriqodan.
Biroq vaqt oqar suvday,
Suluv qariydi.
Misli tonggi shudringday
Nurdan ariydi.

Deraza ortidagi serquyosh shahar shovqini va otasining hazil aralash hazin qo'shiqqa turli pardalarda sayqal berayotgan ovozi Stivenning ko'nglidagi tungi vahimalar asoratini butkul haydadi. U o'rnidan irg'ib turib, kiyina boshladi va xirgoyi tugagach, otasiga dedi:

- Bu sizlarning "Beri keling, er irland-lar"ingizdan ko'ra yaxshi.

- Sen shunday deb o'ylaysanmi, - dedi mister Dedalus.

- Menga bu qo'shiq yoqadi, - dedi Stiven.

- Ha, bu ajoyib qadimgi qo'shiq, - dedi mister Dedalus mo'ylovining uchini burab. - Eh, sen buni Mik-Leysi aytganini eshitarmiding! Sho'rlik Mik Leysi! U har bir pardani qanaqa o'ynatib aytardi, yo'q men bunday aytolmayman. Ha, endi "Beri keling, er irlandlar"ni u bir aytib o'tdi-da, eshitib turib sel bo'lib ketarding.

Mister Dedalus nonushtaga jigar qiymasidan tayyorlangan ovqat buyurdi va ovqat ustida xizmatchidan shahardagi yangiliklar haqida so'rab-surishtirdi, ularning gaplari chalkashib, bir-birlarini tushunishlari qiyin bo'ldi, chunki xizmatchi hozirgi paytdagi

xo'jayinini nazarda tutsa, mister Dedalus uning otasini yoki bobosini nazarda tutib gapirardi.

- Harqalay, Qirollik kolleji joyidami ishqilib, - ta'kidladi mister Dedalus. - O'g'ilchamga bir ko'rsatay degandim-da.

Mardayk ko'chasida daraxtlar qiyg'os gullagan edi. Ular kollej darvozasidan kirishdi va so'zamol qorovul ularni chog'roq hovlidan olib o'tib, bino tomon boshladi. Biroq ular har o'n-o'n besh qadamda shag'al to'shalgan yo'lakda to'xtab qolishar va otasi bilan qorovul o'rtasida shunday savol-javob bo'lardi:

- Nahotki! Bechora Meshqorin qazo qildimi?

- Ha, ser, qazo qildi.

Ular to'xtab qolishganda Stiven betoqat bo'lib, gaplari qachon tugar ekan, deb deysinib ketib turardi. Biroq hovlichadan o'tguncha ular shu alpozda uzoq sudralishdi, bundan uning betoqatligi battar oshib, g'azabi keldi. U hayron bo'lardi, nahotki, oq-qorani baloday ajrata oladigan, har kimga ham ishonavremaydigan otasi shu yaltoqi qorovulning tilyog'lamaligiga aldanib o'tirsa: ertalab eshitganida zavqi kelgan janub shevasidagi alomat so'zlar ham endi uning asabini qo'zg'ay boshlagandi.

Ular anatomiya teatriga kirishdi, mister Dedalus qorovul ko'magida ism-sharifining bosh harflari o'yib yozilgan partani qidira boshladi. Stiven orqaroqda, bu yerdagi tushkin, o'lik sukunat va biqiq muhit havosidan ko'ngli g'ashlanib, zo'rg'a oyog'ini sudrab bosardi. Partalardan birida u siyoh sachragan taxtaning bir necha joyiga o'yib yozilgan Foyetus so'zini o'qidi. Bu kutilmagan yozuvdan uning a'zoyi-badani qizib ketdi: yonida talabalar qarab turganday tuyulib, noqulay ahvolga tushib o'zini ularning nigohidan panaroqqa olgisi keldi. Otasining hikoyalarini eshitib, hech tasavvur qila olmagan o'sha hayot manzaralari to'yusdan partaga o'yib yozilgan shu so'z ta'sirida ko'z oldida paydo bo'ldi. Chorpahil mo'ylovli talaba qalamtaroshda hafসা bilan harflarni biri-ketin o'yib yozardi. Boshqa talabalar uning yonida tik turib yoki o'tirib qarab, qalamtarosh tagidan chiqayotgan harflarni qiyqirib kulib kuzatishayotir. Talabalardan biri uning tirsasiga turtidi. Chorpahil talaba qovog'ini uyub o'girilib qaradi; uning egnida keng bo'zrang ko'ylak, oyog'ida to'q jigarrang botinka bor edi.

Stiveni chaqirishdi. U ko'ziga ko'ringan ro'yodan qochib qutilmoqchiday, auditoriya zinapoyalaridan yugurib pastga tushdi va bo'g'riqib ketgan yuzini yashirish uchun partaga egilib, otasining ism-familiyasining bosh harflariga qaradi.

Biroq o'sha so'z va uning ta'sirida paydo bo'lgan ro'yo Stiven orqaga qaytib, hovlidan o'tib kollej darvozasiga tomon borayotganda ham ko'z o'ngida jimirlab turardi. U shu kungacha botinidagi jirkanch bir illatday tuyulgan narsaning allaqanday alomatlariga hayotda duch kelib qolganidan tamom garangsib qolgandi. Uni mudom ta'qib etib yurgan qo'rqinchli sharpalar xayolida qayta jonlanadi, sharpalar Stivenning xayoliga kelgan so'zlardan qutilmaganda vajohatli tus oldi. Garchi ular qayerdan b'ḥ"qabih arvoxlarning qay bir makonidan qaynab chiqayapti, deb hayron qolayotgan bo'lsa-da, Stiven tezda ularning ta'siriga tushdi va aql-hushini egallab, ko'ngliga vasvasa solishiga qo'yib berdi. Sharpalar uning vujudini tamom asir qilib olgandan so'ng esa u o'zini butkul ojiz va xo'rlanganday his etdi, nima qilarini bilmay betoqat bo'ldi va o'zidan-o'zi jirkaib ketdi.

- Mana o'sha do'kon! Xuddi shu! b'ḥ"qichqirdi mister Dedalus. b'ḥ"Ḥendan bu haqda ko'p eshitgansan-a, to'g'rimi, Stiven? Bu do'konga bizlar bir to'da bo'lib tez-tez kirib turardik, o'sha paytlar bizlarni hamma tanirdi. Garri Pird, kichkina Jek Maunten, tag'in Bob Dayes, yana fransuz Moris Moriarti, Tom O'Greydi, Mik Leysi, men senga ertalab u haqda gapirib bergandim, Joun Korbet, bechora oqko'ngil Jonni Kivers.

Mardayk ko'chasidagi daraxtlar bargi shitirlab, quyosh nurida yaltillab shivirlaydi. Ularning yonidan kriket komandasi o'yinchilari, sport kiyimida barvasta yosh yigitlar o'tishdi, bittasi darvoza to'ri solingan uzun yashil qopni ko'tarib olgan. Bo'm-bo'sh tor ko'chada sayoq musiqachi-nemislar b'ḥ"rangi unniqib ketgan harbiy mundirlardagi besh kishib'ḥ"eskirib qolgan asboblarda o'zlarini qo'rg'alab olgan bolalarga, shu atrofda idoralarning bekorchi yugirdaklariga kuy chalib berayotir. Boshiga oq ro'mol tang'ib olgan fartukli oqsoch ayol quyoshda oq marmarday yaltirab turgan deraza raxiga qo'yilgan qutidagi gullarga suv quyayotir. Boshqa bir lang ochiq derazadan royalning sadosi taraladi, musiqa sadolari tobora yuqorilab avjiga chiqadi.

Stiven otasining yonida, uning hikoyalarini eshitib borayotir. Otasining yo'qolib, o'lib ketgan hamshishalari, yoshlikdagi do'stlarining ismlarini u oldin ham ko'p eshitgan edi. Uning ko'ngli aynib, yuragi siqila boshladi. U o'zining Balvederda kechirgan beqaror ahvoli haqida o'yladi b'ḥ"stipendiya oladigan, sinfda eng a'lochi, o'zining obro'sidan cho'chiydigan, mag'rur, sal narsaga arazlab qoladigan, har narsaga shubhalanadigan, turmushning notavonligi va o'zining tiyiqsiz o'y-xayollaridan zada o'quvchi. Siyoh chaplangan partaga o'yilgan harflar jimirlab, uning jismonan kuchsizligini, bema'ni ehtiroslarini masxaralaganday aji-buji bo'lib ko'z oldida o'ynoqlar, o'zining uquvsiz yovvoyi fe'l-atvoridan jirkanishga majbur etardi. Og'zidagi so'lagi zaharday achchiq tuyuldi, tomog'iga tiqildi, ko'ngli aynib boshi gangidi va u bir daqiqacha ko'zini yumib, hatto hech nimani ko'rmay qadam tashladi. Otasining ovozi esa yonginasida eshitilib turardi.

b'ḥ"Sen voyaga yetib, odamlar qatoriga qo'shilganingda, Stiven, men shunday bo'lishiga judayam ishonaman, bir narsani unutmagin: qanday ishning boshini ushlashingdan qat'i nazar, doimo intizomli, insofli odamlar bilan birga bo'l. Yoshlik paytimda men, senga ochig'ini aytib qo'ya qolay, davrimni surganman, do'stlarim ham halol, olijanob yigitlar edi. Har qaysimiz qaysidir tomondan ustun edik. Birovning ovozi zo'r bo'lsa, boshqa birovida artistlik qobiliyati bor edi, kimdir bir band she'rni qoyil qilib aytolsa, kimdir eshak tortishda tengi yo'q yoki tennis kortida birinchi edi, boshqasi latifani suv qilib ichardi. Biz hamma narsaga qiziqardik, hayotdan ko'nglimiz tusagan, qo'limiz yetgan hamma narsani olardik, xullas, o'z shavqu sharobimizda yashaganmiz, biroq bundan biror-bir insonning ko'ngliga zig'ircha og'irlik botmagan. Chunki hammamiz birday tartibli-intizomli yigitlar edik, halol irlandlar edik, Stiven. Sen ham shunday b'ḥ"halol, olijanob yigitlar bilan ulfat bo'lishingni xohlayman, o'g'lim. Ko'rib turibsan, men sen bilan xuddi do'stim bilan gaplashganday gaplashaman, Stiven, chunki o'g'il bola hech qachon otasidan hayiqib, o'zini olib qochib yurmasligi kerak, deb hisoblayman. Shuning uchun, bobong rahmatli sening yoshingda menga qanday muomala qilgan bo'lsa, men ham senga shunday muomala qilaman. Bobong bilan ikkovimiz ota-boladan ko'ra ko'proq aka-ukaga o'xshardik. Meni birinchi marta og'zimda trubka bilan ushlagani hech yodimdan chiqmaydi. Kechagiday esimda, Saut-terrasda o'zim tengi mishiqlar bilan g'o'ddayishib turibmiz, o'zimizni go'yo botmon chog'laymiz, tumshuq osmonda, hammamizning og'zimizda trubka. Bir payt, shundoq qaragam, yonginamdan otam o'tib borayapti. Bir og'iz gapirmadi, to'xtamadi ham hatto. Ertasi kuni yakshanba edi, ikkalamiz birga aylangani chiqdik, bir payt, uyga qaytayotganimizda, u cho'ntagidan papiros qutisini chiqarib nima deydi de: "Ha, aytganча, Saymon, men sening chekishingni bilmas ekanman", deydi. Men nimadir degan bo'lib ming'irladim chog'i, u qutini menga cho'zib: "Yaxshi tamakiga tobing qalay, qani bu sigaraniyam sinab ko'r-chi. Menga buni kecha kechqurun Kuinstaunda amerikalik bir kapitan sovg'a qildi", deydi.

Stiven otasining piqqillaganini eshitdi, bu kulgidan ko'ra xo'rsiniqqa o'xshab ketardi.

- O'sha paytda u Korkdagi yigitlarning eng oldi edi. Senga bor gapni aytayapman. Ko'chadan yurib o'tsa ayollar to'xtab, orqasidan termilib qarab qolardi.

Shu yerda otasining tovushi o'kirgan yig'idan bo'g'ilib qoldi va Stiven beixtiyor ko'zlarini katta ochdi. Birdan ko'zining qorachig'iga yopirilib kirgan yorug' nur ichida u g'aroyib sehrlil olamnib b' qoramtir tUSDagi osmonda burqirab yotgan pag'a-pag'a bulutlar va ularga sel bo'lib quyilayotgan to'q qizil yog'duni ko'rdi. Miyasining ichi lo'qillab og'rir, boshi tanasiga bo'ysunmasdi. U do'konlar peshtoqiga ilingan lavhalaridagi harflarni zo'rg'a farqlardi. O'zining yovvoyi fe'l-atvori bois, u hayotdan tamom begonlashib qolganday edi. Atrofdan ro'y berayotgan biror-bir hodisa, agar uning tushkun kayfiyatiga hamohang bo'lmasa, unga ta'sir etmas va uni o'ziga jalb qilolmasdi. Na yozning ko'rk-tarovatiga, na shodligu do'stlikka ko'nglida rag'bat sezar, na tiriklik shavqi yoki oddiy isoniy da'vat uning chiroyni ochar, otasining ovozi esa asabini qo'zg'ar va ezgin ruhini battar azoblardi. U miyasida kechayotgan fikrlarni zo'rg'a idroklar va ichida sekin takrorlardi:

"Men b' Stiven Dedalus. Otam bilan birga ketyapman, uning ismi-sharifi Saymon Dedalus. Biz hozir Korkdamiz, Irlandiyadamiz. Kork b' bu shahar. Biz "Viktoriya" mehmonxonasiga tushdik. Viktoriya. Stiven. Saymon. Stiven. Viktoriya. Ismlar".

Bolalik xotiralari to'satdan xira tortdi. U yodida qolgan yorug' daqiqalarni eslashga urindi, biroq eslay olmadi. Xotiriga faqat nomlargina keldi: Denti, Parnell, Kleyn, Klongous. Ushoqday bolakayni keksa ayol geografiyaga o'qitardi, shkafda ayolning ikkita cho'tkasi bo'lardi. Keyin uni kollejga jo'natishdi. U birinchi marta ilohiy qovushish marosimida qatnashdi, kriket o'ynaganda kiyadigan qalpog'iga yashirgan shokoladlarni yedi, kasalxonaning tor palatasida, devorda bilanglab o'ynayotgan olov aksiga termildi, xayolida qanday o'lishini, rektorning hashamli libosda kelib, uning dafn marosimida xizmat qilishini, jasadini esa bosh arg'uvonzor xiyobon ortidagi chog'roqqina qabristonga dafn etishlarini tasavvur qildi. Biroq o'shanda u o'lmadi. Parnell esa o'ldi. Na cherkovda ibodat, na dafn marosimi bo'ldi. Parnell o'lgani yo'q, balki quyoshda tarqagan tumanday erib ketdi. U yo'qoldi, yo bo'lmasa hayotni tark etdi, chunki endi u yo'q. G'alati, tasavvurga sig'maydi b' u hayotdan ketdi-bordi, o'lgani yo'q, quyoshda erib bitdi yo koinotning allaqayerlarida sarson-sargardon kezib yuribdi! Ko'ziga bir soniya kichkina bolakay ko'rinib ketgani g'alati bo'ldi: ana u, o'zib b' bo'zrang belbog'li kamzulda. Qo'llari yon cho'ntaklariga tiqilgan, cholvarchasi tizzasidan pastdagi bog'ichlari bilan aylantirib tortib bog'lab qo'yilgan.

O'sha kuni kechqurun, otasining mol-mulki sotilib bo'lganidan keyin, Stiven uning ortidan itoatkorona ergashib, shahar bo'ylab mayxonalarga kirib-chiqib yurdi. Mister Dedalus bozordagi savdogarlarga, mayxona xizmatchilariga, ovqat tashuvchilar-u xayr-sadaqa so'ragan gadolarga tap tortmay bir gapni qayta-qayta takrorlar: o'zining Korkda tug'ilgani, asli tagi korklik ekani, o'ttiz yildan beri Dublinda yashayotganiga qaramay janub shevasini unutilib qo'ymagani va yonidagi mana bu yigitcha b' to'ng'ich o'g'li g'irt dublinlik takasaltang ekani haqida tinmay javrar edi.

Ertalab ular "Nkom" qahvaxonasidan chiqishdi, qahvaxonada mister Dedalusning qo'li qaltirab, chashkasi lipopchaga urilib, qattiq jaranglab ketdi. Stiven stulni qimirlatib, yo'talib, bu xijolatli ahvolni b' kechagi ichkilikbozlikning sharmandali oqibatini sezdirmaslikka urindi. Xo'rlanishlarning esa keti ko'rinmasdi: mister Dedalus o'zicha mehr ko'rgazmoqchi bo'lgan bozordagi savdogarlarning masxaralab kulishlari, bufetchi xotinlarning iljayishib mayna qilishlari-yu otasining do'stlari biri qo'yib, biri olib og'iz ko'pirtirib maqtashlari. Ular Stivenga sen xuddi quyib qo'yganday bobongga o'xshaysan deyishdi, mister Dedalus ma'qulladi, o'xshashga o'xshaydi-yu, faqat Stiven unday chiroyli emas, dedi. Ular uzoq tortishuvdan so'ng mister Dedalusni nutqidan korklik ekanini bilsa bo'ladi, degan xulosaga kelishdi va uni Li daryosi Liffi daryosidan chiroyli ekanini tan olishga majbur qilishdi. Ulardan biri Stivenning lotinchadan bilimini sinab ko'rmoqchi bo'lib, "Dilektus" dan bir necha iborani tarjima qil-chi, deb turib oldi va: "Tempora mutantur nos et mutantur in illis" to'g'rimi yoki "Tempora mutantur et nos mutantur in illis"[4] to'g'rimi, deb so'radi. Mister Dedalus Jonni Keshmen deb chaqirgan boshqa bir ezma chol undan qayerning qizlari chiroyli - Dublinning yo Korkningmi, deb so'rayverib ensasini qotirdi.

- Hoy, u sen o'yilaganlardanmas, - dedi mister Dedalus. b' Tirg'alavermasang-chi unga. U jiddiy, aqlli bola, hech qachon bunday bo'lmag'ur narsalarga boshini qotirmaydi.

- Ha-a, bunday bo'lsa, demak, u otasining o'g'li emas ekan-da, b' dedi ezma qariya.

- Bunisini biroq men bilmadim, - dedi mister Dedalus ishshayib.

b' Sening otang, b' dedi ezma chol Stivenga, - yoshligida Korkdagi qizlarni qiyratardi. Sen buni bilmasmiding?

Stiven boshini qo'yi soldi, mayxonaning kafel yotkizilgan yeriga termildi.

- Ulgirarsan hali uning boshini qotirishga, - dedi mister Dedalus. - Qo'y o'z holiga.

- Nega boshini qotirarkanman? Bobosi tengi odam bo'lsam. Haqiqatan ham men bobo bo'laman senga, to'g'rimi, - dedi qariya Stivenga. - Sen shuni bilasanmi?

- Yo'q, - dedi Stiven.

- Nahotki, - dedi ezma chol. - Sandz Uyelda ikkita toycho'g'im b' nevaram bor. Xo'sh? Seningcha, mening yoshim nechada? Men sening bobongni yaxshi eslayman, qizil kamzul kiyib, tulki ovlashga chiqardi. U paytlari sen hali dunyoga kelmagan eding.

- Uning dunyoga kelishi hech kimning xayolida ham yo'q edi, b' dedi mister Dedalus.

- Bo'lmasam-chi! - ma'qulladi ezma chol.

- Bilasanmi, men hatto sening bobongning otasini, Jon Stiven Dedalusniyam tanirdim. Ashaddiy duyelchi edi-da o'ziyam! Xo'sh! Xotira qalay?

b' Gapingga qaraganda uch, yo'q, to'rt avlodni bilarkansan, - dedi suhbatdoshlardan biri. - Hademay, Jonni Keshmen, naqd yuzni urarkansan.

- Men sizlarga yoshim nechadaligini aytaman, - dedi ezma chol. - Men ropa-rosa yigirma yettidaman.

- To'g'ri, Jonni, - dedi mister Dedalus. - O'zingni tetik his etayotgan bo'lsang, demak, hali yoshsan-da. Qani, oldikmi, tagida qolganini tinchitaylik, keyin boshqasini ochamiz. Hoy bola! Tim, Tom, isming nimaydi sening, shunaqasidan yana bir shisha keltir. Gapning rosti, o'n sakkizdaman go'yo, menga shunday tuyuladi, shu o'g'lim mendan ikki karra yosh, xo'sh, shunday bo'lgandan so'ng u mening oldimga tusha olarmidi!

- Unga tan berishing, Dedalus, harqalay, qiyin bo'lmaydi senga, - dedi haligina gapga qo'shilgan kishi.

- Yo'q, yo'q, jin ursin! - qichqirdi mister Dedalus. - Men ashulaning avjini undan yaxshi aytaman, ovdayam oldimga tushishga yo'l bo'lsin unga, men bilan tulki tutishga yuragi betlarmikan, ehe, o'ttiz yil burun, kerrilik bolalar bilan ovlardik-da tulkini! Ular ovning ma'nisiga borishardi, ma'nisiga!

- Biroq u seni mana bu bilan yengadi, mana bu bilan, - dedi ezma chol barmog'ini manglayiga nuqib va bir ko'tarishda qadahni bo'shatdi.

- Ha, uyam otasiday oqibatli inson bo'ladi, deb umid qilamiz, bundan ortiq nima ham derdik, - javob qildi mister Dedalus.

- Bundan ortiq tilak bo'ladimi, axir, - dedi ezma chol.

- Xudoga shukr qilaylik, Jonni - dedi mister Dedalus, - ko'p yashadik, biroq yomonlikni kam qildik.
- Aksincha, xayrli ishlarni ko'p qildik, Saymon, - g'ururlanib qo'shib qo'ydi ezma chol. - O'zingga shukr yaratgan egam, umrimizga umr qo'shganingga, ezgu ishlarni bisyor ravo ko'rganingga qulluq.
Stiven uchala qadahning qanday ko'tarilganiga qaradi, otasi va uning ikki kekxa oshnasi o'zlarining yoshligi uchun ichishdi. Taqdir yo fe'l-avtordanmi, ishqilib, allaqanday jarlik Stiveni ulardan bezdirardi. Nazarida, uning aqli qahru g'azabga moyil va qartayganday tuyulardi: u xuddi yer tepasidagi tafsiz oyday, guruglashayotganlarning bahslari, quvonch va anduhlari ustida, sovuq nur taratib turardi. Vujudida bir paytlar otasi va uning oshnalari his etayotgan hayot va yoshlik shavqini his etmasdi. Do'stona gurunglar quvonchi, erkak kishiga xos metinday sog'liq va farzandlik tuyg'usi unga begona edi. Uning qalbida sovuq, qahrli va mehrdan xoli mayllardan boshqa hech vaqo yo'q edi. Uning bolaligi barham topgan yoki g'oyib bo'lgan, u bilan birga oddiy quvonchlarga moyil ko'ngli ham hamma narsadan bezigan va hayotda go'yo osmondagi so'nik oy gardishiday, sargardon kezib yurardi.
Tolmadingimi ko'kda, oy? Ranging siniq, benavo.
Falak toqidan yerga qaraysan g'amgin, ma'yus.
Sayr etasan, tanho...
U ichida Shellining satrlarini takrorladi. Insonga xos norasolikni odam bolasiga nasib etmaydigan oliymaqom qudratga qarshi qo'ygani uni hushiga keltirdi va u o'zining shaxsiy, nochor va arzimasi g'am-anduhlarini unutdi.

* * *

Stivenning onasi, ukasi va amakivachchalaridan biri kimsasiz foster-pleysning burchagida kutib turadigan bo'lishdi, Stiven esa otasi bilan zinalardan ko'tarilishdi va soqchi-shotland borib-kelib yurib turgan ustunlar yonidan yurib ketishdi. Ular hayhotday zalga kirishib, kassaning darchasiga yaqinlashganda Stiven cho'ntagidan Irlandiya banki direktori nomiga yozilgan - bittasi o'ttiz, ikkinchisi uch funtli cheklarini chiqardi. Kassir cheklarga beriladigan summani, uning stipendiyasi va yozma ishiga berilgan mukofot - hammasini qo'shib, muomalada pul o'rnida yuradigan banknotlar va jaranglagan tanga bilan hisoblab sanab uzatdi. Stiven xotirjamlik bilan ularni bo'lib-bo'lib cho'ntaklariga joyladi va otasi bilan gaplasha turib uni qutlamoqchi, kelajagi porloq bo'lishini tilamoqchi bo'layotgan ochiqko'ngil kassirga enli to'siq ustidan itoatkorona qo'l uzatdi. Ularning ovozi Stivenning g'ashini qo'zg'adi va u betoqat bo'lib, tipirchilay boshladi. Biroq kassir, boshqalarni kuttirib qo'yib, zamon o'zgarib borayotgani, hozir eng muhimi, agar cho'ntak ko'tarsa, albatta, fazandni yaxshilab o'qitish kerakligini javray ketdi. Mister Dedalus shoshilmasdi, bir atrofga alanglar, bir shippa qarar, toqatsizlanayotgan Stivenga hozir ular eski Irland parlamentining binosida turishganini, jamoa palatasi shu yerda bo'lganini uqtirardi.
- Ajab zamonlar edi-da! - dedi mister Dedalus og'zidan bol tomib, - u davrning odamlari boshqacha edi - Xili-Xatchinson, Flud, Genri Gratten, Charlz Kendl Bush. Hozirgi zodagonman deganlardan o'rgildim, nuqul timirskilanishadi! Shular-da endi irland xalqining dohiylari! Bilasanmi Stiven, bu boyvachchalarni hatto qabristondayam haqiqiy irlandlar bilan yonma-yon yotishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Eh, jigarim, Stiven, bu, bilasanmi, haligi bir qo'shiqda aytadi-ku: "Saratonda ko'klam havosi" deb, shuning o'zginasi.
Bank tevaragida oktabrning izg'irinli shamoli izg'iydi. Ular loy yo'lakning chetida turishibdi, uchchalasining ham yuzlari sovuqdan ko'karib ketgan, ko'zlari yoshlanadi. Stiven onasining yengil kiyinganini sezdi va bir necha kun oldin Bernardo magazini vitrinasida yigirma giniya turadigan yelkaga tashlanadigan ayollar kamzulini ko'rganini esladi.
- Xo'sh, pulniyam oldik, - dedi mister Dedalus.
- Endi ovqatlangani borsak yomon bo'lmasdi, - dedi Stiven. - Qayerga borsak ekan!
- Ovqatlanamizmi? - dedi mister Dedalus. - Ma'qul bu, har qalay, yaxshi taklif.
- Arzonroq joyga kiraqolaylik, - dedi missis Dedalus.
- Kambag'albop joyga-ya?
- Ha, biror oddiyroq oshxonaga.
- Ketdik, - dedi Stiven toqatsizlanib. - Qimmatmi, arzonmi - nima farqi bor.
Stiven ularning oldiga tushib, mayda notekis qadam tashlab, jilmayib borardi. Ular ortda qolib ketmaslik uchun qadamlarini tezlatishdi va uning qichab yurayotganiga kulimsirashdi.
- Hovliqmasang-chi, - dedi otasi. - Yov quvayaptimi, kap-katta yigitga yarashmaydi bunday shoshqoloqlik. Sovg'adan quruq qolayapmizmi buncha yugirib!
Ular bo'lar-bo'lmas ko'ngilxo'shliklarga pul sarflab yurib kunning qanday o'tganini sezishmadi, Stivenning qo'lidagi mukofot puli hash-pash deguncha tugab bitdi. Shahardan uyga turli-tuman shirinliklar, konfetu quritilgan meva-chevalar solingan katta qutilarni ko'tarib kelishdi. Har kuni Stiven oila uchun tayyorlanadigan taomlar ro'yxatini tuzar, kechqurunlari ular uch yoki to'rt kishi bo'lib, "Ingomara" yo "Lionlik nozanin"ni tomosha qilgani teatrga o'tlanishardi. Uning kalta kamzulinig cho'ntagida ulfatlarga atalgan vena shokoladi bo'lar, shimining cho'ntagida esa bir siqim kumush va mis tangalar shaqirlardi. U hammaga sovg'a xarid qilar, o'zining xonasini qayta boshdan bezashga kirishib ketar, allaqanday loyihalar ustida bosh qotirar, javondagi kitoblarning joyini almashtirar, narx-navolar yozilgan ma'lumotnomalarni o'rganar, oilaning har bir a'zosisiga aniq vazifa yuklanadigan yangicha qat'i tartib-qoida o'rnatmoqchi bo'lardi. Uyidagilar uchun foiz evaziga qarz beradigan kassa ochdi va faqat kvitansiya yozish-u tushadigan foizni hisoblashning zavqiga berilib, yordam so'raganlarga qarz ulasha boshladi. Bu mashg'ulotlar joniga tekkach, u oyog'iga konki tang'ib olib, shahar bo'ylab sang'idi. Oxir-oqibat barcha ermaklaridan bezdi. Qirmizi sir bo'yoq tunuka qutida qotgan qoldi, devorga qoplangan taxta bo'yalmadi, chala-chulpa urilgan suvoq esa ko'chib tusha boshladi.
Oila odatdagi turmush tarziga tushib oldi. Onasi endi uni isrofgarchilikka yo'l qo'ygani uchun koyimasdi. O'zi ham burungi, maktabda paytidagi hayot yo'siniga qaytdi, o'rnatgan yangiliklari esa barbod bo'ldi, respublikasi quladi. Qarz beradigan kassasi juda katta kamomad bilan yopildi. O'zi uchun tuzgan yashash tartib qoidasi o'z-o'zidan buzilib ketdi.
Naqadar bema'ni harakatlar edi bu! U tevaragidagi hayotning bo'tana oqimiga qarshi tartib va fayzu tarovat to'g'onini tiklamoqchi, axloq qoidalari hamda foydali mashg'ulotlar ko'magida yangicha oilaviy munosabatlarni joriy etib, vujudidagi bezovta tug'yonni bosmoqchi bo'ldi. Bari bekor ketdi. Bo'tana oqim ham sirtidan, ham ichdan to'siqni buzib bostirib kirdi: g'arq bo'lgan to'g'on ustida har ikki oqim shiddat bilan to'qnashdi.
U endi bu hayotga o'zining tamom begonaligiga ham aqli yetib turardi. Tug'ishganlariga ham oldingiday bemalol yondashib borolmaydigan bo'lib qoldi, xijolatga solgan bo'lar-bo'lmas ishlarini, orttirgan behuda tashvishlari-ni yodidan chiqarolmas, bu

qilg'iliklari uni onasi, ukasi va singillariga begonasiratik qo'ygan edi. O'zining ular bilan qondoshligini his etmas, nazarida allaqanday sir ularni bog'lab turganday, go'yo bu oilaga o'zi asrandi farzand, ukasi singillari esa shunchaki bir ko'krakdan sut emishgan-u, aslida begonalarday edi.

U yana vujudini qiynoqqa solayotgan tashnalikni qondirishga urindi. Bu tashnalik oldida ko'ziga hech narsa ko'rinmas, og'ir gunohga botgani-yu, hayoti yolg'on-yashiq vaj-karsonlarga qorishib ketayotgani uni ortiq bezovta qilmasdi. Jonini azoblayotgan jirkanch xohish yo'ldan ozishga undar, uning uchun biror-bir aziz narsa qolmagandi. U loqaydlik bilan tiyiqsiz o'y-xayollariga erk berib, ko'zi tushgan har qanday qiyofani tasavvurida jonlantirib, shahvoniy maylga pinhona ruju qo'yardi. Qarshisidan chiqib qolgan notanish ayol, garchi kunduz kun unga nechog'li bokira tuyulmasin, oqshomlari bosirinchi tushlarida betlari lovillab, ko'zlari hayvoniy hirs bilan yonib ko'rinardi. Faqat ertalab, o'rnidan turgach, to'shakda xayolidan kechirganlarini eslab bezovtalanar, tobora gunohga botib borayotganidan ich-ichidan ezilardi.

Uning boshi tag'in uyga sig'may qoldi. Tumanli kuz oqshomlari, xuddi bir necha yil burun Blekrokning sokin ko'chalarini kezishga jazm etganday uni yana tor ko'chalarda sag'ishga undardi. Biroq endi na uylar oldidagi bir tekis qilib butalgan bog'chayu gulzorlar va na derazalardan yog'ilib turgan nurafshon yog'dular uning yuragiga iliqlik olib kirardi. Faqat ora-sirada, ko'ngli xotirjam tortib, xohish tug'ilgan damlarda va tinkasini quritgan shahvat o'rnini huzurli charchoq egallaganda xotirasining tub-tubidan Mercedes qiyofasi qalqib chiqib kelardi. Yana tog' yo'lidagi kichkina oq uyda va barq urib ochilib yotgan atirgullarga to'la bog'chani ko'rdi va o'ning kumush nurlariga cho'milib yotgan bog'chada qiz bilan, shuncha yillarga cho'zilgan ayriliq va sarson-sargardonlikdan so'ng, qo'l ushlab turganini, g'amgin qiyofada, biroq o'zini mag'rur tutib, boshini sermab qizga rad javobini qilganini va aytishi lozim bo'lgan o'sha gapni aytganini esladi. Shu daqiqalarda xayolida Klod Milnotning sokin nutqi jaranglaganday bo'lib, yuragidagi g'ashlikka taskin berdi. U bir paytlar intizor bo'lib kutgan totli uchrashuv xayoli, garchi o'sha vaqtlardagi orzu-umidlari bilan fe'l-atvoridagi qat'iyatsizlik, tortinchoqlik va tajribasizlikka bir zumdayoq barham beradigan haqiqiy, huzur-halovatli visol ishtiyogi o'rtasida shafqatsiz borliq tubsiz jarday bo'lib yotganiga qaramay, uning qalbini munavvar tuyg'ularga to'ldirdi.

Bu totli lahzalar o'tib, o'cha boshlagan shahvat alangasi yana vujudini junbushga keltira boshladi. She'r satrlari uning lablarida qotdi, yovvoyi hayqiriq va beandisha so'zlar miyasida charx urib, otilib chiqishga shay edi. Tomirlarida qon gupirardi. U shiltasi chiqib ketgan ko'chada izg'ir, tor ko'chalarning qorong'u burchaklariga, darvozalarga suqlanib qarar, tiq etgan tovushga qulog'ini ding qilardi. U xuddi o'ljasining izini yo'qotib qo'ygan yirtqichday uvladi. U o'ziga o'xshagan mahluq bilan ayb ishga bosh qo'shish, uni gunoh qilishga majburlash va u bilan gunohga botib rohatlanishni qo'rsardi. U zimiston qa'ridan allaqanday qora narsa shiddat bilan o'zi tomon, xuddi tutqich bermaydigan va vishillagan asov selday bostirib kelayotganini his qildi va bu oqim uni tamom g'arq etguday edi. Bu vahimali vishir-vishir bosirinchi tushdagi kabi ko'pirib-toshib quloqlariga urildi, ko'z ilg'amas uzun tomchilar a'zoyi-badanini ilmateshik qilib o'tganday bo'ldi. Bu chidab bo'lmas og'riq azobidan barmoqlari titrab-qaqshab musht bo'lib tugildi, tishlari bir-biriga qapishib ketdi. Ko'chada turib allaqanday nozik, silliq va maftunkor bir nimani tutib qolmoqchi bo'lib qo'llarini uzatdi, va allaqachondan beri bo'g'zida tutib turgan chinqiriq lablaridan otilib chiqdi. Chinqiriq misoli badbaxt gunohkorlarning jahannamdagi ohu nolalariday fig'onli chiqdi va achchiq, yig'lamsiragan hirqiroqli iltijoga aylanib o'chdi, bu ayni hojatxonaning zax tortgan devorida u ko'rgan uyatsiz yozuvning ayanchli aks-sadosi edi.

Bir mahal u boshi aylanib tor, iflos ko'chalarga kirib qoldi. Badbo'y jinko'chalardan uning qulog'iga shovqin, mast-alas baqiriq-chaqiriqlar, so'kinishlar, hirqiragan shirakayf tovushlar eshitildi. Bularning unga ta'siri kam edi, u qayerga kelib qoldim, bu yahudiylar kvartali emasmi, deb hayron bo'lib turardi. Uzun yaltiroq ko'ylaklar kiyib, atir-upaga belanib olgan xotinlar va yosh qizlar ko'chani kesib o'tishib, u uydan bu uyga kirib-chiqib yurishardi. Uni qaltiroq bosib, ko'z oldi qorong'ulashdi. Tuman bosgan nigohida, bulutli havo qorong'usida fonuslarning sarg'ish qo'zog'i mehrob peshtoqiga yoqib qo'yilgan shamlarday yiltillab ko'rindi. Eshiklar oldida va yorug' ayvonchalarda xotinlar, allaqanday marosimga shaylanayotganday, to'da-to'da bo'lib turishardi. U butunday boshqa dunyoga tushib qoldi: go'yo ming yillik uyqudan uyg'ondi.

U ko'chaning o'rtasida turar, yuragi ko'kragini yorib chiqquday gursillab urardi. Qizil ko'ylakli yoshgina ayol qo'lini uning yelkasiga qo'ydi va ko'zlariga tik qaradi.

- Xayrli shom, yoqimtoy Villi! - dedi juvon quvnoq ohangda.

Uning xonasi issiq va yorug' edi. Kattakon qo'girchoq oyoqlarini kerib, karavot oldidagi oromkursida o'tiribdi. Stiven juvon ko'ylagini qanday yechayotganiga qaradi, atir ufurgan boshining mag'rur, qat'iyatli harakatini ko'rdi, o'zini bamaylixotir ko'rsatish ilinjida birgina so'z aytishga o'zini majburlashga urindi.

Va shu zayl miq etmay xonaning o'rtasida qaqqayib turganida juvon yaqiniga keldi va uni quchoqladi - shodon va xotirjam quchoqladi. Juvonning lo'ppi qo'llari uni qattiq quchdi va uning ortga engashgan jiddiy, xotirjam yuzini ko'rib, ko'kragingning sokin va bir tekis ko'tarilib tushayotganini his etib, Stivenning jazavada o'kirib yig'lab yuborishiga sal qoldi. Uning mahliyo bo'lgan ko'zlarida sevinch va orom yoshlari balqidi, garchi bir so'z aytmagan esa-da, lablari ochildi.

Juvon baldoqlari jiringlagan qo'li bilan uning sochlarini siladi va uni shumtaka, deb atadi.

ВѢ”O'p meni,- dedi juvon.

Uning lablari qimir etmadi, juvonn o'pmadi. Juvon o'zini yana qattiqroq quchib turishini va ohista-ohista erkalashini xohlardi u.

Juvonning quchog'ida u o'zini favqulodda kuchli, botir va qat'iyatli his etdi. Biroq uning lablari qimir etmadi, juvonn o'pmadi.

Bexos harakat bilan juvon uning boshini egdi va o'zining lablarini uning lablariga bosdi, Stiven juvonning o'ziga oshkora tikilib qaragan ko'zlaridan harakatining ma'nosini uqdi. Bu endi uning imkonidan tashqarida edi. U ko'zlarini yumdi, jonu tanini ayolga topshirib, uning yumshoq xiyol ochiq lablaridan o'zga dunyodagi hamma narsani unutdi. O'payotib, juvonning dudoqlari uning lablarigagina emas, aqlu hushiga ham ta'sir etdi, go'yo unga nimadir aytmog'chi bo'ldi va tuyqusdan, lahza ichida, u hech qachon his etmagan, eng mudhish gunohdan-da og'ir, hid yoki tovushdan mayin va ma'sum aloqani tuydi.

AvvalgiI- qismB Keyingi

This is not registered version of TotalDocConverter

В†: "Tangrini boz sharaflamoq chun" (lot.) - iyezuit ordeni shiori.

В†: Laus Deo Semper - tangrini boz sharaflamoq uchun (lotincha). Iyezuit maktablarida yozma ishga qayd etiladigan odatdagi belgi.

В†: "Vaqt o'zgaradi va biz ham u bilan birga o'zgarib boramiz" (lotincha). Birinchisi to'g'ri.